

ISBN 978 9943-4816-5-7



9 789943 481657

63.3

X-72

**Z.T.Xolboyev, F.Sh.Aqchayev,  
D.T.Eshbekova, G.T.Eshbekova**

**TARIX FANLARIDAN  
LABORATORIYA  
MASHG'ULOTLARINI  
BAJARISH USULLARI**

Z.T.Xolboyev, F.Sh.Aqchayev,  
D.T.Eshbekova, G.T.Eshbekova

# TARIX FANLARIDAN LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINI BAJARISH USULLARI

(O'quv-uslubiy qo'llanma)



Toshkent  
«MUMTOZ SO'Z»  
2016

UO'K: 94(575.1)

KBK 63.3(50')

### **Tuzuvchilar:**

*Z.T.Xolboyev, F.Sh. Aqchayev, D.T.Eshbekova – JDPI o'qituvchilari,  
G.T.Eshbekova – JDPI qoshidagi 2-sonli akademik litsey o'qituvchisi*

*5110600 – Tarix o'qitish metodikasi yo'nalishi o'quv rejasiga kiritilgan "Tarix o'qitish jarayonini loyihalash", "Arxeologiya" va "Tarix o'qitish nazariyasi va metodikasi" fanlaridan laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish mobaynida talabalar, tarix fanlarini o'qitishni zamonaviy asosda tashkil etish uchun lozim bo'lgan uslubiy jarayonlarni o'zlashtirishlari talab etiladi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda "Tarix o'qitish jarayonini loyihalash", "Arxeologiya" va "Tarix o'qitish nazariyasi va metodikasi" fanlaridan laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish uchun ayrim mavzularni loyihalashtirish uchun quyida tavsiya etilayotgan uslubiy ko'rsatmalar muhim ahamiyat kasb etadi.*

*Mazkur o'quv-uslubiy qo'llanma tarix fakulteti talabalari uchun mo'ljallangan.*

### **Mas'ul muharrir:**

f.f.n. dots. A.AMANLAYEV

### **Taqrizchilar:**

- B.Mirkomilov – Jizzax viloyat pedagogik xodimlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti dosenti, tarix fanlari nomzodi.
- R.R.Nurqulova – J.D.P.I dotsenti, t.f.n. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi.

*O'quv-uslubiy qo'llanma Jizzax Davlat pedagogika instituti Ilmiy Kengashining 2016 yil 22 mart oyidagi 7-sonli yig'ilishida muhokama qililib va nashrga tavsiya etilgan.*

ISBN 978-9943-4816-5-7

© Z.T.Xolboyev va boshq., 2016

© «MUMTOZ SO'Z», 2016

## KIRISH

Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar tufayli jamiyatning barcha sohalari jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishlarda shuningdek, ta'lim tizimida ham so'ngi yillarda (misol sifatida ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitish) keskin o'zgarishlar yuz bermoqda. Mamlakatimizda ilm-fan, texnika va texnologiyalarning so'ngi yutuqlariga asoslangan mukammal ta'lim tizimini barpo etish vaqt o'tgan sari dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2012-yil 28-maydagi "Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"<sup>1</sup>gi qaroriga ko'ra, bugungi kunda Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida o'quv jarayoni tegishli darajada tashkil qilinishi, mashg'ulotlar zamonaviy ta'lim texnologiyalariga tayangan holda o'tkazilishi lozimligi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'minlanishi zarurligidan kelib chiqib, tarix fanlarini maqsadli, samarali va kafolatlangan natijali o'qitish davr talabiga aylanib bormoqda. Xususan, bugungi kunda ta'lim tizimida o'tilayotgan fanlarni mavzular bo'yicha samarali loyihalash, hamda ularni dars jarayoniga tatbiq etish mexanizmini yoritib berishga, kam vaqt sarflab ko'proq ilmiy-pedagogik natijaga erishishga harakat qilinmoqda.

Hozirgi ta'lim jarayonidagi tadqiqotlar shuni isbotlamodaki moddiy ba'za, standart, o'quv rejalar, dastur va darsliklar qanchalik takomillashtirilmasin, kutilgan asosiy natijaga erishish, chuqur va puxta bilim berish, yuqori sifatdagi o'zlashtirishga erishish bevosita nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini olib boruvchi o'qituvchining ijodkorligi, izlanuvchanligi, malakasiga, pedagogik mahoratiga bog'lanib qolish bilan bir qatorda o'quv-biluv markaziga ta'lim oluvchini turmog'ini taqozo etadi. Har qanday ta'lim o'quvchi shaxsiga, uning qiziqish, xohish istagiga, ehtiyojiga qaratilmog'i ya'ni ta'limni individuallashtirishni talab etadi. Bu maqsadlarga erishish uchun fan o'qituvchisidan avvalambor o'z ustida tinimsiz ishlashi va albatta talabalarni mustaqil izlanishlarga yo'naltirishi lozim<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Malakali pedagog kadrlar hamda orta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning qarori. // Xalq so'zi, 2012. 29 may, № 10.

<sup>2</sup> Akchayev F. Tarix fanini oqitishda innovatsion texnologiyalar. – Jizzax.: 2014. 14 b.

O'zbekiston Respublikasining Oliy ta'limga doir me'yoriy hujjatlari-da mustaqil ta'lim, talabalarning mustaqil ishlari o'quv mashg'ulotlari-ning turlaridan biri, ta'lim olishning muhim shakli, usuli sifatida ko'rsatilgan. Mustaqil ta'lim negizini ta'lim oluvchining mustaqil ishlari tashkil etadi. Mustaqil ishlar o'quv-biluv faoliyatining bir turi, o'quv faoliyatining tashkiliy shakl-usuli, bilim o'zlashtirish yo'li, vositasi sifa-tida namoyon bo'ladi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, talaba mustaqil ravishda shug'ullansa va o'z ustida tinimsiz ishlagina bilimlarni chuqur o'zlashtirishi mum-kin. Talabalarning asosiy bilim, ko'nikma va malakalari mustaqil ta'lim jarayonida, xususan laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish jarayonida shakllanadi, mustaqil faoliyat ko'rsatish qobiliyati rivojlanadi va ularda ijodiy ishlashga qiziqish paydo bo'ladi. Shuning uchun talabalarning mustaqil ta'lim olishlarini rejalashtirish, tashkil qilish va buning uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, dars mashg'ulotlarida talaba-larni o'qitish bilan bir qatorda ularni ko'proq o'qishga o'rgatish, bilim olish yo'llarini ko'rsatish, dars mashg'ulotlarini mustaqil loyihalay olish uchun yo'llanma berish oliy ta'lim muassasasi rahbariyati va har bir professor-o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Talabalarning laboratoriya mashg'ulotlarini bajarishlari oily ta'lim-ning boshlang'ich bosqichlarida tashkil etish bir qator vazifalar bilan bog'liq. Ayniqsa, birinchi kurs talabalarining uzluksiz ta'limning nav-batdagi turi-oliy ta'lim talablariga ko'nikishi qiyin kechadi. Kuzatishlar shuni isbotlaydiki ular ta'lim olish jarayonida o'z mustaqil faoliyatlarini tashkil qilishni deyarli bilishmaydi. Ma'lumotlarni qaysi manbadan, qanday qilib topish, ularni tahlil qilish va zarurlarini ajratib olib tartibga solish, konspektlashtirish, o'z fikrini aniq va yorqin ifodalash, o'z vaqt-larini to'g'ri taqsimlash, shuningdek, aqliy va jismoniy imkoniyatlarini to'g'ri baholash ular uchun katta muammo bo'ladi. Eng asosiysi, ular mustaqil ta'lim olish va laboratoriya mashg'ulotlarini bajarishga ruhan tayyor bo'lishmaydi.

Shuning uchun har bir professor-o'qituvchi dastlab talabada o'z qobiliyati va aqliy imkoniyatlariga ishonch uyg'otishi, ularni sabr-toqat bilan, bosqichma-bosqich mustaqil bilim olishni to'g'ri tashkil qilishga o'rgatib borishi lozim bo'ladi. Talabalar tomonidan mustaqil ravishda o'zlashtiriladigan bilim va ko'nikmalarning kursdan-kursga murakkab-lashib, kengayib borishini hisobga olgan holda ularning tashabbuskor-ligi va rolini oshirib borish zarur. Shunda laboratoriya mashg'ulotlariga

ko'nika boshlagan talaba faqat o'qituvchi tomonidan belgilab berilgan ishlarni bajaribgina qolmay, o'zining ehtiyoji, qiziqishi va qobiliyatiga qarab, o'zi zarur deb hisoblagan qo'shimcha bilimlarni ham mustaqil ravishda tanlab o'zlashtirishga o'rganib boradi<sup>3</sup>.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda pedagogika Oliy o'quv yurtlari 5110600-tarix o'qitish metodikasi yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalarning o'quv rejasiga "Tarix o'qitish jarayonini loyihalash", "Arxeologiya" va "Tarix o'qitish nazariyasi va metodikasi" nomli o'quv fanlariga laborotoriya mashg'ulotlarini kiritilganligi ham bejiz emas.

Tarix fanlaridan laborotoriya mashg'ulotlarining asosiy maqsadi ham bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish, pedagogik tafakkurini kengaytirish, ularda fanni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash va darslarni loyihalash uchun zarur bo'lgan metodik bilim, ko'nikmalarni shakllantirishdan iboratdir.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki bugun yurtimizda uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilinishi, yangi ta'lim standartlari asosida ta'lim va tarbiya jarayonini qayta tashkil etishga kirishilgan hozirgi kunda o'qituvchi faoliyatiga, uning pedagogik mahoratiga alohida e'tibor berilmoqda.

Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: "Tarbiyachilarning o'ziga zamonaviy bilim berish, ularning ma'lumotini, malakasini oshirish kabi paysalga solib bo'lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz. Mening fikrimcha, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirishdagi asosiy muammo ham mana shu yerda. O'qituvchi bolalarimizni zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun avvalo, murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak".

Yuqori saviyada o'tilgan darslar o'quvchilar ongida uzoq saqlanadi, ularning ilmiy dunyoqarash va mafkuralarining shakllanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli o'qituvchini ilmiy saviyasi, o'z burchiga munosabati, yoshlarga murabbiylik ishtiyoqi, pedagogik mahorati dastlab darsda bilinadi. Fan o'qituvchisining faoliyatiga beriladigan baho darajasini ham darsning sifati belgilaydi.

Dars berish san'atini egallashda o'qituvchi uyushtirgan darsi, chuqur bilim berish vositasi bo'lishi bilan birga, O'zbekistonning ravnaqi, ertangi kunga bo'lgan ishonch, xalqimizning aql-zakovati va mehnatining nimalarga qodirligi, jamiyatning munosib fuqarosi va o'qituvchisi bo'lish uchun nimalar qilish zarurligini ko'rsatuvchi ko'zgu bo'lib xizmat qiladi.

<sup>3</sup> Pardayev A., Akchayev F. Oliy ta'limda uslubiy jarayonlar. – T.: 2014. 31-32 b.

Hozirgi paytda pedagogikada zamonaviy dars tushunchasi tez-tez tilga olinmoqda: "Zamonaviy dars, o'zi qanday dars?" degan savol tug'iladi, albatta. Pedagogika fanlari doktori, professor J.G'.Yo'ldoshev o'zining uslubiy ko'rsatma va mavzuga doir maqolalarida "Zamonaviy dars shunday darski, unda o'qituvchi o'quvchining mavjud imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalanib, uning aqliy potensialini ishga solib, rivojlanishini ta'minlaydi. O'quvchi esa, o'z navbatida, bilimlarni chuqur o'zlashtiradi va ma'naviy barkamollik sari odimlaydi" degan fikrlarni ilgari suradi.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, dars bu ta'limning asosiy tashkiliy shakli bo'lib, u muayyan miqdordagi doimiy o'quvchilar tarkibi bilan qat'iy tartibda uyushtiriladigan va aniq maqsadga yo'naltirilgan didaktik tadbiridir.

Bugungi kunda pedagogik adabiyotlar va amaliyotda "loyihalash" atamasi ko'p qo'llanilmoqda. U muayyan darslar, alohida mavzular, yaxlit o'quv fanlari, o'quv mashg'ulotlari yoki fanlar komplekslarini ishlab chiqish bilan bog'lanadi va texnologiyalashgan pedagogik obyektlar, jumladan, pedagogik jarayonlarni yaratishga ko'maklashadi.

Loyihalashtirilgan pedagogik jarayonlar asosida shaxsning kasbiy sifatlarini shakllantirish qonuniyatlariga asoslangan ijobiy natijaga bosqichma-bosqich olib keladigan g'oyalalar yotadi.

Bugungi kunda muammoli o'qitish, aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish, ta'lim berishning kompyuter texnologiyasi, modul ta'lim texnologiyasi, kabilar keng qo'llanilmoqda va ular pedagogik jarayonni loyihalashga asos bo'ladi.

Pedagogik loyihalash pedagog va o'quvchilarning samarali faoliyatini ishlab chiqish bilan bog'liq. Puxta, savodli loyihalashtirilgan pedagogik jarayonlar, texnologiyalar va boshqa obyektlar vositasida pedagog o'quvchi shaxsini va o'z-o'zini rivojlantirishga erishadi, turli salbiy omillar ta'sirini kamaytiradi.

Loyihaviy ta'lim – ta'lim modeli bo'lib, unda o'qituvchi tomonidan loyihalash ko'rinishiga ega, muammoni izlash, uni tadqiq etish va hal etish, muayyan, beqiyos, shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega natija (mahsulot)ga erishish, uni ommaviy taqdim etish va jamoatchilik tomonidan baholanishini tashkil etish va rejalashtirishni anglatuvchi, mustaqil o'quv faoliyati tashkil etiladi.

Loyiha asosida o'qitish o'quvchining mustaqil ishlashi, fikr yuritishi, o'zi o'zlashtirib olishini kafolatlaydi. Bu metod o'quv maxsulini olishda



samarali bo'lib, o'quvchining o'quv-biluv faoliyatini tashkil etishda keng tavsiya etiladi.

Interfaollikni loyiha asosida tashkil etish hozirgi kunda eng aktual, yuqori samara beruvchi metod sifatida tan olinmoqda. Dars jarayonida loyihalar ustida ishlash aniq-sosial-ijtimoiy masalalar yechimiga qaratiladi.

Jumladan, ilmiy izlanishlarni, ijodkorlikni, axborotlarni, amaliy masalalarni yechish va hal etishda qulaylik tug'diradi. Loyiha asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilar fikr almashadilar, izlanadilar, hamkorlikda yechimini topadilar. Loyiha asosidagi darslarning boshqa usullardan farqi shundaki, o'quvchilar axborotlarni izlab topib, qayta ishlab, umumlashtirib o'zlari himoya qiladilar.

Dars loyihalari individual va guruhlariga mo'ljallab tuziladi. Yakka shaxsga qaratilgan loyihalarning afzalligi shundaki: umumo'quv-biluv ko'nikmalarini egallashda o'quvchining o'quv mehnatiga shaxsiy mas'uliyati juda yuqori bo'ladi. Chunki uning pirovard natijasi o'quvchi shaxsining o'zigagina bog'liq bo'ladi.

Loyiha asosida guruhlariga bo'linib darsni tashkil etishda o'quvchilar orasida o'zaro hamkorlik, hamijodkorlik holatlari asosida ish yuritiladi va ishni bunday asosda tashkil etishda dars samaradorligi kafolatlanadi.

Har bir o'quvchi o'zining bor qobiliyatini ishga soladi. Loyiha yechimini topishga faol kirishadi.

Loyihali darslarni tashkil etish juda murakkab jarayon, bunda har bir o'quvchining mustaqil ishlashini tashkil etish muammosi yotadi. Ya'ni qaysi vazifalarni o'qituvchi bajarishi kerak, qaysilarini o'quvchilarning o'zlari hal etishlari kerak va qaysilarini o'zaro hamkorlikda amalga oshirishni oldindan ko'ra bilish kerak, bularning hammasi loyihada ko'zda tutilmog'i talab etiladi.

O'quvchilarning mustaqil ishlashi ko'pgina omillarga jumladan: yoshiga, shaxsiy xarakteriga, moyilligiga, istak-xohishlariga, ilgari loyiha asosida ishlagan-ishlamaganligiga, loyiha mazmunining murakkabligiga, guruhlarda ishtirok etuvchilarning o'zaro munosabatlariga bog'liq bo'ladi. Loyiha asosida dars jarayonini olib borishda o'quvchining imkoniyati, qobiliyati, umumtayyorgarlik darajalari hisobga olinmog'i lozim.

O'quv jarayonini loyiha asosida tashkil etish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: O'quv predmeti mavzusini va mazmunini tanlash, darsning o'quv mavzusi yuzasidan yagona umummaqsadni belgilab olish,

darsning o'quv mazmunini ishlab chiqish beriladigan nazariy va amaliy bilimlarni belgilash, o'quvchi tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan tushuncha, bilim, ko'nikma, malakalarni ifoda etish, darsning shakli, metod, vositalarini tanlash, tushuncha, bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirish uchun ta'lim oluvchi tomonidan sarflanadigan vaqt birligi hisobini olish, har bir bosqich natijalarini olish uchun mashq va misollar tizimini yaratish, nazariy olib borish, testlar, savollarni ishlab chiqish, loyihani dars jarayoniga tatbiq etish, dars jarayonini olib borish va yakunlash mexanizmini yaratish.

Loyihali o'qitish faoliyati o'quvchining o'quv faoliyatini tashkil etuvchi jarayon hisoblanib bunda; o'qituvchi tomonidan taklif etilgan o'quv loyihalari, kichik loyihalarning maktab o'quvchilari tomonidan bajarilishi ko'zda tutiladi, o'quv loyihalari oldindan ishlab chiqilgan mezon ko'rsatkichlari asosida baholanadi, loyihada predmetlararo maqsadlar ko'zda tutilsa, yakuniy baholar ham chiqarilishi mumkin, loyiha asosida faoliyat tashkil etilganda o'quv-mavzularda rejalashtirilayotgan loyihani topshirish muddatlari ko'zda tutiladi, loyiha asosida o'quv faoliyatini tashkil etishga o'qituvchi rahbarlik qiladi va u loyihaning koordinatori hisoblanadi, loyihalar yakka shaxslarga va guruhlariga qaratilgan bo'ladi, loyiha topshiriqlari aniq, ravon shakllantirilgan, uning maqsad va vazifalari tushunarli, o'quvchilar bilan uning ijro yo'llari va mexanizmlari kelishilgan bo'ladi, ayrim hollarda yuqori sinf o'quvchilarining xohish va istaklariga binoan loyihalarni shakllantirish loyiha rahbari bilan hamkorlikda amalga oshirilishi mumkin.

Dars loyihalari o'zining davomiyligiga qarab: kichik loyihalar (bir soatli), qisqa muddatli loyihalar (4 soatga mo'ljallangan), haftaga mo'ljallangan loyihalar, uzoq muddatga mo'ljallangan loyihalar (ko'pincha bunday loyihalar darsdan tashqari ko'pincha mustaqil ta'limni amalga oshirishga xizmat qiladi) bo'lishi mumkin.

Loyiha asosida tashkil etiladigan darslar o'qituvchidan darsni tashkiliy jihatidan puxta o'ylangan, sifatli, ishchanlik muhitida, o'quvchilarni jarayonga qiziqitira oladigan tarzda loyihalay olishni talab etadi. O'quv jarayonini loyiha asosida tashkil etishda o'qituvchi faollikda ish yurituvchi emas, balki keng qamrovli ijodkor pedagog rolini o'tashi talab etiladi.

Loyiha asosida tashkil etiladigan darslar va unga sarf etiladigan vaqt, tashkiliy ishlar, beriladigan va to'g'ri yo'lga soluvchi savollar oldindan rejalashtirilishi kerak. Undan tashqari dars jarayonida sodir bo'lishi

mumkin bo'lgan kamchilik, xatolar, ularning oldini olish, jarayonning tahliliy tomonlari ham oldindan hisobga olinishi kerak. Shu bilan pedagog o'quvchining individual rivojlanishining o'ziga xos loyihasini yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, tarix o'qitish jarayonini loyihalash fanining maqsadi ham aynan ta'limning markaziga o'quvchini olib chiqib, unga beriladigan tarixiy bilimlarni sifat jihatdan yuqoriga ko'tarib ta'lim oluvchining bo'lib o'tgan yoki hozirda sodir bo'layotgan voqea va hodisalarga, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlarga o'zini mustaqil fikrini bildirib olish qobiliyatini shakllantirishga yo'naltirishdan iboratdir<sup>4</sup>. Zero, prezidentimiz ta'бири bilan aytganda "Tariximizdagi og'riqli davrlardan ham xulosa chiqarib yashashimiz kerak. Ertaga bizning o'rnimizga keladigan yoshlar ana shu tarix haqiqati bilan qurollanishi lozim. Chunki hech bir sohada hech kimdan kam bo'lmaydigan avlodgina buyuk davlat barpo etishi mumkin. Nega deganda, buyuk davlatni qurish uchun ma'rifatli, tarixni biladigan, undan saboq chiqara oladigan odamlar kerak"<sup>5</sup>.

O'quv fanining vazifalariga esa quyidagilarni kiritish mumkin:

– "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da aks etgan vazifalarni amalga oshirish;

– tarix darslariga yangiliklar kiritish mazmuni va yo'nalishlarini aniqlash;

– talabalarni ta'lim – tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyalarni qo'llashga o'rgatish orqali ularni zamonaviy ta'lim texnologiyalarni loyihalay olish va kam vaqt sarflab ko'proq natijaga erishgan holda darslarni yuqori savida o'tkaza olishlariga erishish;

– talabalarda tarix fanini o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishni tashkil etish uchun zarur bo'lgan nazariy va uslubiy bilimlarni shakllantirish, ko'nikmalarni tarkib toptirish;

– ta'lim oluvchilarni pedagogik faoliyatga o'z tayyorgarligini tahlil qilishga o'rgatish, tahliliy-tanqidiy, ijodiy va mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish;

<sup>4</sup> Akchayev F. Tarix fanlarini oqitish jarayonini muammo va yechimlari. – G'oyalar va innovatsion taraqqiyot. III ilmiy-nazariy seminar materiallari. T., 2014. 127-130 b.

<sup>5</sup> Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yolida xizmat qilish-eng oily saodatdir. Toshkent: O'zbekiston, 2015. 22 b.

– tarix fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha dars ishlanmalarini loyihalash ko‘nikmalarini tarkib toptirish;

– tarix fani o‘qituvchisining innovatsion faoliyatini loyihalash ko‘nikmalarini shakllantirish;

– tarix fanini o‘qitishda loyihali ta‘lim texnologiyalarni samaradorlik va kafolatlangan natijasini amalda qo‘llay olishiga erishish<sup>6</sup>dan iboratdir.

Fanning oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib, shuni ta‘kidlash lozimki, 5110600-tarix o‘qitish metodikasi yo‘nalishi o‘quv rejasiga kiritilgan “Tarix o‘qitish jarayonini loyihalash”, “Arxeologiya” va “Tarix o‘qitish nazariyasi va metodikasi” fanlaridan laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarish mobaynida talabalar, tarix fanlarini o‘qitishni zamonaviy asosda tashkil etish uchun lozim bo‘lgan uslubiy jarayonlarni o‘zlashtirishlari talab etiladi. Shu nuqtai-nazardan olib qaralganda “Tarix o‘qitish jarayonini loyihalash”, “Arxeologiya” va “Tarix o‘qitish nazariyasi va metodikasi” fanlaridan laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarish uchun ayrim mavzularni loyihalashtirish uchun quyida tavsiya etilayotgan uslubiy ko‘rsatmalar o‘z navbatida muhim ahamiyat kasb etadi.

### **“Tarix o‘qitish jarayonini loyihalash” fanining hajmi**

<b>№</b>	<b>Mashg‘ulot turi</b>	<b>Ajratilgan soat</b>	<b>Smestr</b>
1	Nazariy (ma‘ruza)	20	6
2	Amaliy	18	6
3	Laboratoriya	16	6
4	Mustaqil ta‘lim	54	6
	<b>Jami:</b>	108	

### **Laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar**

Tarix o‘qitish jarayonini loyihalash faninining laboratoriya mashg‘ulotlarining taqdimoti paytida axborot (taqdimot, multimedia texnologiyalari) va ta‘limning zamonaviy texnologiyalari (rivojlantiruvchi ta‘lim texnologiyalari, fanni to‘liq o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan texnologiyalar) hamda intyerfaol myetodlar (“Aqliy hujum”, “Venn diagrammasi”, “T-chizma”, “Erkin yozish”, “Bir-biridan so‘rash” “Klaster”, “Tushun-

<sup>6</sup> Akchayev F. Tarix oqitish jarayonini loyihalash. Mualliflik dasturi. JDPI, 2015.

chalar tablili”, “Loyiha”, “Blits”) qo‘llaniladi. Bundan tashqari metodik qo‘llanmalar, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, ma’ruza matnlari, tarqatma materiallar, hududdagi mavjud tarixiy-arxeologik yodgorliklar, muzeylar, axborot kutubxona markazi, axborot resurs markazlari va hududiy arxiv fondlaridan foydalaniladi.

**“Tarix o‘qitish jarayonini loyihalash” fanidan laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etishda kerak bo‘ladigan didaktik vositalar**

**1. Jihozlar va uskunalar, moslamalar:** elektron disk-Hitachi, LSD – monitor, elektron ko‘rsatgich (ukazka).

**2. Video-audio uskunalar:** video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.

**3. Kompyuter va multimediali vositalar:** kompyuter. Dell tipidagi proyektor, DVD – diskovod, Web – kamera, video-ko‘z (glazok) va boshqalar.

**“Tarix o‘qitish jarayonini loyihalash” fanidan laboratoriya mashg‘ulotlarini olib borish uchun quyidagi topshiriqlarni bajarish tavsiya eiladi**

## **1-mavzu: O‘ZBEKISTON HUDUDIDA ILK DAVLAT UYUSHMALARI, ULARNING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI MAVZUSINI LOYIHALASHTIRISH**

### ***Topshiriq***

1. O‘zbekiston hududida ilk davlat uyushmalari, ularning shakllanish va rivojlanish bosqichlari mavzusi bo‘yicha adabiyotlar yig‘ish va ma’ruza matnini tayyorlash.

2. Darsning shakli, metodi va vositalarini tanlash.

3. Darsning texnologik xaritasini tuzish.

4. Mavzu yuzasidan ko‘rgazmali qurollar tayyorlash.

## **2-mavzu: O‘RTA OSIYO XALQLARINING IX-XII ASRLAR DAVRI MADANIYATI MAVZUSINI LOYIHALASHTIRISH**

### ***Topshiriq***

1. O‘rta Osiyo xalqlarining IX-XII asrlar davri madaniyati mavzusi bo‘yicha adabiyotlar yig‘ish va ma’ruza matnini tayyorlash.

2. Darsning shakli, metodi va vositalarini tanlash.
3. Darsning texnologik xaritasini tuzish.
4. Mavzu yuzasidan tarqatma materiallar tayyorlash.

### **3-mavzu: AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVLATI MAVZUSINI LOYIHALASHTIRISH**

#### *Topshiriq*

1. Amir Temur va temuriylar davlati mavzusi bo'yicha adabiyotlar yig'ish va ma'ruza matnini tayyorlash.
2. Darsning shakli, metodi va vositalarini tanlash.
3. Darsning texnologik xaritasini tuzish.
4. Mavzu yuzasidan test tuzish.

### **4-mavzu: BUXORO, QO'QON VA XIVA XONLIKLARINING TASHKIL TOPISHI VA DAVLATCHILIK TARIXI MAVZUSINI LOYIHALASHTIRISH**

#### *Topshiriq*

1. Buxoro, Qo'qon va Xiva xonliklarining tashkil topishi va davlatchilik tarixi mavzusi bo'yicha adabiyotlar yig'ish va ma'ruza matnini tayyorlash.
2. Darsning shakli, metodi va vositalarini tanlash.
3. Darsning texnologik xaritasini tuzish.
4. Mavzu yuzasidan o'yinli texnologiya turlarini ishlab chiqish .

### **5-mavzu: TURKISTON CHOR ROSSIYASI MUSTAMLAKACHILIGI DAVRIDA MAVZUSINI LOYIHALASHTIRISH**

#### *Topshiriq*

1. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida mavzusi bo'yicha adabiyotlar yig'ish va ma'ruza matnini tayyorlash.
2. Darsning shakli, metodi va vositalarini tanlash.
3. Darsning texnologik xaritasini tuzish.
4. Mavzu yuzasidan tarmoqlar metodi(klaster)da ishlash .

## **6-mavzu: O‘ZBEKISTONDA DAVLAT MUSTAQILLIGINI QO‘LGA KIRITILISHI VA UNING JAHONSHUMUL TARIXIY AHAMIYATI MAVZUSINI LOYIHALASHTIRISH**

### *Topshiriq*

1. O‘zbekistonda davlat mustaqilligini qo‘lga kiritilishi va uning jahonshumul tarixiy ahamiyati mavzusi bo‘yicha adabiyotlar yig‘ish va ma‘ruza matnini tayyorlash.
2. Darsning shakli, metodi va vositalarini tanlash.
3. Darsning texnologik xaritasini tuzish.
4. Mavzu yuzasidan muammoli ta‘lim texnologiyasining savollarini tayyorlash.

## **7-mavzu: O‘ZBEKISTONNING O‘Z ISTIQLOL VA TARAQQIYOT YO‘LIGA ERISHISH OMILLARI MAVZUSINI LOYIHALASHTIRISH**

### *Topshiriq*

1. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘liga erishish omillari mavzusi bo‘yicha adabiyotlar yig‘ish va ma‘ruza matnini tayyorlash.
2. Darsning shakli, metodi va vositalarini tanlash.
3. Darsning texnologik xaritasini tuzish.
4. Mavzu yuzasidan keys ishlab chiqish.

## **8-mavzu: MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONNING IJTIMOIY-IQTISODIY TARAQQIYOTI MAVZUSINI LOYIHALASHTIRISH**

### *Topshiriq*

1. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti mavzusi bo‘yicha adabiyotlar yig‘ish va ma‘ruza matnini tayyorlash.
2. Darsning shakli, metodi va vositalarini tanlash.
3. Darsning texnologik xaritasini tuzish.
4. Mavzu yuzasidan taqdimot tayyorlash.

## **“Tarix o‘qitish jarayonini loyihalash” fanidan laboratoriya mashg‘ulotlarini baholash mezonlari**

Tarix o‘qitish jarayonini loyihalash bo‘yicha talabalarning laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etishda mazkur fanning xususiyatlari va talabalarning bo‘lg‘usi pedagogik va metodik tayyorgarligini amalga oshirishda tutgan o‘rnini hisobga olgan holda laboratoriya mashg‘ulotlarini quyidagi shakllaridan foydalaniladi:

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari va o‘rta maxsus ta‘lim muassasalarida fanni o‘qitish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish yuzasidan ilg‘or tajribalar, va metodik qo‘llanmalarni o‘rganish va tahlil etish;

OTMlari portali va xorijiy metodik materiallari asosida muayyan nazariy masalalarni mustaqil o‘rganish va ma‘ruza tayyorlash;

Fandan yaratilgan elektron darsliklarni o‘rganish va fan darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan o‘zviy foydalanish bo‘yicha dars ishlanmalarini loyihalash;

Tarix o‘qitish jarayonini loyihalashning dolzarb muammolariga bag‘ishlangan anjumanlar uchun ma‘ruza va taqdimot materiallarini tayyorlash;

Tarix o‘qitish jarayonini loyihalashning xususiy masalalarini metodik qo‘llanmalar orqali o‘rganish;

Talaba fandan kafedrada tasdiqlangan laboratoriya mashg‘ulotlarini mavzulari bo‘yicha 4 ta asosiy vazifalarni bajaradi. Bu vazifalar mavzu bo‘yicha adabiyotlar ro‘yxati va shu adabiyotlar asosida ma‘ruza matni tayyorlash, darsning shakli, metodi va vositalarini tanlash, o‘quv loyihaviy faoliyatning prosetsual tuzilmasi bosqichlarini ishlab chiqish, mavzuning texnologik xaritasini tuzish va mavzular yuzasidan tavsiya etilayotgan uslubiy jarayonlarni bajarishdan iborat.

**Eslatma:** laboratoriya mashg‘ulotlari mavzulari darsning 1-kunida talabalarga beriladi, bajarish muddati o‘tkazilish kunlari dars jadvali asosida amalga oshiriladi. Laboratoriya mashg‘ulotlari mavzulari va topshiriqlar belgilangan kunlarda yozma va taqdimot shakllarida auditoriyada o‘tkazilishi talabalarga e‘lon qilinadi.

Laboratoriya mashg‘ulotlarini baholash mezonlari: joriy va oraliq nazorat ishlariga ajratilgan ballardan o‘quv fani soatiga ko‘ra olinadi.



# **1-mavzu: O‘ZBEKISTON HUDUDIDA ILK DAVLAT UYUSHMALARI, ULARNING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI MAVZUSINI LOYIHALASHTIRISH**

## ***Topshiriq***

1. O‘zbekiston hududida ilk davlat uyushmalari, ularning shakllanish va rivojlanish bosqichlari mavzusi bo‘yicha adabiyotlar yig‘ish va ma‘ruza matnini tayyorlash.

2. Darsning shakli, metodi va vositalarini tanlash.

3. Darsning texnologik xaritasini tuzish.

4. Mavzu yuzasidan ko‘rgazmali qurollar tayyorlash.

**Birinchi topshiriqni bajarish bo‘yicha ko‘rsatma:** Ushbu mavzu yuzasidan birinchi topshiriqni bajarishda talabdan avvalambor adabiyotlar bilan ishlash bo‘yicha bilim talab etilishini inobatga olgan holda birinchi navbatda adabiyotlar ro‘yxatini tuzish va ma‘ruza matnini tayyorlash jarayonida kerak bo‘ladigan iqtibos qo‘yishni bilishlari maqsadga muvofiq.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatini tayyorlash tartibi:**

- **kitoblar uchun:** muallifning familiyasi va ismi-sharifining bosh harflari (nuqta), kitobning to‘liq nomi (nuqta), shahar (nuqta), nashriyoti (vergul), chop etilgan yili (vergul), beti (nuqta). Misol:

1. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish-eng oily saodatdir. Toshkent.: O‘zbekiston, 2015, 206 bet.

- **jurnal maqolalari uchun:** muallifning familiyasi va ismi – sharifining bosh harflari (nuqta), maqolaning to‘liq nomi (nuqta tire), jurnalning nomi (qo‘shhiroqsiz) qabul qilingan qisqartirishlar bilan jild (vergul), yil (vergul), tartib raqami (vergul), (boshlanish tire oxiri) betlar yoziladi. Misol:

1. Saidqosimov A.Siyosiy faollik va fuqorolik ma‘suliyati. –Jamiyat va boshqaruv jurnali, 2007, № 2, 50-51 betlar.

- **dissertatsiya uchun:** muallifning familiyasi va ismi-sharifining bosh harflari (nuqta), ishning nomi, qanday ilmiy daraja berilgan (nuqta), shahar (vergul), yil (vergul), betlar soni.

1. Paradaev M.H. Shimoliy-g'arbiy Ustrushona ilk o'rta asrlarda (Quy Sngzor vohasi materiallari asosida), Diss. tarix fanlari nomzodi, Samarqand, 1995, 114 b.

– **avtoreferatlar uchun:**

1. Esanov M.H. "Avesto" jamiyatining arxeologik materiallarda aks etishi (Qadimgi Baqtriya va Marg'iyonaning bronza davri moddiy madaniyat yodgorliklari misolida). Diss. avtoreferati. tarix fanlari nomzodi, Toshkent, 2007, 26 b.

– **patent xujjatlar uchun:**

1. Mualliflik guvohnomasi. Masalan: A.S. 146587, Yangi polimerlar olish usullari. Ashirova R., Ahmedov T. Opubl. BI. 1999, № 6.

2. Patentlar: O'zR potenti № 94560058. 1. 26. 04. 06. Kukunli selluloza olish usuli. Nabiev V.S., Darkanyan S.A., Karimov S.S., Azimova K.A., Turaqulova A.A.<sup>7</sup> va hakazo.

O'zbekiston hududida ilk davlat uyushmalari, ularning shakllanish va rivojlanish bosqichlari mavzusi bo'yicha adabiyotlar yig'ishda talabdan ko'proq I.A.Karimov asarlari, so'ngi yillarda chop etilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari asosida tayyorlangan ilmiy maqolalardan va albatta yurtimiz davlatchiligi tarixiga oid bo'lgan chet el hamda mam-lakatimiz olimlarining darsliklari, monografiyalaridan foydalanishlari talab etiladi.

**Ushbu mavzu yuzasidan quyidagi adabiyotlardan foydalanish tavsiya qilinadi:**

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўк. Тошкент: Ўзбекистон, 1998.

2. Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халқни халқ, миллатини миллат қилишга хизмат этсин. Тошкент: Ўзбекистон, 1998.

3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent.: Ma'naviyat, 2008.

4. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent: O'zbekiston, 2011.

5. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish-eng oily saodatdir. Toshkent: O'zbekiston, 2015.

6. Alimova D.A va boshqalar. Samarqand tarixi. Toshkent: Art Flex, 2009.

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy va orta maxsus ta'lim vazirligining 2010 yil 9 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida bakalavrlarning bitiruv malakaviy ishini bajarishga qoyiladigan talablarni tasdiqlash tog'risida" gi 225 sonli buyrug'i.

7. Asqarov A. O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. Toshkent: O'zbekiston, 2015.

8. Doniyorov A.X va boshqalar. Markaziy Osiyo xalqlari etnografiyasi, etnogenizi va etnik tarixi. Toshkent: Yangi nashr, 2011.

9. Eshov B.J. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012.

10. Eshov B.J, Odilov.A.A. O'zbekiston tarixi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 1-jild. 2014.

11. Karomatov H. O'zbekistonda moziy e'tiqodlar tarixi. Toshkent: 2008.

12. Muhammedov H.M va boshqalar. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi. Toshkent: Tasvir, 2009.

13. Nosir Muhammad. Turon davlatlari yilnomasi. Toshkent: Meriyus, 2010 y.

14. Rtveladze E.V va boshqalar. Qadimgi O'zbekiston sivilizatsiyasi: davlatchilik va huquq tarixidan lavhalar. Toshkent: Adolat, 2001.

15. Xo'jayev A. Buyuk ipak yo'li. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007.

16. Shamsiddinov R, Karimov Sh. Vatan tarixi. Toshkent: Sharq, 2010.

**Ikkinchi topshiriqni bajarish bo'yicha ko'rsatma:** ma'ruza matnini tayyorlash. Ma'ruza (arabcha – o'qish) – o'quv materiallari, biror masala, mavzu kabilarning izchil, ma'lum bir tizimiga solingan bayonidir.

O'zbek tilida arab tilidan kirib o'zlashtirilgan ma'ruza so'zi qo'llaniladi. Ma'ruza o'qitishni tashkil etishning yetakchi shakli hisoblanib, u bir qator vazifalarni amalga oshirishga imkon beradi.

Hozirgi pedagogik texnologiyalar tizimida ma'ruza o'ziga xos modul, uni tayyorlash va o'tkazish esa kichik pedogogik texnologiya jarayonidan iborat. Bu jarayon dastlab ma'ruza uchun matreallarni to'plash, o'rganish, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, tegishli amaliy vazifalarni belgilash va ularni sifatli amalga oshirish yuzasidan tavsiyalarin shakllantirish bosqichlaridan iborat bo'ladi.

Shundan so'ng ma'ruza matnini tayyorlash bosqichi boshlanada. Ma'ruza matnlari kursning o'quv-mavzu rejasida ko'rsatilgan mavzular bo'yicha tayyorlanadi. Shu mavzularni tegishli tinglovchilar guruhi bilan o'rganishdan ko'zga tutilayotgan maqsadlar belgilanadi. Bunda

JIZZAX DPI

mavzuning dolzarbligini aniq ko'rsatib berish, unga tegishli muam-molarni hal qilish yo'nalishlarini belgilab berish va shunga muvoffiq ilmiy, metodik va amaliy xulosalarni sharhlash, ularni amalga tadbqiq etish yuzasidan zarur tavsiyalar berish nazarda tutiladi.

Ma'ruza mazmuni uning mavzusini to'liq qamrab olishi zarur shart-lardan hisoblanadi. Buning uchun ma'ruza materialini odatda asosiy tarkibiy bloklarga ajratish yaxshi natija beradi. Buning natijasida ma'ruza matnini tayyorlashda ham va shu ma'ruzani guruhda o'tkazishda ham zarur tartib hamda mantiqiy izchillikka erishiladi.

Ilmiy-pedagogik mavzulardagi ma'ruzalar materiallarning tarkibi ko'proq quyidagi bloklardan tashkil topadi:

- Nazariy blok – bunda tinglovchilarni mavzuning ilmiy-nazariy asoslari, qonuniyatlari va qoidalari bilan tanishtiriladi, ya'ni nimani o'r-gatish kerak degan savolga javob deb belgilanishi mumkin;

- Metodik blok – mavzunining qonun-qoidalarini o'rganish, o'rga-tish, qo'llanish, foydalanish masalalarini o'zlashtirish, ya'ni qanday bajarish kerak degan savolga javob deb belgilanishi mumkin;

- Amaliy blok – ma'ruza davomida o'rganilgan yani ma'lumotlarni “qayerda, qachon, nima maqsadda, qanday vositalar orqali, qanday me'-yorlarda qo'llash” bilan tanishtirish, yani “nima uchun kerak” degan umumiy savolga javob deb belgilanishi mumkin;

- Xulosalar bloki – nazariy, metodik va amaliy bloklar bo'yicha umumlantiruvchi natijalarni ifodalashga xizmat qiladi va “nima qilish kerak” degan savolga javob belgilanishi mumkin;

- Nazorat bloki – tinglovchilarning o'zlashtirishlarini ma'ruza davomida tezkor nazorat qilishga xizmat qiluvchi har turli dedaktiv mate-riallar va usullardan iborat bo'lib, “tushunarlimi” degan savolga javob belgilanishi mumkin;

- Tavsiyalar bloki – ma'ruza mavzusi bo'yicha xulosalarni har turli real sharoitlarda amalga oshirish yuzasidan tinglovchilarning fikr-mulo-haza va takliflarini hisobga olgan holda hamkorlik va hamfikrlikda bel-gilangan asosiy yo'l-yo'riqlardan iborat bo'lib, navbatdagi hamda kel-gusi vazifalarni belgilab beradi. Uni majoziy ma'noda “ma'qulmi” de-gan savolga javob deb belgilanishi mumkin.

Ma'ruza bloklarini yuqorida keltirilgan shartli savollar bilan qo'-shimcha ravishda belgilab nomlashdan maqsad shuki, ular har bir blok-ning maqsad va mazmunini o'ziga xos yaqqol ifodalashi bilan ma'ru-zani tayyorlash hamda o'tkazish davrida ma'ruzachi uchun foydali

mo'ljal sifatida qulaylik tug'diradi. Bu esa ma'ruzaning matn tayyorlash va ma'ruzani o'tkazishda kamchiliksiz, aniq izchillikda faoliyat olib borishiga imkoniyat yaratadi.

Ma'ruza matnini bayon etishda zamonaviy pedagogik, psixologik, didaktik qoida va talablar hisobga olinadi. Ma'ruza matnlari faqatgina bayoniy axborotlardan iborat bo'lmay, undagi savollar, muammolar, yechimlar asosida muammoli vaziyatlar keltirib chiqarishga, matnni mustaqil mutoala qilishga, erkin fikrlashga undashi kerak.

Ma'ruza matnlarida mavzu bayoni mamlakatimizda ro'y berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlar va taraqqiyot yuksalish jarayoni, jo'shqin hayot tarzi, ilg'or fan yutuqlari bilan chambarchas bog'lanishi kerak. Mustaqillik yillarida qo'lga kiritilgan yangiliklar, muvoffaqiyatlar aniq dalillar asosida keltiriladi.

Ma'ruza matnida tinglovchilarning qanday tushuncha, malaka, bilimlarni o'zlashtirishlarini zarurligini nazarda tutish muhimdir. Tayanch signal, sxema, diogramma, tasviriy matreallarga alohida e'tibor berish kerak.

Ayniqsa, materiallarni hayotiy misollar asosida tayyorlash zarur. Ta'lim tizimida milliy g'oya, madaniy, tarixiy qadriyatlarni o'quvchilarga singdirish orqali ularni vatanparvarlik, insonparvarlik ruhida va e'tiqodli qilib tarbiyalashga erishish lozim.

**O'zbekiston hududida ilk davlat uyushmalari, ularning shakllanish va rivojlanish bosqichlari** mavzusida ma'ruza matni tayyorlashda quyidagicha reja tuzish tavsiya qilinadi:

## 2-mavzu: O'ZBEKISTON HUDUDIDA ILK DAVLAT UYUSHMALARI, ULARNING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

### *Reja:*

1. Davlatchilik tushunchasi. O'lkamiz hududlarida dastlabki shahar-sozlik madaniyati.
2. Vatanimiz hududidagi eng qadimgi davlatlar. (Katta Xorazm, Baqtriya podsholigi, So'g'diyona).
3. Yunon-Baqtriya, Parfiya, qang' va Davon davlatlari. Ulardagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot.
4. Kushonlar saltanati va uning vatanimiz xalqlari tarixidagi tutgan o'рни.

1. Nafaqat O'zbekiston, balki dunyo tarixida ilk davlatchilikning paydo bo'lishi masalalari hozirgi kunda tadqiqotchilar orasida eng dolzarb bo'lib turgan muammolardan biri hisoblanadi. Davlatchilikning ildizlari va paydo bo'lish shart-sharoitlarini aniq bilish kata ahamiyatga ega.

Davlat bu siyosiy tashkilot, muayyan hududda joylashgan va yagona hokimiyatga uyushgan xalq hokimiyatidir. Davlat insoniyat taraqqiyotining ma'lum bir bosqichida ishlab chiqarish qurollari va vositalariga egaligi, xususiy mulkchilikning paydo bo'lishi va jamiyat tabaqalasha boshlashi bilan ro'y bergan mehnat taqsimoti natijasida vujudga kelgan tashkilot.

Davlat, uning mohiyati, mazmuni har bir tarixiy davrda jamiyat mafaatlari va ehtiyojlari bilan bog'liq xolda o'zgarib boradi.

Davlatning kelib chiqishi xaqida turli nazariyalar - teologik nazariya, patiriarxal nazariya, shartnomaviy nazariya, zo'rovonlik nazariyasi, psixologik nazariya, marksistik nazariya, irrigasiya nazariyasi mavjud. Davlatning belgilari: yozuv, xududiy birlik va rasmiy davlat (boshqaruv) hokimiyati. Davlatning mohiyati uning funksiyalarida, ya'ni davlat faoliyatining asosiy yo'nalishida, uning ichki va tashqi siyosatining mazmuni va xarakteri bilan belgilanadi: masalan, quldorlik davlati, feodal davlat va hokazo.

Yangi tosh davriga (neolit) kelib O'rta Osiyo hududlarida dehqonchilikning paydo bo'lishi jamiyat hayotida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini yanada tezlashtirdi. Bronza davriga kelib dehqonchilikdan

chorvachilikning ajralib chiqishi, ixtisoslashgan hunarmandchilik, ho'jaliklarining rivojlanishi natijasida ishlab chiqarish hajmi ko'payib, mehnat qurollari yanada takomillashib bordi. Mehnat qurollarining metaldan ishlanishi esa mehnat unimdorligining yanada oshishiga keng imkoniyatlar yaratdi.

Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik O'rta Osiyo xo'jaligining asosi hisoblanib, bu jarayon janubiy Turkmaniston, Tojikiston va O'zbekistonning janubida bronza (mil.avv. III-II yilliklar) davrida, Toshkent vohasi va uning atroflarida esa ilk Temur (VIII-IV asralar) davrida shakllanib rivojlandi.

O'rta Osiyoda ilk davlat uyushmalari sun'iy sug'orish birmuncha qulay bo'lgan Amudaryo (yuqori, quyi, o'rta) oqimlari bo'ylarida, Murg'ob vohasida, Zarafshon va qashqadaryo vohalarida shakllangan va rivojlangan. Bunday holatni dunyo tarixidagi dastlabki davlatlar-Misr (Nil daryosi) va Mesopotamiya (Dajla va Frot) misolida ham kuzatish mumkin.

Arxeologik tadqiqotlarga, "Avesto" va boshqa yozma manbalarga tayanib aytish mumkinki, mil.av. I ming yillikning birinchi yarmida, aniqrog'i bundan taxminan 2700 yil ilgari Markaziy Osiyoda Katta Xorazm, Baqtriya, so'ng Sug'diyona, Marg'iyona deb atalgan davlat tuzilmalari paydo bo'ladi. Davlatchilikning vujudga kelishini qanday shart sharoitlar taqozo etgan? Mintaqamizda yerni qayta ishlash, yangi mehnat qurollarini yaratish inson faoliyatining kengayishi va jadallashuviga olib keldi. Sug'orma dehqonchilik kengayib bordi, hunarmandchilik sohalari ko'paydi, kishilarning o'troqlashuvi shaharlarning paydo bo'lishiga turtki bo'ldi. Urug'chilik munosabatida o'zgarishlar yuz berdi, juft oilalar vujudga keldi, oila jamoasi ishlab chiqarish jamaolariga aylandi, ibtidoiy jamoa tuzumi yemirilib bordi. Jamiyatdagi ijtimoiy tenglik barham topdi. Mulkka egalik esa turli ziddiyatlarni vujudga keltirdi. Jamiyatda mulkdorlar, xo'jayinlar va tobelar, kambag'allar qatlami paydo bo'la boshladi. Ijtimoiy tabaqalanish jarayoni kuchaydi. Jamoalar o'rtasida turli to'hnashuvlar, janjallar ko'payib bordi. Bunday sharoitda jamiyatda ijtimoiy, siyosiy barqarorlikka ehtiyoj kuchayadi. Shu alfoz ijtimoiy iqtisodiy hayotda tartib tizimi-davlatchilik alomatlarini vujudga kela boshlaydi. Dastlabki bunday uyushmalar avval kichik mintaqalarda paydo bo'ldi. So'ng ular hududi kengayib bordi. Bunday ma'muriy-hududiy jamoa boshliqlarining faoliyati asosan aholi hamjihatligini ta'minlash, muammolarni yechish, nizolarni bartaraf etish doirasida kechar edi.

"Avesto" kitobidagi va boshqa ma'lumotlarga ko'ra, qadimda, taxminan bundan 3–3,5 ming yil muqaddam O'rta Osiyo jamiyati alohida yirik oilalardan tashkil topgan ekan. Urug' jamoasi (vis) yerga egalik qilgan, bir nechta bir-biriga yaqin bo'lgan urug'lar qabilaga birlashgan. Nisbatan yirik qabilalar esa muayyan hududda birgalashib yashaganlar. Bu birlashma daxyo degan nom olgan. Viloyat boshlig'i daxyopati deb atalgan. Ana shu uyushma dastavval harbiy-siyosiy birlashma sifatida paydo bo'lgan. Ular o'zi yashagan hududni mudofaa qilgan, sug'orish ishlarini uyushtirgan va boshqarib borgan. qabila boshliqlari vaqti vaqtida to'planib, kengashib turishgan. Bular dastlabki davlatchilikning alomatlar edi. Iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot jarayonida jamiyatning siyosiy tuzilmasi davlat va uni boshqaruv tizimi muttasil takomillashib borgan. Xususan, davlatlar paydo bo'lishining osiyocha ishlab chiqarish usuliga asoslangan "Sharq yo'li" bo'lib, unda iqtisodiyotning asosini sug'orma dehqonchilik tashkil etgan. Binobarin, yer va irrigasiya inshootlari davlatning mulki bo'lgan. Shuningdek, dehqonchilik jamoasi jamiyatning birlamchi yacheykasi, ya'ni hujayrasi hisoblanadi. Aholining katta qismini safarbar etish zarurati esa, qat'iyatli boshqaruvchilar tabaqasining shakllanishiga olib kelgan. O'rta Osiyodagi ikki daryo oralig'i-alohida tarixiy geografik va tarixiy-madaniy hududdir. Uning sivilizasiyasi Amudaryo va Sirdaryo tufayli ko'p ming yilliklar mobaynida vujudga keldi. Bu mintaqada yuzaga kelgan davlatlar qadimgi davrlarda ham, o'rta asrlarda ham umumiy belgilar bo'lishiga qaramay, Markaziy Osiyoning boshqa qismlaridagi davlatlardan o'ziga xos belgilariga ko'ra ajralib turgan. O'rta Osiyodagi ikki daryo oralig'i hududi doirasining o'zida ham shimoliy viloyatlar (Xorazm) va janubiy viloyatlar (Baqtriya) ayniqsa qadimgi davrlarda etnik va madaniy, til va yozuv, davlat qurilishi tizimi jihatidan bir biridan farq qilgan. Bu har bir viloyatga xos bo'lgan madaniy–genetik tiplar, darajasi har bir viloyatda turlicha bo'lgan o'troq va ko'chmanchi xalqlarning raqobatlashuvi bilan belgilangan. qadimgi davrda O'rta Osiyo ikki daryo oralig'ida davlat birlashmalarining har xil shakllari mavjud bo'lgan:

O'rta Osiyodagi qadimgi davlatchilik evelyusiyasini (taraqqiyotini) bir necha davrlarga ajratib ko'rsatish mumkin:

1-davr miloddan avvalgi II ming yillikning II yarmi O'zbekiston janubida davlatchilik tuzilmalarining ilk belgilari paydo bo'ldi. Davlatning bunday namunasi Jarqo'tonda topilgan.

2-davr miloddan avvalgi I ming yillikning boshi Xorazm Baqtriya, Sug'd tarixiy madaniy viloyatlarining shakllanishi.



3-davr Ahamoniylar bosqini va O'rta Osiyoning Ahamoniylar davlati tarkibiga kirishi natijasida mahalliy davlatchilik rivojlanishidagi tanaffus.

4-davr miloddan avvalgi IV-II asrning ikkinchi yarmi. A.Makedonskiy bosib olgandan boshlab Yunon Baqtriya podshohligining qulashigacha.

5-davr miloddan avvalgi II asrning ikkinchi yarmi va milodiy I asr boshi. Mahalliy davlatlar: qang', Xorazm podshohligi; Sug'd, Dovon davlatlarining mustahkamlanishi va yanada rivojlanishi.

6-davr milodiy I asr boshidan III asr o'rtalarigacha. Mahalliy davlatchilikning ravnaq topishi.

Inkoniyat sivilizasiyasining dastlabki o'choqlaridan biri hisoblanadigan O'rta Osiyo, xususan O'zbekiston o'zining qadimiy shahar madaniyati bilan ham jahonga mashhurdir.

Tadqiqotchilarning fikrlariga qarganda, ilk shaharlarning paydo bo'lishi dastlabki davlatchilik shakllanishida eng muhim va asosiy omil bo'lib, bu ikkala jarayon uzviy bog'liq holda kechgan.

Ma'lumki, mil.avv. II ming yillikka kelib qadimgi O'zbekistonning dehqonchilik vohalarida o'troq qabilalar rivojlanib, aholining alohida joylashuv manzilgohlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar-o'troq dehqonchiligining rivojlanishi, aholi zichligining yuqori darajasi, hunarmandchiligining taraqqiy etishi, ijtimoiy tabaqalanish va boshqaruv tizmining murakkablashib borish, o'zaro almashinuv, savdo-sotiq va madaniy aloqalarning kuchayishi hamda harbiy-siyosiy vaziyat O'zbekiston hududlarida dastlabki shaharlarning paydo bo'lishida asosiy omillari hisoblanadi.

Jamiyat hyotida sodir bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar mil.avv. III ming yillikning oxiri-II ming yillikning boshlariga kelib, O'rta Osiyo hududlarida dastlabki shaharlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Shahar madaniyatining shakllanishi ham huddi jamiyat taraqqiyotida bo'lgani kabi taraqqiyot yo'li bilan rivojlangan. Bu qonuniyatga ko'ra shaharsozlik madaniyatining shakllanishi, uzoq, bosqichma-bosqich davrlarni bosib o'tgan. Mil.avv. II ming yillikka oid O'rta Osiyodagi Jarqogg'on, Sopolli, Dashli, Gonur, Namozgoh, Oltitepa, Ulug'tepa kabilar ilk shaharsozlik madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi uchun quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega bo'ldi:

– aholining o'troq dehqonchilikka o'tish va keng vohalar bo'ylab yoyilishi;

- hunarmandchilik rivojlanishi va ayrim sohalarga ixtisoslashishi;
- qadimgi savdo yo‘larining rivojlanishi natijasida iqtisodiy va madaniy aloqalar hamda savdo-sotiqning taraqqiy etishi;
- tabiiy-geografik hamda harbiy-strategik shart-sharoitla.

Shahar madaniyati dastavval O‘zbekistonning janubida, Surxondaryo hududida shakllandi, so‘ngra esa shimolga So‘g‘d (Qashqadaryo, Samarqand, Buxoro), Xorazm, Shosh va Farg‘ona hududlariga tarqaldi. Bu-aynan yurtlar va xalqlar taraqqiyotidagi notekislik kabi tarixiy qonuniyatga zid emas.

Ko‘p sonli arxeologik topilmalarning dalolat berishicha, O‘zbekistondagi ayrim ko‘xna shaharlarning yoshi 2700-3000 yildan kam emas. Ularga Afrosiyob (Samarqand), qiziltepa (Surxondaryo), Uzunqir, Yerqo‘rg‘on (qashqadaryo) kabilar kiradi. qadimgi shaharlar-tarixiy rivojlanishidagi urbanistik jarayonida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy asosi hisoblanadi. Fikrimizcha, shaharlar tarixini o‘rganish jarayonida dastavval, eng qadimgi shaharlar shakllanishi va rivojlanishi; aniq hududlar va viloyatlardagi tarixiy-madaniy shart-sharoitning ta‘siri; ekologik-geografik, ijtimoiy, iqtisodiy va demografik muhitlarning darajasi va ta‘sir doirasi; shaharlarning vazifasi; qadimgi shahar markazlarning tarixiy-madaniy jarayonlardagi o‘rni va ahamiyati masalalariga keng e‘tibor qaratish lozim.

2. Amudaryoning quyi oqimida yashaydigan o‘troq dehqon elatlari xorazmliklar bo‘lgan. Ularning yurti Xvarizam (“Avesto”da), Xvarazmish (Behistun yozuvlarida), Xorasmiya (Arrian, Strabon asarlarida) deyilgan. Sug‘diylarning eng yaqin qo‘shnilari baqtriyaliklar bo‘lib, ularning yurti Surxon vodiysi, Afg‘onistonning shimoli, Tojikistonning janubiy hududlarida joylashgan. Yozma manbalarda u Baxdi (“Avesto”-da), Baktrish (Bexistun yozuvlarida) deb nomlangan. Yunon–rim mualliflari uni Baktriana yoki Baktriya deb ataganlar. Amudaryo buylarida ko‘chmanchi massaget qabilalari yashaganlar. Markaziy Osiyoning tog‘lik, cho‘l va sahro yerlarida asosiy mashg‘uloti chorvachilik bo‘lgan saklar istiqomat qilishgan. Miloddan avvalgi I asrda ular o‘z yerlarini boshqa qabilalar hujumidan himoya qilish uchun harbiy–qabila ittifoqini tuzadilar. qadimgi rim va yunon tarixchilarining yozishlaricha, saklar uch ijtimoiy guruhga bo‘lingan. Ularning ko‘pchilik qismi saka–tig-raxauda, ya‘ni o‘tkir uchli kigiz qalpoq kiyib yuruvchi saklar deb atalgan. Ular hozirgi Toshkent viloyati va Janubiy qozog‘iston yerlarida yashaganlar. Ikkinchi guruh saka–tiay – taradarayya, ya‘ni daryoning

narigi tomonida yashovchi saklar deb atalgan. Ular Orol dengizi buy- larida, Sirdaryoning quyi oqimida yashaganlar. Pomirning tog'li tuman- larida va Farg'onada saka – xaumovarka deb ataluvchi saklar yashagan- lar. Miloddan avvalgi II–I asrlarda yuqorida ko'rsatilgan o'lkalarda yashovchi aholi ilk davlat uyushmalarini tashkil etganlar. Bu davlat uyushmalari o'zining ma'lum hududi, chegaralariga ega bo'lib, iqtisodiy–geografik makon–katta bir viloyat sifatida shakllanib borgan. Bu davrlarda Xorazm, Baqtriya, Marg'iyona, Sug'diyona, Farg'ona kabi viloyatlar mavjud edi. Ahmoniyalar bosqiniga qadar o'lkaning asosiy qismini birlashtirib turuvchi siyosiy markaz shimolda Xorazm, janubda Baqtriya hisoblangan.

“Katta Xorazm” davlat uyushmasi ittifoqi hududi hozirgi Xorazm yerlari bilan chegaralanib qolmay, balki uning atroflari–hozirgi qoraqalpog'iston, Marv hamda Amudaryoning quyi oqimigacha bo'lgan yer- larni o'z ichiga olgan. “Katta Xorazm” davlati to'g'risida xorazm- shunos olim S.P.Tolstov, yevropalik olim V.Xenn, I.Gershkovich, birin- chi o'zbek arxelog olimi Ya./ulomov ham qimmatli ma'lumotlar bera- dilar. Ular “Avesto” dagi ma'lumotlarga asoslanib, Markaziy Osiyoning katta qismi “Katta Xorazm” xududiga qarashli ekanligini isbotlashdi (“Avesto” da tilga olingan 16 viloyatning 9 tasi Katta Xorazm hududida joylashgan

Yunon tarixchisi Gerodot ma'lumotiga ko'ra qadimda Oks (Amudaryo) bo'ylab 360 dan ziyod sun'iy kanallar, suv inshootlari mavjud bo'lgan. Dehqonchilikda dukkakli ekinlar, meva-sabzavot yetishtirishga e'tibor ko'p bo'lgan. Paxtachilik rivoj topa boshlagan. qal'aliqir, Ko'zaliqir, Janbosqal'a kabi shaharlar barpo etilgan. Davlatni mustahkamlash maqsadida poytaxt va boshqa shaharlar qalin va mus- tahkam mudofaa devorlari bilan o'ralgan. Gerodotning asosli ma'lumot- lariga qaraganda, miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda Oks-Tajan vohasi. Ya'ni hozirgi Turkmaniston xududlari “Katta Xorazm” yerlari bo'lgan. Biroq ilk davlatchilik masalasida juda ko'plab ilmiy munozaralar, baxs- lar bo'lib o'tganiga qaramay, bu masala hanuz o'z yechimini topgan deb hisoblanmaydi. Xususan, “Katta Xorazm” davlatining hududiy joyla- shuvi va paydo bo'lgan davri masalalari ham ancha munozarali mavzu. Rivoyat va afsonalarga qaraganda Xorazmning eng qadimiy siyosiy sulolalari sifatida, Siyovushiylar tilga olinadi. “Avesto” bo'yicha Siyovarshon Kavousning o'g'li bo'lgan. Siyovarshon o'limidan so'ng uning nabirasi Kova Xisrav bobosi qotilidan o'ch olib Xorazmda birin-

chi sulolaga asos soladi. Abu Rayxon Beruniyning "Osorul boqiya" (qadimgi ajdodlardan qolgan yodgorliklar) kitobida Xorazmga aholi miloddan avvalgi 1292 yilda kela boshlagan deb ko'rsatiladi. Afsonaviy Siyovushning Turon zaminiga kirib kelgan sanasini esa miloddan avvalgi 1200 yilda deb belgilaydi.

Ammo Katta Xorazm davlatining yaxlit tarixi, uning qachon inqirozga uchraganligi haqida yozma ma'lumotlar uchramaydi. Biroq shu narsa ma'lumki, miloddan avvalgi IV asrda Farasman degan podshoh, qadimgi Xorazm davlatida hukmdorlik qilgan. Uning davlatining hududi Amudaryoning quyi havzasida edi. U Iskandar Zulqarnayn yurtimizga bostirib kirganda uning huzuriga o'z qo'shinlari bilan keladi va shimolga yurishda o'z qo'shinlari bilan yordam berishni taklif qiladi. Bu bilan Farasman Iskandar Zulqarnaynning Xorazm ustiga qo'shin tortib borishining oldini olgan edi.

Ichki va tashqi savdo-sotiq yuksak darajada rivojlangan "Avesto"da ta'kidlanishicha, Xorazmning qadimiy sulolasi Siyovushiylar bo'lgan. Xorazm davlati miloddan avvalgi I asrgacha o'z mustaqilligini saqlab qola olgan.

Markaziy Osiyodagi yana bir qadimgi davlat uyushmasi – Baqtriya edi. Bu davlatning hozirgi Surxondaryo, qisman qashkadaryo viloyatlari, janubiy Tojikiston va shimoliy Afg'oniston hududlarida joylashganligi ma'lum. Bu davlat haqidagi dastlabki ma'lumotlar yunonistonlik tabib Ktesiy asarlarida uchraydi. Boshqa yunon salnomachisi Diodot esa Ktesiy ma'lumotlariga asoslangan holda Ossuriya podshosi Ninning Baqtriyaga qilgan harbiy yurishlari haqida xabar beradi. Nin baqtriyaliklarga qarshi 170 ming piyoda 210 ming otliq askar to'plab hujum boshlagan. Poytaxt Baqtra (hozirgi Balx) mustaxkam mudofa inshootlariga ega bo'lgan. Baqtriya hukmdori Oksiart esa vatan himoyasiga 400 ming kishilik qo'shin to'playdi. Dastlab Baqtriya qo'shinlari Ossuriyaliklarga katta talafot keltiradi, lekin keyinchalik chekinishga majbur bo'ladi va qo'shnlarni bo'lib shaharlar mudofasiga yuboradi.

Bunda ustalik bilan foydalangan Nin shaxarlarni birin-ketin bosib oladi, ularning boyligi talanadi. Ma'lum vaqt o'tgach Midiya bilan Ossuriya o'rtasida urush kelib chiqadi. Midiya aslzodalari baktriya qo'shinlarini o'z tomonlariga og'dirib olib, Ossuriya qo'shinlariga katta talofat keltirganlar. Ktesiy Ahmoniylar podshosi Kir II ning Sharqqa yurishi munosabati bilan yana Baqtriya haqida ma'lumotlar beradi

Keyingi yillarda qadimgi Baqtriya xududida olib borilgan arxelogik tadqiqot ishlari natijalari Janubiy Baqtriyada Oltin-1 va Oltin-10, hamda

Baqtra shahri vayronalari, Shimoliy Baqtriyada esa Kuchuktepa, qiziltepa, Talashkantepa, Bandixon-2 kabi yodgorliklar qadimgi Baqtriya podshohligi haqida qadimgi mualliflarning bergan ma'lumotlari to'g'ri ekanligini tasdiqlaydi. Topilmalar bu davlatda yashagan aholi mustahkam mudofa devorlari bilan o'rab olingan shahar tipidagi makonlarda yashab dehqonchilik, chorvachilik va xunarmandchilik, binokorlik va savdo-sotiq bilan shug'ullanishganligini tasdiqlaydi. Baqtriya Buyuk Ipak yo'lining markazida joylashganligi sababli qadimgi shahar madaniyati aynan shu hududda shakllangan. Gerodot Baqtriyani Misr va Bobil kabi yirik davlatlar qatorida tilga oladi. qadimgi Baqtriya tabiiy boyliklari tufayli Xitoy, Hindiston, Misr, Bobil qatorida mashhur bo'lgan. Masalan, Badaxshon lojuvardi (lazuriti) boshqa yurtlarda ham qadrlangan. "Avesto"da Baqtriya eng go'zal o'lkalardan biri sifatida ta'riflanadi. Unga qarashli Vaxsh vodiysi unumdor bo'lib, dehqonchilik madaniyati taraqqiy topgan. Hunarmandchilikda ayniqsa zargarlik keng rivojlangan edi. Eronda saroy tabibi bo'lib ishlagan yunon tarixchisi Ktesiyning yozishicha, Baqtriya miloddan avvalgi III-II asrlarda qudratli davlat bo'lgan. Bu davlat bir qancha mahalliy hokimliklarni birlashtirgan harbiy demokratiya tipidagi davlat edi. Baqtriya hukmdorlari oltin va kumush tangalar zarb etganlar. "Baqtriya" nomi Esxilning eramizgacha bo'lgan 472 yili sahnaga qo'yilgan "Forslar" tragediyasida ham uchraydi. Ko'plab mualliflar baqtriyaliklarga "ko'p sonli", "jangovar" va "botir" xalq sifatida tavsif beradilar.

"Avesto" hamda yunon mualliflarining guvohlik berishicha, Zarafshon va qashkadaryo vodiysida dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi ko'plab aholi istiqomat qilgan. Yozma manbalarda bu hudud Sug'da ("Avesto"da), Suguda (Behistun yozuvlarida), Arrian, Strabon, Kursiy Ruf asarlarida esa Sug'diyona deb nomlangan.

Sug'diyona hududlari hozirgi O'zbekistonning Samarqand, Navoiy, Buxoro va qashkadaryo viloyatlari, Tojikistonning Panjikent, O'ratepa va Xo'jand yerlarini o'z ichiga olgan. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida qadimgi davlatlar ro'yxatiga Sug'diyona davlatini ham kiritish imkoniyati tug'ildi. Miloddan avvalgi IX-VII asrlarga oid tarixiy-madaniy yodgorliklar Sug'diyona hududlarida davlatchilik tarixi aynan mana shu davrdan boshlanganligidan dalolat beradi. Turli manbalarda Sug'da, Sug'uda, Sug'diyona nomlari bilan mashhur bo'lgan qadimgi tarixiy madaniy o'lka hozirgi Zarafshon va qashqadaryo vohalarini o'z ichiga oladi. Ilk davlatchilikning eng asosiy belgilaridan bo'lgan ko'hna shahar xarobalari So'g'diyonaning to'rta joyida

(Yerqo'rg'on, Afrosiyob, Uzunqir, Ko'ktepa) topib o'rganilgan bo'lib, ular hozircha O'zbekistondagi eng qadimgi rivojlangan shahar madaniyatini o'zida aks ettiradi.

Sug'diyonada yashagan aholi yuksak dehqonchilik va chorvachilik madaniyatiga ega bo'lganlar. Bu yerda hunarmandchilik ham yaxshi rivojlangan. Yaqin-yaqinlarga qadar sug'd kulolchiligi miloddan avvalgi VI-IV asrlardagi Eron axamoniylari kulolchilik sa'nati bilan bog'lanar va uni "axamoniylar sopoli" deb atardilar. Keyingi 25-30 yil davomida o'tkazilgan arxeologik qazishmalar Sug'diyona kulolchiligi"-miloddan avvalgi IX-VII asrlardayoq, rivojlanganligini isbotladi. Davlatning markazi Marokanda (Samarqand) bo'lgan. Eng qadimgi shahar – Afrosiyob taxminan 2700–2800 yil muqaddam tashkil topgan. Sug'd tili o'sha paytlardayoq jahon savdo tili darajasiga ko'tarilgan. Bu davlat qo'shni mamlakatlar bilan savdo-sotiq, tijorat ishlarini yo'lga qo'ygan.

Gerodotning O'rta Osiyo to'g'risidagi asosiy fikrlari forslarning sak-massagetlarga qarshi yurishlari, Kir II va Tumaris o'rtasidagi siyosiy munosabatlar, ahamoniylar qo'shinlari tarkibida yurtimiz xalqlari jangchilarning ishtroki, ularning qurol-aslahalari, yo'l boshchilari, ularning jasoratlari, sak-massagetlarning turmush tarzi va diniy e'tiqodi va boshqa ma'lumotlardan iborat:

O'zbek xalqining ilk davlatchilik tarixi geografik, hududiy ma'noda hozirgi O'zbekiston hududiga to'g'ri kelmaydi. Ilk davlatlar orasida aniq ma'muriy chegaralar bo'lmagan. qadimgi Baqtriya, Xorazm, Sug'd chegaralari tabiiy bo'lib yaqin hududlardagi joylarning geografik bo'luvchisi sifatida dashtlar, cho'llar va tog'lardan foydalanilgan.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalqi va uning ajdodlari ilk davlatchiligi taraqqiyoti o'troq dehqonchilik xo'jaligi va qadimgi shaharlar tarixi bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Ilk davlatlar tashkil bo'lishida, jamiyat rivojlanishining ichki qonuniyatlaridan tashqari ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning yuqori darajasi – hunarmandchilik, almashtiruv va savdoning kuchayib borishi, siyosiy qarama-qarshiliklar va harbiy to'qnashuvlar ham ta'sir qilgan.

3. Vatanimiz hududidagi eng qadimgi davlatlar miloddan avvalgi VI–IV asrlarda Eron ahamoniylariga tobe bo'lib yashadilar. Mil. avv. 329 yildan boshlab bu hududga Iskandar Zulqarnayn boshchiligida yunon-makedon qo'shinlari bostirib kirdi. qadimgi Baqtriya va Sug'diyona zo'rlik bilan Iskandar Zulqarnayn davlati tasarrufiga kiritildi. Mil. avv. 323 yilda Iskandar Zulqarnaynning Bobilda vafot etishi siyosiy vaziyat-

ni o'zgartirib yubordi. Yunon hukmdorlari o'rtasida hokimiyat uchun shafqatsiz kurash boshlandi. Mil. avv. 312 yilda Iskandarning eng ishonchli sarkardalaridan biri Salavka kurashda g'olib kelib Bobil, Midiya, Old Osiyo, Eron va O'rta Osiyoda o'z hukmronligini o'rnatdi. Biroq Baqtriya, Parfiya va Sug'd yerlarini bo'ysundirish uchun ko'r urushlar qildi va mil. avv. 306 – 301 yillardagina ularni bo'ysundirdi.

Salavka Iskandar davrida Spitamenni qiziga uylangan edi. qarindoshchilikni hisobga olibmi yoki boshqa maqsadni nazarda tutibmi, Salavka mil. avv. 293 yilda o'g'li Antiox I ni Sharqiy viloyatlarga, jumladan, O'rta Osiyo yerlariga hokim etib tayinlaydi. Biroq salavkiy hukmdorlari hokimiyatni qo'lda saqlab qolish uchun tinimsiz urushlar olib borishdi. Ular davlatni satraplarga (viloyatlarga) bo'lib boshqarishdi. Har qaysi satraplikni shoh tomonidan tayinlab qo'yilgan satrap yoki strateg deb nomlanuvchi shaxs boshqargan. Ular asosan yunonlardan, ayrim hollarda ellinlashgan mahalliy aholidan tayinlangan.

Mil. av. 360-350-yillarga kelib Kichik Osiyo va Bolqon yarim orolida Salavkiy hukmdorlari o'rtasida hokimiyat uchun kurashlar avj oldi. Natijada salavkiylar davlatining sharqiy satraplari siyosiy hayotida o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Miloddan avvalgi 250 yilga kelib dastlab Parfiya, keyin esa Yunon-Baqtriya davlatlari salavkiylar davlati tarkibidan ajralib chiqdi. (Miloddan avvalgi VII asrga oid Ossuriya hujjatlarida Parfiya haqidagi dastlabki ma'lumotlar uchraydi).

Miloddan avvalgi 247 yilda Parfiyada arshak boshchiligidagi parmlar qabilasi Niso shahriga hujum qilib uni egallaydilar. Shu yili parmlar Arshakni o'zlariga podsho qilib saylaydilar. Tarixiy manbalarga qaraganda Arshak o'zining tashkilotchiligi, jasurligi va mohir diplomatligi sababli qisqa muddat ichida mustaqil davlat tuzishga erishdi.

Miloddan avvalgi 235 yildan boshlab Parfiya podsholari o'z davlatlari xududini kengaytirib bordilar. Miloddan avvalgi 155 yilda Midiya podsholigini, 141 yilda Bobilni bosib oldilar va Rim imperiyasining kuchli raqibiga aylanadilar. Ikki kuchli saltanatning o'zaro munosabatlari Sharq va g'arbdagi siyosiy jarayonlarni belgilab bera boshlaydi.

Miloddan avvalgi 1 asrga kelib ba'zi davlatlar Parfiya davlati tarkibidan chiqib keta boshlaydi. Parfiya davlatiga Arshakiylar miloddan avvlgil III asr o'rtalaridan milodning III asriga qadar hukmronlik qilgan. Bu davrda fors yerlarida yangi kuchli davlat Sosoniylar davlati vujudga

kelmoqda edi. Keyinchalik Parfiya saltanatini ana shu Sosoniylar davlati ag'darib tashladi. Yunon-Baqtriya davlatining salavkiylardan ajralib chiqishga yunon zodagonlarining qo'zg'oloni sabab bo'ldi. Bu qo'zg'olonga diodot rahbarlik qildi va uni mahalliy aholi qo'llab quvvatladi. Diodot o'zining ming shaharlik Baqtriya davlatining shohi deb e'lon qildi. Diodotdan keyin Yunon-Baqtriyada Yevtidem hukmronlik qildi. Miloddan avvalgi 199-167 yillarda hukmronlik qilgan Yevtidemning o'g'li Demetriy davrida Yunon-Baqtriya davlati o'z taraqqiyotining yuqori cho'qqisiga ko'tarildi. Bu davlatga Hindistonning ham bir qismi qo'shib olindi. Parfiyada hokimiyat Mitridat I qo'liga o'tishi bilan Baqtriyaga harbiy tazyiqni kuchaytirdi. Shundan keyin Mitridat I Margiyonani bosib oldi. Bir oz vaqt o'tgach Sug'diyona Baqtriyadan ajralib chiqdi. Yevtidem, Demetriy, Yevkradit, Geliokl hukmronlik qilgan davrlarda tinimsiz urushlar olib borildi va Hindistonning shimoliy-g'arbiy qismidan Amudaryo va Sirdaryo o'rtasidagi katta yerlar qo'shib olindi.

Miloddan avvalgi II asrning o'rtalariga kelib ko'chmanchi yuejchi qabilalari zarbasi ostida Yunon-Baqtriya davlati inqirozga uchradi.

Yunon-Baqtriya davlati 120 yil yashadi. Shu davr mobaynida uning iqtisodi va madaniyati yuksaldi. Hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlandi, ko'plab shaharlar qurildi. Arxeologik tadqiqotlar Yunon-Baqtriya podshohligida dehqonchilik, xunarmandchilik, ayniqsa Temurchilik, kulolchilik va zargarlikning yuqori darajada rivojlanganidan guvohlik beradi. Yunon-Baqtriya davlatida tangalar hukmdor tasviri bilan zarb etilgan. Dajla daryosi bo'yidan to Baqtriyagacha bo'lgan karvon yo'lining qurib bitkazilishi bilan xalqaro savdo va madaniy aloqalar jonlangan. Baqtriya orqali Xitoydan Hindistongacha boradigan karvon yo'li o'tgan va Buyuk ipak yo'li tarmoqlarga bo'lingan.

Olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida O'rta Osiyoning janubiy xududlaridan ellinizm madaniyati bilan bog'liq bo'lgan turar joylar, madaniy-ma'naviy madaniyat buyumlari, tanga pullar topildi. Ellinizm madaniyati bu xududlardagi mahaliy shaharsozlik, haykaltaroshlik, badiiy-amaliy san'at, alifbo va boshqalarga ta'sir etganidan dalolat beradi. Shu bilan birga bu topilmalar mahaliy madaniyatdagi rivojlanish antik davr Sharq va g'arb madaniyatining o'zaro uyg'unlashuvi natijasida o'ziga xos madaniyat darajasiga ko'tarilishining ham guvohidir.

Lekin Yunon madaniyati an'analari yoyilgan bo'lishiga qaramay, Markaziy Osiyo xalqlari o'zlarining qadimiy madaniyatlari an'anasiga



sodiq qoldilar. Ular Ellin madaniyatining eng afzal tomonlarini qabul qilib, yangi asoslarini rivojlantirdilar.

Miloddan avvalgi III asr oxiri va II asrda Farg'ona (Dovon)da, Sug'dda alohida shahar davlatlar shakllanadi. Ayni shu davrda qang' davlati qaror topishi yuz bergan. Bu davlatlarning har biri o'z tanga-larini zarb etgan. Bu esa mustaqil mulk mavjud bo'lganligidan dalolat beradi.

Miloddan avvalgi III asrning boshlarida qang' davlati paydo bo'ldi. Keyinchalik Yunon-Baqtriya davlati hamda ko'chmanchi qabilalar bilan kurash natijasida qang' davlati yanada mustahkamlandi va O'rta Osiyo-da eng yirik davlatlardan biriga aylandi. Bu davlatning asosiy negizini Sirdaryoning quyi oqimida yashovchi qang'lar tashkil etganlar. Milod-dan avvalgi II asrning boshlariga kelib qang' davlatining xududi Farg'ona vodiysi shimoliy-sharqda yuechji qabilalari bilan, shimoli-g'arbda Sarisu daryosi, g'arbda Sirdaryogacha borgan.

Miloddan avvalgi II-I asrlarda qang'liklar Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi yerlarni va Xorazmni o'zlariga bo'ysundirdilar. Manbalarda qang' podsholarining ikkita: yozlik va qishlik qarorgohlari eslatiladi. Ular yozni O'trorda (hozirgi qozog'istondagi Aris va Turkiston orali-g'ida), qishni esa qang'a-qang'dez (hozirgi toshkent viloyati Oqqo'r-g'on tumanida) o'tkazganlar.

Qang' davlatining shimolida, shimoli-qarbida va shimoli-sharqida bir qancha qabilalar mavjud bo'lib, ular asosan chorvachilik bilan shu-g'ullanganlar. Toshkent vohasida yashovchilar asosan dehqonchilik va bog'dorchilik bilan shug'ullanganlar. Ular arpa, bug'doy, tarig', no'xot, sholi va boshqa donli ekinlar yetishtirganlar. Mevali daraxtlar va uzum-zorlari ko'p bo'lgan. Sirdaryoning o'rta oqimida yashovchi qang'arlar asosan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganlar. qurama va Chotqol tog'larida Temurchilik, misgarlikning rivojlanishi uchun kerak-li ma'danlar bo'lgan. Bu joylarda juda ko'plab mis, Temur, kumush va boshqa metallar olingan.

Qang' shaharlari qalin va baland devorlar bilan o'rab olingan. De-vorlarning tashqarisida qal'a atrofi gir aylantirilib chuqur va keng qilib handaq qazilgan. Shaharlar ichida ark shahristonlarning ham baland devor-lari bo'lgan. Yirik shaharlardan, tashqari Toshkent vohasida yuzga ya-qin aholi yashaydigan katta va kichik qo'rg'onlar ham mavjud bo'lgan.

Davlat iqtisodiyotining gullab yashnashiga uning xududidan Buyuk Ipak yo'lining shimoliy tarmog'i o'tganligi katta imkon yaratdi. Lekin

ayni shu hol Xitoy bilan urushlarning kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Bu urushlarda qang'arlar ko'pincha g'olib chiqqanlar. Ma'lumotlarga qaraganda qang' davlatiga yurishlardan birida jo'natilgan 60000 nafar xitoylik jangchidan 10000 ga yaqini Xitoyga qaytib borgan.

Qang' podsholari davlatning ichki va tashqi siyosati va boshqa muhim masalalarni o'z oqsoqollari bilan maslahatlashib hal qilganlar. Davlat kengashida qabila boshliqlari, harbiy sarkardalar faol ishtirok etganlar. Milodiy III asrda qang' davlati parchalanib, keyinchalik, yani V asrga kelib uning hududi Eftalitlar davlati tarkibiga qo'shib olindi.

Davon davlati tahminan miloddan avvalgi III asrning oxirida milodning II asrigacha mavjud bo'lgan. Davon davlati tarixi haqidagi batafsil ma'lumot Xitoy yilnomalarida uchraydi. Masalan, Davonda bo'lgan xitoy sayyoxi Chjan Syan bunday deb yozadi: "Davon diyorida 70 tacha katta-kichik shahar bor; aholisining soni bir necha yuz mingga yetadi. O'q-yoy va nayzalar bilan qurollanishgan. Xalqi ot choptirib o'q otishga mohir". Boshqa bir Xitoy solnomasida: "An'si (Eron) shaharlari Davondagiga o'xshashdir", deb yozilgan.

Farg'ona vodiysi, hozirgi qirg'iziston respublikasi hududida joylashgan Davon (Parkana, Farg'ona) davlatining poytaxtlari-bosh shahar Ershi (hozirgi Andijon viloyati Marxamat tumani), ikkinchi shahar Yuchen (hozirgi qirg'izistonning O'zgan vohasi)da bo'lgan.

Miloddan avvalgi II asrdan boshlab qashqardan Davonga shimoliy yo'ldan karvon yo'li harakati boshlandi. Bu yo'ldan ipak va boshqa mahsulotlarning halqaro tranzit savdosi amalga osha boshlaydi. Bu paytga kelib Davon aholisi ko'paya boshlaydi va ko'plab mustahkamlangan aholi manzilgohlari paydo bo'ladi. Savdo yo'lida Davon muhim ahamiyatga ega bo'la boshlaydi. Chjan Syan shunday yozadi "o'troq aholi yer haydaydi, g'alla va sholi ekadi. Ularda musallas navli uzum, juda ko'plab yaxshi otlar bor". Xitoyliklarni ayniqsa, o'zlari uchun notanish bo'lgan beda va uzum xayratga solgan. Chjan Syan ma'lumotida shunday gap bor: "Xitoy elchisi urug' keltirdi, shunda osmon farzandi (Xitoy imperatori) unimdor yerga beda va uzum ekdi". Xitoy xukmdorlarini ko'proq Farg'onaning nasldor otlari qiziqtirgan. Otlar naslining biriga xatto "Samoviy" deb nom berganlar. Davonning mashhur "Samoviy otlari" tasvirlari tushirilgan qoyatosh suratlari Aravon qoyasida, Navqat vohasi va Obishisoyda topilgan va hozirgacha saqlanib qolgan. Bu tasvirlar Davon o'zining samoviy otlari bilan qadimdan mashhur bo'lganligini tasdiqlabgina qolmasdan, Farg'onaliklarning yuksak

tasviriy sa'nat sohiblari bo'lganligidan ham dalolat beradi. qo'shni davlatlar, ayniqsa, xitoy imperatorlari Davon otlarini nihoyatda qadrlaganlar. Otlar va Davonning serunum yerlari uchun miloddan avvalgi II asrning oxirlarida Xitoy va Davon o'rtasida harbiy to'qnashuvlar ham bo'lib o'tgan. Bu to'qnashuvlarda davonliklar o'z mustaqilliklarini saqlab qolishga muvaffaq bo'lganlar, chunki Davon davlatida yaxshi qurollangan va mashq ko'rgan qurolli kuchlar mavjud bo'lgan.

Miloddan avvalgi III asrda bu davlat "Dovon" keyinroq esa "Boxon" va "Polona" nomlari bilan tilga olinadi. "Polona" bu "Farg'ona"ning xitoycha talaffuz etilishidir. Xitoy manbalariga ko'ra mil.av. II asrda Farg'onada 300 mingga yaqin aholi yashagan

Miloddning II asrida Farg'ona davlati barham topdi va uning yerlari Kushon podsholigiga qo'shib olindi.

4. Kushon podsholigi. Kushonlar davri O'rta Osiyo, Afg'oniston, Pokiston va Hindiston xalqlari tarixidagina emas, balki butun dunyo madaniyatining taraqqiyotida alohida o'rin egallaydi. Chunki bu davrda tili, dini va etnik madaniyati bir xil bo'lgan halqlarning siyosiy jihatdan birlashish jarayoni kechdiki, bu hol insoniyat sivilizasiyasi taraqqiyotida turtki vazifasini bajardi.

Spitamien qo'zgoloni mag'lubiyatga uchragandan so'ng mil.av. I asr oxirlarida asli O'rta Osiyoda yashagan massaget tohar qabilalarining katta bir qismi Sharqiy Turkistondan to Mug'uliston chegaralarigacha bo'lgan hududlarga ko'chib o'tganlar. Ana shu qabilalar tarixi bilan bog'liq mil.av. IV asr oxirlari va milodning V asriga oid ma'lumotlar Xitoy manbalaridan olinligi sababli qabila, urug', shaxslar, joy va shahar nomlari xitoycha nomlar bilan berilgan. O'rta Osiyodan Sharqqa tomon ko'chib o'tgan massaget-toharlarni Xitoy manbalarida yuyechjelar nomi bilan ataganlar. Xitoyning shimolidagi katta hududlarda xunn qabilalari yashagan. Xunlar bilan yuyechjelar o'rtasida ziddiyatlar kuchayib, xunlar mil. avv. 176-yili yuyechjelarni g'arbga siqib chiqaradi. Farg'ona (Dovon) podsholigi hududlariga chekingan yuyechje qabilalari bu yerda shahar va qishloqlar barpo qiladilar. Hozirgi Namangan viloyati Kushon qishlog'i va Kosonsoy tumani shular jumlasidandir. Ular mil. av. 140-130 yillarda Yunon-Baqtriyani ham o'zlariga tobe qiladilar va "Katta Yuyechje" davlat uyushmasiga asos soladilar. Bu davlat uyushmasiga beshta hokimlik: Guyshuan, Xyumi, Shaunmi, Xise va Dumilar bo'ysunar edi. Bulardan biri Guyshuan (Kushon) hokimligi ancha kuchayib, boshqa hokimliklarni birlashtiradi va Guyshuan

hokimi Kudjula Kadfiz o'zini yagona hokim deb e'lon qiladi. Natijada yangi Kushon davlati paydo bo'ladi va hozirgi Surxondaryo viloyatining Sho'rchi tumanidagi Dalvarzintepada joylashgan manzilgoh bu davlatning poytaxti bo'lib qoladi. Kudjula Kadfiz davlat chegaralarini kengaytirib, qudratini oshiradi. Parfiya, hozirgi Afg'oniston hududi va Kashmirni egallaydi. Kudjula vafotidan keyin uning o'g'li Vima taxtga chiqadi va Hindistonning markaziy viloyatlarini o'z davlati tarkibiga qo'shib oladi.

Vima Kadfiz 30 yil hukmronlik qilgan. Undan so'ng Kanishka mamlakatni boshqaradi va u Hindistonning janubiy hududlarini zabt etadi. Natijada Kushon davlati katta saltanatga aylanib, Xitoydagi Xan sulolasi hamda Rim imperiyasi bilan raqobatlashish darajasiga ko'tarildi. Kushonda davlatida viloyatlar va shaharlar davlat tepasida turuvchi oliy hukmdor noiblari tomonidan boshqarilgan. Ular oliy hukmdorga so'zsiz itoat etib, doimiy ravishda davlat xazinasiga o'lponlar to'lab turganlar.

Kushonlar davlatida zarb etilgan kumush, oltin tangalarning bir tomonida Buddha xudolari, zardushtiylar xudolari Anaxita, Mitra rasmlari uchrasa, ikkinchi tomonida esa "shoh", "shohlar shohi" atamasini ko'ramiz. Buyuk ipak yo'li tarmoqlarida joylashgan Kushon podsholigi gulab yashnadi. Ko'pdan ko'p yangi shaharlar bunyod etildi. Bu davrda ko'plab sug'orish inshootlari qurilib, yangi yerlar o'zlashtirildi. Shaharlar qurilishida aniq binokorlik qoidalari amalga oshirilgan. Shaharlar tug'ri burchakli bo'lib, qalin deganvorlar bilan o'ralgan. Shahar tuzilishiga ko'ra, u bir necha qismlarga bo'lingan: hokim saroyi (qal'a), hunarmandchilik ustaxonalari, guzarlar, alohida ibodatxonalar joylashgan qismi, savdo maydoni va boshqalar tartibli ravishda joylashgan edi. Kushon podsholigi iqtisodiyotining asosini sug'orma dehqonchilik, savdo va hunarmandchilik tashkil qilib, yuqori darajada rivojlangan. Xitoy va Rim saltanati bilan savdo va elchilik munosabatlari o'rnatilgan. Savdo munosabatlarining rivojlanishida Buyuk ipak yo'lining ahamiyati katta bo'lgan. Termizdan Rim tangalari xazinasini, O'rta yer dengizi atrofi hududlarida esa kushon tangalari topilgan. Kanishka davrida Hindistondan tarqalgan Buddha dini davlat diniga aylandi. Oromiy va yunon yozuvlari bilan birga kushon yozuvi ham mavjud bo'lgan. Kushon saltanati davrida me'morchilik va tasviriy san'at yuksak darajada rivojlangan edi. Buni o'lkamizning Ayritom, Ko'hna Termiz, qora-tepa budda ibodatxonalarini Fayoztepa, Xolchayon, Dalvarzintepa va boshqa joylardan qazib olingan arxeologik topilmalardan ko'rishimiz

mumkin. Kushon davri shaharlari xarobalarini va qabrlarini o'rganish o'lka xalqlarining urf odatlari, diniy qarashlari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar beradi. Xususan, Dalvarzintepa ashyolari kushonlarning diniy e'tiqodlari buddizm bilan zardushtiylilik bo'lganini ko'rsatadi. Ayniqsa, yapon olimlari bilan Darvarzintepada, fransuz arxeologlari bilan Afrosiyobda olib borilgan taqiqotlar muhim ma'lumotlar beradi. Kushon saltanati inqirozi Xuvishka podsholigi davridan boshlanadi. Bu jarayon Erondagi Sosoniylar davlatining tarix sahnasiga chiquviga asosiy omil bo'ldi. Xususan, sosoniy hukmdorlardan Shopur I ning (milodiy 242-243 yillar) va Shopur II ning (mil. 309-379 yillar) Kushonlarga bergan zarbalari hal qiluvchi o'rin tutdi. IV asrga kelib Kushon podsholigi asosiy hududlaridan mahrum bo'ldi. Kushonlarning ayrim mulklari faqat Shimoliy Hindistonda ma'lum vaqtgacha saqlanib qoldi.

Kushon saltanati olti asr davomida insoniyat jamiyati taraqqiyotida o'chmas iz qoldirdi. Bu davrda yaratilgan noyob san'at asarlari, madaniyat yodgorliklari uning o'tmish qudratining namunasi. Bu madaniyat uzoq Sharq, Yaponiya, Hindiston va Indoneziya xalqlari madaniyatiga g'oyat katta ta'sir ko'rsatdi va bizning davrimizgacha yetib keldi. Bu davrda Eronda tarkib topgan kuchli uyushm-Eron Sosoniylarining hujumi natijasida Kushon saltanati inqirozga yuz tutdi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz joizki, o'zbek xalqi asrlar davomida o'z davlatchiligini yaratib keldi, buni o'rganish har birimizning muqddas burchimizdir. Zero, yurtboshimiz o'zining "Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish-eng oily saodatdir" nomli kitobida ta'kidlaganidek "Kechagi tarix biz uchun hayot maktabi, bamisoli tiniq bir ko'zgu. Unga qarab saboq olamiz, xulosa chiqaramiz, kelajak yo'lini belgilaymiz".

### ***Tayanch tushunchalar***

*Davlat, Katta Xorazm, Baktriya podshohligi, Avesto, Behsutun yozuvlari, Xvarazmish-Xorazmiya, Syovushiylar sulolasi, Yunon-Rim manbalarida yurtimizda vujudga kelgan eng qadimgi davlatlar haqidagi ma'lumotlar, Abu Rayxon Beruniyning "Osorul boqiya" asari. Sug'd davlati, Arosiyob, Sug'd tili, yozuvi, Salavkiylar davlati, Yunon-Baqtriya davlati, Satrapiya, Ellinizm, Arshakiylar davlati — Parfiya, qang' davlati Davon (Parkana, Farg'ona) davlati, samoviy otlar, Kushonlar davlati, Yuyechji qabilalari, Kujula Kadfiz, Kanishka, Buddha dini.*

## Savol va topshiriqlar

1. Davlat deganda nimani tushunasiz?
2. O'lkamiz hududlarida ilk davlat uyushmalari qachon vujudga kelgan?
3. Katta Xorazm, Baqtriya va Sug'diyona davlatlarining poytaxtlarini aniqlang.
4. Nima sababdan davlat nomi Yunon-Baqtriya deb atalgan?
5. Ellinizm nima? U O'rta Osiyo xalqlarining hayotiga qanday ta'sir ko'rsatdi?
6. qang' davlati qachon va qayerda tashkil topdi ?
7. Davon davlati necha asr hukm surgan va qaysi hududlarni o'ziga qamrab olgan edi?
8. Kushonlar kimlar? Ular O'rta Osiyoda qanday qilib davlat tashkil qildilar?

### Uchinchi topshiriqni bajarish yuzasidan ko'rsatma:

**Darsning shakli:** Oliy ta'lim tizimida fanlarni o'qitishda umumiy o'rta ta'lim tizimidan farqli o'laroq, mashg'ulotlarning ma'ruza, seminar (amaliy), laboratoriya va ekskursiya shakllarida amalga oshiradi.

Ma'ruza o'quv jarayonining asosiy bo'g'ini, oliy o'quv yurtida dars berishning asosiy shakllaridan biridir. U talabalarning dunyoqarashini shakllantirishda katta rol o'ynaydi.

**ma'ruza** – o'qitishni tashkil etishning yetakchi shakli bo'lib, quyidagi vazifalarni amalga oshirishga imkon beradi:

**yo'naltiruvchilik** – o'quvchilarni o'quv materialining asosiy holatlariga, uni kelgusi ish faoliyatidagi o'rni va ahamiyatiga diqqat qilishlariga imkon beradi;

**axborotlilik** – o'qituvchi ma'ruza vaqtida holat, asosiy ilmiy dalillar va xulosalar mohiyatini ochib beradi;

**metodologiklik** – ma'ruza vaqtida o'qitish usullari taqqoslanadi, ilmiy izlanishning asoslari namoyon etiladi;

**tarbiyalovchilik** – ma'ruza o'quv materialiga hissiy-baholash munosabatida bo'lishni uyg'otish;

**rivojlantiruvchilik** – bilim olish qiziqishlarini, ya'ni mantiqiy fikrlash va isbotlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

## Ma'ruza turlarining o'ziga xos xususiyatlari

Ma'ruza shakllari	O'ziga xos xususiyatlari
Kirish	<p>Ma'ruzaning eng an'anaviy turi.</p> <p><i>Pedagogik vazifalar:</i> o'quv ma'lumotini bayon qilish va tushuntirish</p>
Umumlashtiruvchi qisqa ma'lumotli	<p>Kursni yoki uning bitta bo'limini bayon etilgan nazorat holatlari negizida avvalo ilmiy-tushunchaviy va konseptual asos tashkil etadi.</p> <p><i>Pedagogik vazifalar:</i> Ilmiy bilimlarni tizimlashtirishni amalga oshirish. Ichki va fanlararo aloqani yoritib berish.</p>
Muammoli	<p>Yangi bilimlar savol, vazifa, vaziyatlarni muammoli orqali amalga oshiriladi. Bunda talabalar bilimi o'qituvchi bilan hamkorlikda va suhbatda tadqiqotchilik faoliyatiga olib kelinadi.</p> <p><i>Pedagogik vazifalar:</i> yangi o'quv ma'lumotini yoritib berish; muammoni aniqlash, uni yechish, jamlash va an'anaviy va zamonaviy nuqtai-nazarni tahlil qilishni tashkillashtirish.</p>
Ko'rgazmali	<p>Bunday ma'ruzani olib borilishi ko'rilayotgan materiallarni ochiq holda va qisqa sharhlashga olib kelinadi.</p> <p><i>Pedagogik vazifalar:</i> ma'lumot mazmunini ta'limning texnikaviy vositalari yoki audio texnikalar yordamida yoritib berish.</p>
Binarli	<p>Bunday ma'ruzani olib borilishi ikki nafar o'qituvchi, ikki nafar maktab vakillari, olim va amaliyotchilar, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi suhbatni namoyon qiladi.</p> <p><i>Pedagogik vazifalar:</i> yangi o'quv ma'lumotlarini ikki tomon nuqtayi nazarlarini taqqoslash orqali yoritib berish</p>
Oldindan ko'zlangan xatoliklar bilan	<p>O'qituvchi ongli ravishda yo'l qo'ygan mazmuniy, metodologik xatolarni: talabalar tomonidan topishga qaratilgan. Ma'ruza yakunida talabalarning tashxisi va qo'yilgan xatoliklari tahlili olib boriladi.</p> <p><i>Pedagogik vazifalar:</i> yangi material mazmunini yoritib berish; talabalarni taklif etilayotgan ma'lumotni doimo nazorat qilishlariga qiziqtirish.</p>
Anjuman	<p>O'qituvchi tomonidan tayyorlangan dastur miqyosida, oldindan belgilangan muammo va ma'ruza tizimi bilan ilmiy-seminar mashg'uloti olib boriladi.</p>

	<i>Pedagogik vazifalar:</i> yangi o'quv ma'lumotini izlash va tizimlashtirishga harakat qildirish
Maslahatli	<p>Turli yo'l bilan o'tkazilishi mumkin. 1. "Savol-javob". O'qituvchi ma'ruza davomida butun kurs yoki bo'lim bo'yicha talabalarning savollariga javob beradi. 2. "Savol-javob-munozara". Yangi ma'lumotni nafaqat bayon etadi, balki qo'yilgan savollarga javob izlab topishni tashkillashtiradi.</p> <p><i>Pedagogik vazifalar:</i> talabalar bilimini mustahkamlash, rivojlantirish, ularni yangi ma'lumotlar bilan to'ldirish</p>

**Seminar (amaliy) mashg'uloti** – bu ta'lim beruvchini ta'lim oluvchilar bilan faol suhbatga kirishishiga yo'naltirilgan, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amalga oshirish uchun sharoitni ta'minlovchi, mashg'ulotni o'qitish shaklidir.

**Seminar (amaliy) mashg'ulotining asosiy maqsadi** - nazariy materialni (bilimlarini) tartibga solish, amaliy malaka va ko'nikmalarini hosil qilish va bilimlarini nazorat qilishdan iboratdir.

Seminar (amaliy) mashg'uloti darslarini ikki turga ajratish mumkin. Bular ma'ruza darsi mavjud bo'lgan va ma'ruza darsi mavjud bo'lmagan fanlardan (masalan, chet tillar) o'tkaziladigan seminar mashg'ulotlari. Seminar (amaliy) mashg'uloti darslari fan dasturlari va ishchi dasturlari hamda kalendar tematik rejalariga qat'iy amal qilingan holda o'tkaziladi. Seminar (amaliy) mashg'ulotlarni o'tkazish bo'yicha zarur adabiyotlar ro'yxati beriladi. Ma'ruza darsi mavjud bo'lgan seminar (amaliy) mashg'ulotlarda asosan ma'ruza darslarida o'tilgan materiallar, mashqlar bajarish yordamida mustahkamlanadi.

Seminar (amaliy) mashg'uloti quyidagi maqsadlarga erishish uchun qo'llaniladi:

- nazariy materialni tartibga solish.
- ko'nikmalarni hosil qilish.
- bilimlarni nazorat qilish.

Ta'lim beruvchi seminar (amaliy) mashg'ulotini samarali o'tkazish uchun quyidagilarni hisobga olish zarur:

- o'zining tayyorgarligi, bunda savol va javob texnikasiga ega bo'lishi;
- o'quv guruhining holati: uning motivasiyasi, uning tashkil etish xususiyati;



– o‘quv jarayonining texnik jihozlanishi.

Ma’ruza darslari rejalashtirilmagan, faqat amaliy dars o‘tkaziladigan fanlardan seminar (amaliy) mashg‘ulotlar o‘tkazishda nazariy bilimlar bilan amaliy mashqlar bajarish birgalikda olib boriladi. Dastlab mavzu bo‘yicha nazariy bilimlar beriladi, o‘qituvchi misol va mashqlar bajarib ko‘rsatadi. Shundan so‘ng talabalar mustaqil mashqlar bajaradi. O‘qituvchi talabalar bilimini baholab boradi. Amaliy darsni o‘qituvchi xulosalab yakunlaydi.

**Laboratoriya darslari** – o‘quvchilarga turli jixoz, maxsus uskuna, qurol, texnikaviy qoliplardan foydalangan holda tajribalarni o‘tkazish imkoniyatini yaratuvchi metodlar bo‘lib, ular ko‘proq tabiiy fanlar asoslarini o‘rganishda qo‘llaniladi. Ushbu metod o‘quvchilarda asbob-uskunalar bilan ish ko‘rish, o‘lchash ishlarini amalga oshirish, ularning natijalariga ishlov berish kabi ko‘nikma, malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Laboratoriya ishlarini bajarish maxsus qurilma, jixoz va materiallarni, vaqtni sarflash hisobiga ularni ishga tayyor holatga keltirishni talab etadi.

**Ekskursiya darslari** – narsa va hodisalar mohiyatini tabiiy sharoitlar (ishlab chiqarish muassasalari, fermer xo‘jaliklari, tabiat) yoki maxsus muassasalar (muzey, tarixiy obyektlar, ko‘rgazma zallari va h.k.) da bevosita o‘rganilishini tashkil etish bo‘lib, ana shu maqsadga xizmat qiladigan dars ekskursiya darsi deb nomlanadi.

O‘zbekiston hududida ilk davlat uyushmalari, ularning shakllanish va rivojlanish bosqichlari mavzusida dars berishning muammoli ma’ruza shaklidan foydalanish tavsiya etiladi.

**O‘zbekiston hududida ilk davlat uyushmalari, ularning shakllanish va rivojlanish bosqichlari mavzusini o‘qitish metodini tanlash:**

Shu o‘rinda aytish kerakki o‘qituvchi va talabaning maqsaddan natijaga erishishida qanday metodlarni tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo‘lib, bunda talabalarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab, ishlatiladigan metodlar tanlanadi. Masalan, natijaga erishish uchun balki, kompyuter bilan ishlash lozimdir, balki film(yoki tarqatma material, chizma va plakat, axborat texnologiyasi, turli adabiyotlar) kerak bo‘lar. Bularning hammasi o‘qituvchi va talabalarga bog‘liq. Bu jarayonda o‘quv predmetining o‘ziga xos tomoni, joy va sharoitni, eng asosiysi, talabaning imkoniyati va ehtiyojini hamkorlikdagi faoliyatni tash-

kil eta olishini hisobga olishi kerak. Shundagina kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqacha aytganda, talabani ta'limning markaziga olib chiqish kerak.

**Ta'lim vositalari** – o'quv materialini ko'rgazmali taqdim etish va shu bilan birga o'qitish samaradorligini oshiruvchi yordamchi materiallar hisoblanadi

**Ta'lim vositalari:**

1. Ta'lim berishning texnik vositalari
2. Yordamchi texnik vositalari
3. O'quv – uslubiy materiallarga bo'linadi.

**Ta'limning texnik vositalari** – o'quv materialini ko'rgazmali namoyish etishga, uni tizimli yetkazib berishga yordam beradi; talabalarga o'quv materialini tushunishlariga va yaxshi eslab qolishlariga imkon beradi (Diaproyektor, Grafoproyektor, Doska-bloknot, Doska-stend, Flipchart, Videofilmlar).

**Yordamchi ta'lim vositalari** – grafiklar, chizmalar, na'munalar va boshqalar (Model-mulyajlar, diagrammalar, sxema, xaritalar).

**O'quv – uslubiy materiallar** – o'quv materiallar, o'zlashtirilgan o'quv materiallarini mustahkamlash uchun mashqlar. Bular talabalarining mustaqil ishlashlarini faollashtirishga yordam beradilar (ish varaqasi, eslatma, nazorat varaqasi, matnlar).

Ta'lim vositalari o'qituvchi va o'quvchi uchun, hamda dars o'tkazish uchun alohida variantlarini to'g'ri tanlash muhim ahamiyatga ega.

**Ta'lim vositalari oltita turga bo'linadi:**

1. **Matnli vositalar.**
2. **Tasvirli vositalar.**
3. **Audio vizual vositalar.**
4. **Yordamchi (jixoz) vositalar.**
5. **Modelli vositalar.**
6. **Real vositalar.**

• **Matnli vositalar** – O'qituvchi va o'quvchilar uchun: o'quv predmetini o'qitish metodikasi bo'yicha qo'llanmalar, shaxsiy metodika, o'qituvchilar tomonidan tayyorlangan metodik ishlanmalar, mantiqiy strukturalar, fan darsliklari, mavzu yuzasidan kelib chiqqan holda tarixiy badiiy adabiyotlar, fan bo'yicha ma'ruzalar matni.

• **Tasvirli vositalar** – o'quv materialini ko'rgazmali namoyish etishga, uni tizimli etkazib berishga yordam beradi; talabalarga o'quv materialini tushunishlariga va yaxshi eslab qolishlariga imkon beradi (videoproyektor, videofilmlar, rasmlar, haykallar, portret).

- **Audio vizual vositalar** – Matnga ovoz berish, Lingafon vositalari, radio eshittirishlaridan foydalanish, stenogramma matreallari, turli xildagi disklar va hakoza.

- **Yordamchi (jixoz) vositalar** – Grafoproyektor, Doska-bloknot, Doska-stend, Flipchart, va boshqalar).

- **Modelli vositalar** – grafiklar, chizmalar, sxema, xaritalar

- **Real vositalar** – tarix darslarida muzey eksponatlari, maket va mulyajlar, arxeologik matreallar, tarixiy obyektlar.

O'zbekiston hududida ilk davlat uyushmalari, ularning shakllanish va rivojlanish bosqichlari mavzusini o'qitish jarayonida ta'lim berishning **tasvirli hamda modeli vositalaridan** foydalanish tavsiya qilinadi.

#### **Darsning texnologik xaritasi:**

Texnologik xaritada ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyati (o'quv jarayoni) bosqichlarining ketma-ketligi va mazmuni hamda ular-da qo'llaniladigan vositalar tavsiflanadi. Texnologik xarita talabalarning mustaqil ishlarini nazorat qilishga yordam beradi.

#### **Texnologik xaritaning tuzilishi va mazmunli ko'rsatkichlari:**

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi uch qatorni o'z ichiga olib, 1-1,5-2 varaqda jadval ko'rinishida bajariladi: (1) o'quv mashg'uloti bosqichlari va vaqti; (2) ta'lim beruvchi faoliyati; (3) ta'lim oluvchi faoliyati.

1-bosqich (5-10 daqiqagacha). O'quv mashg'ulotiga kirish.

**Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar harakati.** Ta'lim beruvchi mavzuning nomi, (ma'ruza) rejasi bilan, o'quv mashg'ulotining xususiyati bilan (muammoli ma'ruza, o'rgatuvchili o'yin va boshqalar.), mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni; mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro'yxatini, o'quv mashg'ulotida o'quv ishlarini baholash me'zonlari bilan tanishtiradi.

Ta'lim oluvchilar tinglaydilar, aniqlashtiradilar, savollar beradilar, yozib oladilar.

2-bosqich (55-65 daqiqagacha). Asosiy ma'lumot beruvchilik.

**Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar harakati.** Ta'lim beruvchi o'quv mashg'ulotining rejasi tuzilishga muvofiq tuzib chiqqan ta'lim modelini amalga oshiradi, ko'zlanayotgan o'quv natijalariga erishish bo'yicha ta'lim oluvchilar o'quv faoliyatini boshqaradi.

Ta'lim oluvchilar ko'zlanayotgan o'quv natijalarga erishish bo'yicha rejalashtirilgan o'quv harakatini bajaradilar.

3-bosqich (10-15 daqiqagacha). Yakuniy – natijaviy.

**Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar harakati.** *Ta'lim beruvchi* mavzu bo'yicha yakun yasaydi, ta'lim oluvchilar e'tiborini asosiylariga qaratadi, bajarilgan ishlarni kelgusi kasbiy ish faoliyatidagi ahamiyatini ma'lum qiladi, guruhlar, alohida talabalar ishini baholaydi yoki o'zaro baholashni yakunini chiqaradi: o'quv mashg'uloti maqsadiga erishish darajasini baholaydi; mustaqil ish uchun topshiriq beradi.

*Ta'lim oluvchilar* o'zaro baholashni o'tkazadilar, savol beradilar, topshiriqni yozadilar.

**Ilova.** O'quv jarayonining tashkiliy-didaktik vazifasini bajaradi: o'quv, mustaqil ish uchun savol va topshiriqlarni, uni baholash mezonlarini, o'quv ish jarayonida talabalar amal qilishi lozim bo'lgan qoidalar, ta'lim beruvchi foydalanadigan tayanch yozmalar, Shuningdek chizma, jadval, slaydlar va boshqa ko'rgazmali materiallar, rejalashtirilgan maqsadlarga erishishni nazorat qilish uchun topshiriqlar (testlar, savollar, topshiriqlar va mashqlar).

Bu yerda taqdim etilayotgan materiallar chegaralanmaydi. Faqat ular katta hajmli, yaxshi tuzilmaga keltirilgan va grafikli chizmalarda rasmiylashtirilgan bo'lishi kerak.

### O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (...daq.)	1.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi. Mashg'ulot rejasi bilan tanishtiradi. 1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni; mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro'yxatini aytadi. 1.3. O'quv mashg'ulotida o'quv ishlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi	Tinglaydilar, yozib oladilar.  Aniqlashtiradilar, savollar beradilar.
2-bosqich. Asosiy (...daq.)	2.1. Tezkor-so'rov/ savol-javob/ aqliy hujum orqali bilimlarni faollashtiradi. 2.2. Ma'ruza/ seminar/ amaliy mashg'ulotning rejasi va tuzilishiga muvofiq ta'lim jarayonini tashkil etish bo'yicha harakatlar tartibini bayon etadi	Javob beradilar Yozadilar. Gruhlarda ishlaydilar, taqdimot qiladilar va bosh.
3-bosqich. Yakuniy (...daq.)	3.1. Mavzu bo'yicha yakunlaydi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tiborini qaratadi.	O'z-o'zini, o'zaro baholashni o'tkazadilar. Savol beradilar.

	<p>3.2. Guruhlar ishini baholaydilar, o'quv mashg'ulotining maqsadga erishish darajasini tahlil qiladi.</p> <p>3.3. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi va uning baholash mezonlarini yetkazadi .</p>	<p>Topshiriqni yozadilar.</p>
--	---	-------------------------------

**To'rtinchi topshiriqni bajarish yuzasidan ko'rsatma:**

O'zbekiston hududida ilk davlat uyushmalari, ularning shakllanish va rivojlanish bosqichlari mavzusi yuzasidan ko'rgazmali qurollar tayyorlashda asosan vatanimiz hududida vujudga kelgan ilk davlat uyushmalarining hududiy chegaralarini o'zida aks etgan xaritalar va ilk davlat uyushmalarining madaniy hayoti to'g'risida ma'lumot beruvchi (yozuv na'munalari, zargarlik buyumlari, tangalar, haykallar va boshqalar) tasvirli vositalardan foydalanish tavsiya qilinadi.

Misol uchun quyidagilar:





## ARXEOLOGIYA

### fanidan laboratoriya mashg'ulotlari

### TEXNIKA XAVFSIZLIK QOIDALARI

1. Ish bajarish tartibini puxta o'zlashtirmasdan va tajriba o'tkazish uchun asboblarning to'g'ri yig'ilganligiga ishonch hosil qilmasdan tajribani boshlamaslik kerak.
2. Transport vositalarida yurishga qat'iy amal qilish.
3. Mehnat qurollaridan foydalanishda xavfsizlikka rioya qilish.
4. Arxeologik moddiy topilmalarga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lish.
5. O'quv qurollaridan to'g'ri foydalanish.
6. Arxeologik moddiy ashyolarni tozalashda ehtiyot choralarini ko'rish.
7. Ehtiyotsizlik kiyim-kechaklarga, ko'zga, teriga zarar va jarohat yetkazishi mumkin. Shuning uchun nojo'ya harakatlar qilmaslik lozim.
8. Tajribalar tugagach elektr va suv tarmoqlarini berkitish, asboblarni o'chirish kerak.
9. Ish joyining doimo toza va ozoda saqlanishini ta'minlash lozim.

# I-mavzu: ARXEOLOGIYA YODGORLIKLARIDA QAZUV TADQIQOT ISHLARINI OLIB BORISH USULLARI. (4-soat).

## 1.1 Ta'lim berish texnologiyasi modeli

Mashg'ulot vaqti-4 soat	Talabalar soni: 12-15 gacha
Mashg'ulot shakli	Kirish-axborot laboratoriya – ko'rgazmali
Laboratoriya	1. Planigrafik qazuv usuli. 2. Stratigrafik qazuv usuli.
<p>Qazuv tadqiqotning ikki – stratigrafik va planigrafik usullari xususida. Yodgorlikning tartibli topografiyasini o'rganish, reper nuqtasini belgilash. Ekspeditsiya rejasiga ko'ra, qazishmalar uchun ob'yektlar tanlash. Yodgorlikning paydo bo'lishi, hududiy o'zlashtirilish bosqichlari va yoshini aniqlash uchun ob'ekt maydonida uning reliefiga qarab stratigrafik shurflar, transeylalar solish. Yodgorlik istiqbolidan kelib chiqib, maqsadli statsionar qazishmalar rejalashtirish. Mudofaa tizimi, turor-joy massivlari, hunarmandchilik ob'ektlari, diniy kult ob'ektlari, sug'orish va obodonchilik ob'ektlari va boshqalar. Topilma va qurilma qoldiqlarini dala planiga tushirib borish. Dala muzeyi tashkil qilish va topilmalarni shifrlash. Statsionar qazishma maydonida ob'yektni qatlamma-qatlam ochish usuliga qat'iy amal qilish. Buning uchun ob'ektni qazish jarayonida nivelir va teodolit kabi instrumentlardan foydalanish. Yer to'la, yarim yer to'la, kapa va boshqa qurilmalar izlarini topishga alohida e'tibor qaratish. Olovata, xom g'isht va paxsa kabi qurilish materiallaridan tiklangan qurilma qoldiqlarini topish, qurilish orientiri, eshik va o'choq izlarini topish. Bir xonali uylardan ko'p xonali uylar qurilishi reolarini aniqlashga e'tibor berish. Qazishma jarayonida fundament, devor qurilishi materiali, suvoq, pardozlash, devoriy naqsh va ularning turlari, ishlab chiqarish qoldiqlari-xumdon va uchsoq, sandal va tandir qoldiqlari va boshqalarni topishga e'tibor berish. Qazishmalar muxofazasi masalasi. Mahalliy hokimiyat bilan bog'lanish. Ochilgan ob'ektlarni navbatdagi qazishma faaliga qadar mahalliy hokimiyatning tegishli mutassaddi vakillariga topshirish.</p>	
Pedagogik vazifalar:	O'quv faoliyati natijalari:
1. Planigrafik qazuv usuli xususida savol-javob qilish. 2. Stratigrafik qazuv usuli xususida savol-javob qilish.	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Planigrafik qazuv usuli.</li> <li>• Stratigrafik qazuv usuli.</li> </ul>
O'qitish usullari	Ko'rgazmali ma'ruza, juftlikda ishlash
O'qitish shakllari	Frontal, jamoaviy, juftlikda ishlash.
O'qitish vositalari	O'quv qo'llanma, proektor, grafik organayzerlar.
O'qitish sharoiti	UTV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat: savol-javob shakli

## 1.2 Laboratoriyaning texnologik xaritasi

Ishlash bosqichlari, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
1-bosqich. Fan va mavzuga kirish (15 daqiqa)	<p>1.1. O'quv kursi nomini aytadi. Ekran-da kursning tuzilmaviy mantiqiy izchilligi chizmasini namoyish etadi, mavzular ro'yxatini beradi va ularga qisqacha ta'rif beradi.</p> <p>1.2. Mavzu, birinchi mashqulotning maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytib beradi.</p> <p>1.3. Talabalarning bilimlarini jonlashtirish uchun savollar beradi va ushbu savollarga juftlikda javob berish shartligini ta'kidlaydi. "Juftlikda ishlash" qoidalari bilan tanishtiradi, juftliklarga bo'linishlarini taklif qiladi, yakka tartibda o'ylashni va juftlikda muhokama qilib javob berishni taklif qiladi.</p>	<p>Tinglashadi</p> <p>Tinglashadi</p> <p>Juftlikka bo'linishadi, o'ylashadi, muhokama qilishadi va savollarga javob berishadi.</p>
2-bosqich. Asosiy (55 daqiqa)	<p>2.1. Ekranga jadvalni chiqaradi va ma'ruza tinglash jarayonida uni to'ldirishni so'raydi</p> <p>2.2. Power point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy jihatlarni tushuntirib beradi</p> <p>Dars jarayonida fokuslovchi nazorat savollar beradi; mavzuning rejasini har bir bandi bo'yicha xulosalar qiladi; jalvalga axborotlarni kiritish lozimligini eslatadi.</p>	<p>Tomosha qilishadi, yozishadi.</p> <p>Tinglashadi, yozishadi.</p> <p>Savollarga javob berishadi, jadvalni to'ldirishadi.</p>
3-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa)	<p>3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosa qiladi, ish natijalarini izchillikda izohlab beradi.</p>	<p>Savollar beradilar. Mustaqil ishlash uchun esse mavzusini yozib oladilar.</p>



## **I-laboratoriya mashg'uloti.**

### **1-mavzu: Arxeologiya yodgorliklarida qazuv tadqiqot ishlarini olib borish usullari (4-soat).**

#### **Reja.**

1. Planigrafik qazuv usuli.
2. Stratigrafik qazuv usuli.

**Maqsadi:** Talabalarga arxeologik qazuv tadqiqot ishlarini amalga oshirish usullarini o'rgatish.

**Jihozlar:** Mehnat qurollari – belkurak, ketmon, zambil, paqir, kurakcha, shyotka, supurgi, tasha, o'lchov tasmasi, ingichka arqon, katta mix, cho'kich. Arxeologik tadqiqotlar uchun kerakli o'quv qurolariga ruchka, qora qalam, daftar, chizg'ich, o'chirg'ich, sirkul, chizma uchun maxsus qog'ozlar (batman, kalka, plomaster va boshqalar) bundan tashqari kompas va fotoaparat bo'lishi zarur.

#### **Ishni bajarish tartibi:**

1. Arxeologiya qazuv ishlari olib borish uchun joyini oldindan tekshirib bilish.
2. Arxeologik sinov (razvedka)da har bir yodgorlikni sinov tariqasida qisman qazib ko'rish.
3. Muqim (statsionar) arxeologik qazish turli arxeologik tekshirishning yakunlovchi bosqichi bo'lib, unda sinab ko'rilgan yodgorlik boshdan-oyoq batamom qazib tekshiriladi.
4. Planigrafik qazuv usulini amalga oshirishda belgilangan arxeologik yodgorlikning ustki qismida, avvalo shimol tomon kompas orqali belgilanib, unga parallel tarzida ma'lum masofa (masalan, 5x5, 10x6 va hokoza)ga qoziqlar qoqilada.
5. Stratigrafik qazuv usuli arxeologik yodgorlikning yoshini aniqlashda qo'llaniladi. Ya'ni, arxeologiya majmuining shakllanish izchilligini madaniy qatlamlar asosida o'rganadi. Bu qazuv usuli arxeologik yodgorlikning belgilangan chekka qismida amalga oshiriladi.
6. Har bir yarus topilmalari alohida haltachalarga solinib, raqamlanadi.
7. Qazuv ishlari tugatilgach, planigrafik qazuv usulida amalga oshirilgan ob'ektdagi – xona devorlari, yo'laklar barchasi maxsus chizma qog'oziga tushiriladi.

8. Stratigrafik qazuv usuli natijasida, ob'ektda hosil bo'lgan madaniy qatlamlarni, undagi har bir unsumni maxsus chizma qog'oziga tushiriladi.

9. Qazuv jarayonida topilgan har bir ashyoni (sopol, tosh qurol va boshqalar) alohida yuvilib tozalanadi.

10. Topilmalar chizmasi olinib, uning qaysi davrga tegishli ekanligi aniqlanadi.

### **Topshiriqlar**

1. Arxeologik sinov (razvedka) o'tkazishdan maqsad nima?
2. Muqim (statsionar) arxeologik qazish deganda nimani tushunasiz.
3. Planigrafik qazuv usulini tushuntiring.
4. Stratigrafik qazuv usulini tushuntiring.
5. Ob'ektdagi qazuv natijalari chizmasini maxsus qog'ozga tushitish.
6. Madaniy qatlamlarning tarkibi, xususiyatiga sinchikovlik bilan sharh yozish.
7. Tadqiqotchi kundaligini yuritish tartibi.

Arxeologiya ekspeditsiya bu, moddiy madaniyat yodgorliklarini dala-tadqiqot yo'li bilan o'rganish uchun tashkil qilinadigan ekspeditsiyalardir. Ularni ilmiy tadqiqot institutlari, oliy o'quv yurtlari, muzeylar va o'lkashunoslik to'garaklari tashkil etadi. Ko'pincha, kompleks ravishda tuzilib, tarkibiga arxeologlardan tashqari etnograf, antropolog, geograf, tuproqshunos, biolog, botanik va boshqa olimlar kiritiladi. Uzoq yillar ishlashga mo'ljallanib, mustaqil ishlaydigan otryad va guruhlardan iborat qilib tuziladi. Har bir ekspeditsiyaning o'ziga xos nizomi, ilmiy kengashi, maxsus bazasi bo'ladi.

Arxeologiya fanidan dala qazuv tadqiqot ishlarini amalga oshirish uchun dastlab arxeologiyani ish uslublarini tushunib olmoq zarur. Xususan, arxeologiyani ish uslubi deganda, moddiy madaniyat yodgorliklari mavjud joyning tabiiy geografik tuzilishiga va ulardagi tarixiy-maishiy holatga qarab tadqiqot ishlarini belgilash zarur. Bunda, **birinchidan**, arxeologik axtarish (*rekognossirovka* – arxeologiya qazuv ishlari olib borish uchun joyni oldindan tekshirib bilish)dan iborat bo'lib, unda ma'lum joyda qaysi turdagi yodgorliklar: shahar xarobalari, qadimgi qabristonlar, maskanlar va boshqa yodgorliklarning borligini, ularning taxminiy davrlarini belgilab chiqiladi. **Ikkinchidan**, arxeologik sinov (razvedka)da har bir yodgorlikni sinov tariqasida qisman qazib

ko'riladi. Unda arxeologik yodgorlikda shurf tashlanadi. *Shurf* aslida nemischa so'z bo'lib, o'zbek tilida *qazyiman* degan ma'noni bildiradi. Shurf solish deganda yodgorlikdagi dastlabki qazish ishlari tushunilib, madaniy qatlanni aniqlash va yodgorliklar haqida dastlabki ma'lumotlarni olishdir. Shurf ko'pincha kvadrat va to'g'ri to'rtburchak shakllarida bo'lib, uning chuqurligi va kengligi madaniy qatlamga qarab har xil bo'lishi mumkin. Keng ko'lamlı qazish natijasida madaniy qatlam to'la ochilib, inson faoliyati izlari bo'lmagan ergacha kovlab tushiladi. Arxeologiyada u materik – bezovta qilinmagan, ya'ni, antropogen omil ta'sir qilmagan yer deb ataladi. Shurf tashlash orqali yodgorlikning bunyodga kelgan zamoni, umri, xususiyati kabi tomonlarini aniqlab olinadi. *Uchinchidan*, muqim (statsionar) arxeologik qazish turli arxeologik tekshirishning yakunlovchi bosqichi bo'lib, unda sinab ko'rilgan yodgorlik boshdan-oyoq batamom qazib tekshiriladi. Ushbu qazuv ishlari ikki xil usulda amalga oshiriladi. Bular: 1) Planigrafik; 2) Stratigrafik.

Arxeologik qazuv ishlarini amalga oshirish uchun kerakli mehnat qurollariga quyidagilar kiradi: belkurak, ketmon, tasha, shyotka, supurgi, paqir, zambil, cho'kich, kurakcha, arqon, ip, mix, qoziq, o'lchov lentasi...


Arxeologik tadqiqotlar uchun kerakli o'quv qurolariga ruchka, qora qalam, daftar, plomaster, chizg'ich, o'chirg'ich, sirkul, chizma uchun maxsus qog'ozlar (batman, kalka, va boshqalar) bundan tashqari kompas va fotoaparat bo'lishi zarur.

*Planigrafik qazuv usulini* amalga oshirishda belgilangan arxeologik yodgorlikning ustki qismida, avvalo shimol tomon kompas orqali belgilanib, unga parallel tarizda ma'lum masofa (masalan, 5x5, 10x6 va hokoza)ga qoziqlar qoqilada.

Qazuv ishlari amalga oshiriladigan hudud belgilangandan so'ng, qazish ishlari boshlanadi. Dastlab tabiiy ustki qatlam olib tashlanib, madaniy qatlamga o'tiladi. Arxeologiyada madaniy qatlam deganda, inson faoliyatining izlari saqlangan yer qatlami tushuniladi. Qalinligi bir necha smdan bir necha 10 m.gacha bo'lishi mumkin. Madaniy qatlam o'tmishimizning g'or va ungurlarda, daryo va ko'l bo'ylarida qad ko'targan makon va manzilgohlarda hosil bo'lgan madaniy qoldiqlarning jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda davrma-davr, ustma-ust joylashishini ifodalaydi. Odatda, arxeologik yodgorliklar bir yoki bir necha madaniy qatlamli bo'lib, ularning joylashishi, gorizontlarga bo'linishi, ularda uchraydigan arxeologik topilmalarning xususiyati va davriyligiga

qarab, ularning nisbiy va mutlaq yoshi aniqlanadi. Odamlar ma'lum joyda muayyan davrdagina yashasa bir madaniy qatlamli yodgorlik hosil bo'ladi. Bir joyda davom etgan uzluksiz hayot esa ko'p madaniy qatlamli yodgorliklarni vujudga keltiradi (masalan, Afrosiyob, Qanqa, Buxoro, Yerqo'rg'on va boshqalar).

Qazish jarayonida har bir yarusning (1 yarus 50 smga teng) moddiy topilmalari alohida olinib maxsus raqam bilan kodlashtiriladi. Qazuv ishlari xonalarning pol sathigacha etkazilgandan so'ng to'xtatiladi. Navbat qazuv natijalarining chizmasini olish bilan boshlanib, unda xonalar chizmasi aniq o'lchamda maxsus chizma qog'oziga tushiriladi. (1-rasm).



1-rasm

Arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan buyumlar maxsus o'rganiladi. Bu esa arxeologiya buyumshunosligi deb atalib, arxeologiyaning har bir arxeologik davrga oid buyum va jihozlarni o'rganadigan sohasi hisoblanadi. Har bir buyumning o'ziga xos kelib chiqish va taraqqiyot tarixi bor. Hozirgi kunda ishlatilib turgan buyumlar (pichoq, qozon,

piyola, kosa) ibtidoiy zamonlardan boshlab necha bosqichlarni o'tib, so'nggi holatida bizga etib kelgan. Har bir tarixiy davr va bosqichning buyumlar majmuasi arxeologiya fanida oydinlashadi. Shuning uchun har bir davrning buyum va jihozlarini o'rganishda arxeologiya buyumshunosligining ahamiyati katta.

Topilgan har bir moddiy ashyolar toza qilib yuviladi, chizmasi va fotosurati olinadi. (2-rasm).




**2-rasm**

Stratigrafik qazuv usuli arxeologik yodgorlikning yoshini aniqlashda qo'llaniladi. Stratigrafiya lotincha "stratum" so'zidan olingan bo'lib, to'shama, qatlam va grafni degan ma'noni beradi. Ya'ni, arxeologiya majmuining shakllanish izchilligini madaniy qatlamlar asosida o'rganadi. Bu qazuv usuli arxeologik yodgorlikning belgilangan chekka qismida amalga oshiriladi.(3-rasm).



**3-rasm**

Qazuv ishlari jarayonida har bir yarusning moddiy buyumlari alohida olinib, maxsus raqamlanadi, qazuv ish tugallangandan so'ng yaruslar bo'yicha madaniy qatlamlarning chizmasi olinadi. (4-rasm).



4-rasm

Arxeologiya yodgorliklari bu, arxeologik tadqiqotlarning ob'ekti bo'lib xizmat qiluvchi, yerning usti va ostida saqlanib qolgan qadimgi inshootlar va buyumlar. Arxeologiya yodgorliklari moddiy tarixiy manbalar bo'lib, ularni o'rganish bilan kishilik jamiyatining o'tmishi yoritiladi. Arxeologiya yodgorliklari kishilik tarixining yozma tarixgacha bo'lgan eng qadimgi davrini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Arxeologik davrlar bo'yicha arxeologiya yodgorliklari quyidagi turlarga bo'linadi: 1) tosh davri yodgorliklari; 2) jez davri yodgorliklari; 3) antik davr yodgorliklari; 4) qadimgi mudofaa inshootlari; 5) qadimgi suv inshootlari; 6) qadimgi mozorqo'rg'onlar; 7) qadimgi me'morlik yodgorliklari; 8) qadimgi hujjatlar; 9) o'rta asr shahar va rabotlarining xarobalari; 10) zargarlik buyumlari va qadimgi pullarning xazinasini; 11) qadim va o'rta asr pullari, turli arxeologik topilmalar.

Hududdagi arxeologik yodgorliklarning tuzilishi funksiyasi o'rganilgandan so'ng, uning arxeologiya xaritagrafiyasi tuziladi. Arxeologiya xaritagrafiyasini tuzishda: a) arxeologik madaniyatlarning joylashuvini ko'rsatish; b) arxeologik madaniyatlarning va etnik guruhlarning o'zaro aloqasi, bir-biriga ta'siri va bir joydan ikkinchi joyga kuchishini o'rganib, xaritada belgilash; v) ishlab chiqarish turlari, qishloq xo'jaligi ekinlari joylashgan va tarqalgan tumanlar, qadimgi sug'orilgan yerlar va irrigatsiya inshootlari va boshqalarni aniqlab berish; g) qadimgi savdo yo'llarini, mamlakat yoki xalqlar o'rtasidagi ijodiy aloqalarni o'rganib,

xaritaga tushirish; d) o'tmishdagi ijtimoiy hodisalarning geografik faktlar bilan aloqasini o'rganish va xaritada ko'rsatish.

Arxeologiya xaritagrafiyasi XIX asr o'rtalarida paydo bo'ldi. XX asrda esa Arxeologiya xaritagrafiyasi kengayib, qadimgi xalqlarning madaniyati, yashagan joylari to'g'risida bayon etuvchi tematik va tipologik xaritalar, boshqa arxeologik, paleoetnografik ma'lumotlarni o'z ichiga olgan xaritalar paydo bo'ldi. Arxeologiya xaritagrafiyasida arxeologiya yodgorliklarining geografik jihatdan joylanishini aniqlash va xaritaga tushirish bu ob'ektlarni muhofaza etish va tadqiq qilish imkonini beradi.

### *Mavzu yakuni*

1. Mavzu savol-javob asnosida mustahkamlanadi.
2. Rasm, jadval kabilar tahlil qilinadi.
3. Mavzuni o'zlashtirish va keyingi mavzuga tayyorgarlik korish topshiriladi.
4. Baholash: darsga qatnashgan barcha talabalar reyting asosida baholanadi.

### *Foydalaniladigan adabiyotlar*

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: “Sharq”, 1998.
2. Arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining qonuni // Xalq so'zi, 2009. 14 oktyabr.
3. Asqarov A. Buxoroning ibtidoiy tarixidan lavhalar. T., 1973.
4. Asqarov A., Jo'raqulov M. Eneolit va bronza davrida O'rta Osiyo. Samarqand, 1984.
5. Asqarov A. O'zbekiston tarixi. – T.: O'qituvchi, 1994.
6. Asqarov A. Eng qadimiy shahar. – T., 2001.
7. Sagdullayev A., Kabirov J. O'rta Osiyo arxeologiyasi. – T.: O'qituvchi, 1990.
8. Egamberdiyeva N. Arxeologiya (o'quv qo'llanma). – T., 2011.
9. Xolboyev Z., Alimov A. O'zbekistonning arxeologiya yodgorliklari. T.: Tafakkur qanoti, 2014.

**2-mavzu: QADIMGI QABRISTON VA MOZOR-  
QO'RG'ONLARNI QAZISH USULLARI (METODIKASI) VA  
MATERIALLARI USTIDA DALA SHAROITIDA ISHLASH.**

**2.1 Ta'lim berish texnologiyasi modeli**

Mashg'ulot vaqti-2 soat	<i>Talabalar soni: 12 – 15 gacha</i>
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Kirish-axborot laboratoriya - ko'rgazmali
<i>Laboratoriya</i>	1. Qadimgi mozorlar va ularning turlari. 2. Qadimgi mozorlarni qazish usullari. 3. Topilmalar ustida ishlash.
<p>Qadimgi qabrlarlarini o'rganish, qabr belgilarini qidirish, ularning tashqi va ichki tuzilishi, qabr ayvoni va laxat, skelet va uning atrofiga qo'yilgan ashyoviy dalillar. Skeletni yotish xolati va uning shaxsiy predmetlari, urug'doshlari keltirgan qabr predmetlari. Skeletni tozalash, chizmaga olish, foto suratga tushirish. Plan va razrez. Muzor-qo'rg'onlarni qazish metodikasi va ularni qazish jarayonida nivelirdan foydalanish. Qabr usti uyumi va uning stratigrafik tarkibini o'rganish. Ko'mish marosimining xilma-xilligi.</p> <p>Topilmalarni birlamchi ta'miri va qanday saqlash usullari ustida bosh qotirish va shug'ullanish. Dala chizma materiallari ustida ishlash. Dala amaliyoti ilmiy hisobotini tayyorlash. Topilmalarni turlarga ajratish va tiplarga bo'lish. Topilmalarni turlar, tiplar va podtiplari bo'yicha jadval chizmalarini tayyorlash, ularni xar tomonlama tavsiflash va xarakterli tomonlarini aniqlash, ularni boshqa ob'yekt materiallari bilan qiyosiy o'rganish, xronologik sanasini belgilash. Xullas, ilmiy izlanishlar olib borish.</p>	
<b>Pedagogik vazifalar:</b>	<b>O'quv faoliyati natijalari:</b>
1. Qadimgi mozorlar va ularning turlari. 2. Qadimgi mozorlarni qazish usullari. 3. Topilmalar ustida ishlash.	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Qadimgi mozorlar va ularning turlarini aniqlash.</li> <li>• Qadimgi mozorlarni qazish usullarini aniqlash.</li> <li>• Topilmalar ustida ishlash ko'nikmasini shakllantirish.</li> </ul>
<i>O'qitish usullari</i>	Ko'rgazmali ma'ruza, juftlikda ishlash
<i>O'qitish shakllari</i>	Frontal, jamoaviy, juftlikda ishlash.
<i>O'qitish vositalari</i>	O'quv qo'llanma, proektor, grafik organayzerlar.
<i>O'qitish sharoiti</i>	UTV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat: savol-javob shakli



## 2.2 Laboratoriyaning texnologik xaritasi

Ishlash bosqichlari, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
1-bosqich. Fan va mavzuga kirish (15 daqiqa)	<p>1.1. O'quv kursi nomini aytadi. Ekranda kursning tuzilmaviy mantiqiy izchilligi chizmasini namoyish etadi, mavzular ro'yxatini beradi va ularga qisqacha ta'rif beradi.</p> <p>1.2. Mavzu, birinchi mashqulotning maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytib beradi.</p> <p>1.3. Talabalarning bilimlarini jonlashtirish uchun savollar beradi va ushbu savollarga juftlikda javob berish shartligini ta'kidlaydi. "Juftlikda ishlash" qoidalari bilan tanishtiradi, juftliklarga bo'linishlarini taklif qiladi, yakka tartibda o'ylashni va juftlikda muhokama qilib javob berishni taklif qiladi.</p>	<p>Tinglashadi</p> <p>Tinglashadi</p> <p>Juftlikka bo'linishadi, o'ylashadi, muhokama qilishadi va savollarga javob berishadi.</p>
2-bosqich. Asosiy (55 daqiqa)	<p>2.1. Ekranga jadvalni chiqaradi va ma'ruza tinglash jarayonida uni to'ldirishni so'raydi</p> <p>2.2. Rower point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy jihatlarni tushuntirib beradi</p> <p>Dars jarayonida fokuslovchi nazorat savollar beradi; mavzuning rejasini har bir bandi bo'yicha xulosalar qiladi; jadvalga axborotlarni kiritish lozimligini eslatadi.</p>	<p>Tomosha qilishadi, yozishadi.</p> <p>Tinglashadi, yozishadi.</p> <p>Savollarga javob berishadi, jadvalni to'ldirishadi.</p>
3-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa)	<p>3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosa qiladi, ish natijalarini izchillikda izohlab beradi.</p>	<p>Savollar beradilar.</p> <p>Mustaqil ishlash uchun esse mavzusini yozib oladilar.</p>

### 2-laboratoriya mashg'uloti

**2-mavzu: Qadimgi qabriston va mozor-qo'rg'onlarni qazish usullari (metodikasi) va materiallari ustida dala sharoitida ishlash**

#### *Reja*

1. Qadimgi mozorlar va ularning turlari.
2. Qadimgi mozorlarni qazish usullari.
3. Topilmalar ustida ishlash.

**Maqsadi:** Qadimda islomga qadar O'rta Osiyo hududida yashagan o'troq va chorvador qabilalarning dafn udumlari, qabrlarning tuzilishi, qabrda yotish holatini o'rgatish.

**Jihozlar:** Mehnat qurollari – belkurak, ketmon, zambil, paqir, kurakcha, shyotka, supurgi, tasha, o'lchov tasmasi, ingichka arqon, katta mix, cho'kich, kompas. Arxeologik tadqiqotlar uchun kerakli o'quv qurollariga ruchka, qora qalam, daftar, chizg'ich, o'chirg'ich, sirkul, chizma uchun maxsus qog'ozlar (batman, kalka, plomaster va boshqalar) bundan tashqari kompas va fotoaparat bo'lishi zarur.

### **Ishni bajarish tartibi:**

1. Arxeologiya qazuv ishlari olib borish uchun joyni oldindan tekshirib bilish.

2. Muqim (statsionar) arxeologik qazish turli arxeologik tekshirishning yakunlovchi bosqichi bo'lib, unda sinab ko'rilgan yodgorlik boshdan-oyoq batamom qazib tekshiriladi.

3. Qabrda jasadning yotish holatini aniqlash.

4. Qazuv natijasida, ob'ektdagi har bir unsumni maxsus chizma qog'oziga tushiriladi.

5. Qazuv jarayonida topilgan har bir ashyoni (sopol, tosh qurol va boshqalar) alohida yuvilib tozalanadi.

6. Topilmalar chizmasi olinib, uning qaysi davrga tegishli ekanligi aniqlanadi.

7. Qabr turlarini aniqlash.

### **Topshiriqlar**

1. Mozor-qo'rg'nlar joylashgan hududni aniqlash.

2. Mozor-qo'rg'nlar chimasini olish.

3. Jasadlar yotish holatini sinchikovlik bilan yozish.

4. Qabrdan topilgan buyumlarning chizmasini olish.

5. Jasadning qaysi davrga tegishli ekanligini aniqlash.

**Mozorqo'rg'on** (arxeologiyada) – chorvador qabila sardorlarining mozori. Uzoq o'tmishda mulkiy tengsizlik va sinfiy tabaqalanish jarayoni jadal kechayotgan zamonlarda, ayniqsa, chorvador qabilalar jamoasida olamdan o'tgan badavlat urug' va qabila sardorlarining jasadini oddiy qabiladoshlaridan alohida ko'mish odat tusini olgan. An'anaga ko'ra, yog'och yoki loydan maxsus jasadxona qurilib, uning qog'oz o'r-

tasiga shohona kiyimdagi sardor jasadi solingan tobut o'rnatilgan. Tobut atrofiga va butun xona bo'ylab sardorga tegishli qurol-aslahalar, metall (oltin, kumush, jez) va sopol idishlarda marhumga ovqat qo'yilgan. Xonaning devorlariga gilam, naqsh solingan namat yoki guldor matolar osilib, xona tomi xari va xascho'plar bilan yopilgan. Sardor jasadxonasi etagiga uning xotinlaridan bir yoki bir nechasini shaxsiy boyliklari bilan birga, bayramona libosda ko'milgan. Jasadxona atrofiga, mozorqo'rg'on ostiga "narigi dunyoda" sardorga xizmat qilishi uchun uning otlaridan va xizmatkorlaridan bir nechasini o'ldirib ko'mish odat bo'lgan. So'ng, qabrlar ustiga son-sanoqsiz toshlar uyumi hosil qilinib, uning ustiga qalin tuproq tortilgan. Natijada, balandligi va diametri bir necha metrli sun'iy tepalik hosil bo'lgan. Arxeologiyada bunday sukunat maskani mozorqo'rg'on nomi bilan yuritiladi. Ana shunday mozorqo'rg'onlar chorvador qabilalar yashagan mintaqalarda jez, ilk temir va antik davrda Qora dengiz va Kaspiy dengizi atrofidagi cho'llarda (Soloxa, Kelermes), Zakavkazening tog' oldi mintaqalarida (Maykop, Trialeti), Oltoy va Janubiy Sibir erlarida (Bashadar, Poziriy, Salbik, Arjan), Orol dengizi atroflarida (Tagisken) hamda Qozog'iston cho'llarida (Dandiboy, Begozi) paydo bo'lgan. Mozorqo'rg'onlarning asosi, odatda, yarim shar, oval, kvadrat shaklida bo'lgan. Ularning diametri 3-4 metrdan to 50 metrgacha, balandligi esa 2-3 metrdan to 20 metrgacha bo'lgan. Har bir mozorqo'rg'on oila xilxonasi yoki urug' qabristoni hisoblangan. Mulkiy tabaqalanish o'sishi bilan boy va kambag'allar ko'milgan mozorqo'rg'onlar o'rtasidagi farq kuchaygan. Sharqiy Yevropa, Janubiy Sibir, Shimoliy Kavkaz, Oltoy va Qozog'iston cho'llaridagi urug' va qabila oqsoqollarining mozorqo'rg'onlari o'zlarining boyligi va kattaligi bilan ajralib turgan.


**Qabriston**, mozor – marhumlar dafn etiladigan maxsus joy. Qabriston turlari va ularni muhofaza qilish tartibi dafn marosimi, muayyan xalq, din, mazhab, ijtimoiy guruh va boshqalar, shuningdek, hokimiyat organlari tomonidan o'rnatilgan ma'muriy va sanitariya normalari bilan belgilanadi. Dafn etish joylari antik davrda va Qadimgi SHarqda nekropol deb atalgan. O'zbekistonda Qabristonga qadimdan alohida e'tibor berilgan. Qabriston uchun ko'pincha tepalik joylar tanlangan, atrofi devor yoki panjaralar bilan o'ralgan. Mashhur kishilar uchun esa maqbaralar qurilgan. O'rta Osiyoda yashovchi boshqa dinga mansub xalqlarning alohida qabristonlari bo'lgan (masalan, Buxoro yahudiylari qabristoni, eroniylar qabristoni (shialar uchun), evropaliklar qabristoni va boshqalar).

**Nekropol** (yun. nekros – o‘lik, polis – shahar) – qadimgi qabriston. Bu atama antik va ilk o‘rta asrlar davridagi qabristonlarga taalluqli. Nekropollar shakli, tuzilishi, ko‘mish odati, ijtimoiy-etnik buyumlari bilan bir-biridan ajralib turadi. Nekropollar toshdan va tuproqdan ko‘tarmali yoki ko‘tarmasiz qilib qurilgan. Ular er osti va er usti maqbaralarga ajraladi. Nekropollar katakomba, o‘ra shaklida bo‘lib, tosh, yog‘och yoki g‘isht bilann o‘ralgan. Sag‘ana, mug‘xona, ehrom va maqbaralar toshdan, pishiq yoki xom g‘ishtdan ishlangan. Nekropolga murdalar kuydirilib yoki o‘z holicha ko‘milgan. Murdani kuydirmasdan ko‘mishning turli xillari bo‘lib, murdalar qay holatda yotqizilishi qo‘shib ko‘miladigan asboblarga ko‘ra, bir-biridan ajralib turadi. Kuydirib ko‘mishda murdani kuydirgandagi kulni qabrga to‘kib yoki biron idishga solib, ba‘zan, har xil buyumlar qo‘shib ko‘milgan.

**Katakomba madaniyati** – ilk jez davriga mansub arxeologik madaniyat (mil. avv. II ming yillik – I ming yillik boshlari). Qora dengizning shimoliy sohillari, Quyi Volga bo‘yida tarqalgan. XX asr boshida rus arxeologi V.A.Gorodsov tomonidan ilmiy tavsif berilgan.


Katakomba madaniyatining so‘nggi davrlari kimmeriyalar bilan bog‘liq. Katakomba madaniyati uchun aholining urug‘doshlik munosabatlariga ko‘ra, alohida qishloqlarda yashashi va mozorqo‘rg‘onlar xosdir. Mozorqo‘rg‘onlar tagidagi katakombalarga mayitlar yon tomonga yon-boshlatib oyoqlarini bukkan holda dafn etilgan, ularning ustiga olov ramzi bo‘lgan qizil bo‘yoq sepilgan. Katakomba madaniyatiga oid sopol idishlar, tosh va jezdani yasalgan mehnat qurollari va qurol-aslaha, suyak va jez bezak buyumlari topilgan. Katakomba madaniyati qabilalari ko‘chmanchilik va dehqonchilik bilan mashg‘ul bo‘lishgan, shuningdek, mis va jez metallurgiyasidan ham xabardor bo‘lib, atrofdagi qabilalar, ayniqsa Kavkaz qabilalari va ular orqali Old Osiyo, Eron, Misr bilan savdo aloqalari olib borishgan. Katakomba madaniyati qabilalarida mat-riarxat o‘rnini patriarxat egallagan, mulkiy tabaqalanish ko‘zga tashlana boshlagan (zodagonlarning qabridagi ashyolar qimmatbaholigi bilan ajralib turadi).

Bugungi kunda tadqiqotchilar tomonidan asosan qabrlarning 3 turi qayd etilgan: 1) Lahadli-ayvonli qabr (1-rasm). 2) O‘ra qabr (2-rasm). 3) Yorma qabr (3-rasm).




Sag'anoqdagi 3-mozorqo'rg'on tarhi va kesmasi (A. A. Gritsina, 1997):  
 1 – o'choq qoldig'i; 2 va 3 – chuqurchalar; 4 – sopol idishlar; 5 – pichoq va qo'y suyaklari.

### 1-rasm. Lahadli-ayvonli qabr



Qulpsardagi 2-mozorqo'rg'on tarhi va kesmasi (kenotaf, S. R. Rahimov, 1972):  
 1 – mozorqo'rg'on tarhi; 2 – mozorqo'rg'onning qazuvgacha bo'lgan kesmasi;  
 3 – B – B yo'nalishi bo'yicha kesma.

### 2-rasm. O'ra qabr.



**3-rasm. O'ra va yorma qabr.**

### **Mavzu yakuni**

1. Mavzu savol-javob asnosida mustahkamlanadi.
2. Rasm, jadval kabilar tahlil qilinadi.
3. Mavzuni o'zlashtirish va keyingi mavzuga tayyorgarlik korish topshiriladi.
4. Baholash: darsga qatnashgan barcha talabalar reyting asosida baholanadi.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar**

1. Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. – T.: Universitet, 2007.
2. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqodi va marosimlari. – T., 2007.
3. Мандельштам А.М. Памятники кочевников кушанского времени в Северной Бактрии. – Л.: Наука, 1975.
4. Matboboyev B.X. Qadimgi Farg'onadagi dafn marosimlari // ONU, T., 1996. – №5.
5. Toshboyev F.E. Ustrushona chorvadorlarining antik davrdagi madaniyati. – T.: Tafakkur qanoti, 2014.

### 3-mavzu: QOYATOSH SURATLARINI DALA SHAROITIDA O'RGANISH, FIKSATSIYA QILISH USULI VA KALKALASHTIRISH

#### 3.1 Ta'lim berish texnologiyasi model

Mashg'ulot vaqti-2 soat	Talabalar soni: 12 –15 gacha
Mashg'ulot shakli	Kirish-axborot laboratoriya - ko'rgazmali
Laboratoriya	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Qoyatosh suratlarini o'rganish, fiksatsiya qilish.</li> <li>2. Qoyatosh suratlarini kalkalashtirish.</li> <li>3. Qoyatosh siratlari ustuda laboratoriya sharoitida ishlash</li> </ol>

Ilmiy dala amaliyoti (ekspeditsiyasi)ga tayyorgarlik ko'rish. Kompas, nivelir, bussol, kalka, chizg'ich, ruletka, qalam, ruchka, kundalik daftar, tush, mel, o'chirgich-rezinka va boshqa predmet va ehtiyot texnika qismlarini tayyorlash. Petrogliflarni o'rganish metodlari: qidirish yo'llari, material asosi, hududiy joylashishi, manzil tavsifi. Ob'ektning tabiiy topografiyasini o'rganish. Ilmiy izlanishni boshlanishi: figura, uning rangi, kompleks petrogliflarning tavsiflash metodikasi. Qoyatosh suratlarini bor joylarni har tomonlama o'rganish va kundalikka yozib borish. Qoyatosh tasvirlarini kompozitsion syujetlari, hayvon turlari, taxminiy davriy qatlamlari, ishlatish texnikasi, quyosh zagari izlari darajasini aniqlash. Qoyatosh tasvirlarini turlar, guruhlar, tiplari bo'yicha kuzatishni izchil olib borish. Ob'ekt tasvirlarini kalkaga tushirishdan avval bir necha kun, ulardagi "pustinniy zagar" darajasi, uning stratigrafiyasi, texnik asbob izlari, syujeti va stilini dala sharoitida obdan o'rganish. Ularni nisbiy sanasini aniqlash, davriy qatlamlarini aniqlashga harakat qilish. Qoyatosh suratlarini rasmga olish, ularni namoyish tasmasiga tushirish. Petrogliflarni kalkaga ko'chirish metodikasi, ularni kalkalashda davriy qatlamlar fiksatsiyasiga qat'iy amal qilish.

Qoyatosh suratlariga ibtidoiy san'at asari sifatida ilmiy yondashish. Uslubiy g'oyalar va individual yondashuvlar. Ob'ektning "tili" va uning "ko'p tillilik" xarakteri. Tasviriy variantlar, stil va mazmun elementlari, stilning o'zgaruvchanlik xususiyatini kuzatish. Stil va mazmunning o'zaro aloqadorligi, Stil va sana. Mazmuni va semantikasi. Obrazlar va belgilar. Ularni tahlili va talqini. Rasmlarning bayoni, ularning turi va ifoda etilgan manzaralar, suratlarining uslub xususiyatlari, stratigrafik davriy sanalari. Ob'ektning boshqa qoyatosh suratlarini bilan kompozitsion syujet o'xshashliklarini tadqiq qilish. Qoyatosh suratlarini diniy-kult ob'ekti, turli xil hayvon va jonivarlar oilasi, ularning xarakteri va tabiati bilan yosh avlodni tanishtirish, hayvonlarni ov qilish usullari bilan tanishtirish, xalq urfodatlarini va turli udumlarini o'tqazish sayilgohi. Qoyatosh suratlariga birinchi navbatda ibtidoiy ajdodlarimizning san'at asarlari, ularning ruxiy va ma'naviy dunyosi haqida ob'ektiv tasavvurlar beruvchi tarixiy birlamchi manba sifatida qaralib, laboratoriya tadqiqoti jarayonida izlanuvchi aynan mana shu yo'nalishlarda izlanishlar olib borishi, tegishli ilmiy izohli jadvallar, sxema va diogrammlar tuzishi

va mana shu izlanishlar davomida kelingan ilmiy uslubiy yondashuvlar, nazariy xulosalar asosida materiallar kompleksini nashrga tayyorlaydi..

Pedagogik vazifalar:	O'quv faoliyati natijalari:
1. Qoyatosh suratlarini o'rganish, fiksatsiya qilish. 2. Qoyatosh suratlarini kalkalashtirish. 3. Qoyatosh siratlari ustuda laboratoriya sharoitida ishlash	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Qoyatosh suratlarini o'rganish, fiksatsiya qilish.</li> <li>• Qoyatosh suratlarini kalkalashtirish.</li> <li>• Qoyatosh suratlarini ustuda laboratoriya sharoitida ishlash</li> </ul>
<i>O'qitish usullari</i>	Ko'rgazmali ma'ruza, juftlikda ishlash
<i>O'qitish shakllari</i>	Frontal, jamoaviy, juftlikda ishlash.
<i>O'qitish vositalari</i>	O'quv qo'llanma, proektor, grafik organayzerlar.
<i>O'qitish sharoiti</i>	UTV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat: savol-javob shakli

### 3.2 Laboratoriyaning texnologik xaritasi

Ishlash bosqichlari, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
1-bosqich. Fan va mavzuga kirish (15 daqiqa)	<p>1.1. O'quv kursi nomini aytadi. Ekranda kursning tuzilmaviy mantiqiy izchilligi chizmasini namoyish etadi (1-ilova), mavzular ro'y-xatini beradi va ularga qisqacha ta'rif beradi.</p> <p>1.2. Mavzu, birinchi mashqulotning maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytib beradi.</p> <p>1.3. Talabalarning bilimlarini jonlashtirish uchun savollar beradi va ushbu savollarga juftlikda javob berish shartligini ta'kidlaydi. "Juftlikda ishlash" qoidalari bilan tanishtiradi, juftliklarga bo'linishlarini taklif qiladi, yakka tartibda o'ylashni va juftlikda muhokama qilib javob berishni taklif qiladi.</p>	<p>Tinglashadi</p> <p>Tinglashadi</p> <p>Juftlikka bo'linishadi, o'ylashadi, muhokama qilishadi va savollarga javob berishadi.</p>
2-bosqich. Asosiy (55 daqiqa)	<p>2.1. Ekranga jadvalni chiqaradi va ma'ruza tinglash jarayonida uni to'ldirishni so'raydi</p> <p>2.2. Rower point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy jihatlarni tushuntirib beradi</p> <p>Dars jarayonida fokuslovchi nazorat savollar beradi; mavzuning rejasini har bir bandi</p>	<p>Tomosha qilishadi, yozishadi.</p> <p>Tinglashadi, yozishadi.</p> <p>Savollarga javob berishadi, jadvalni to'ldirishadi.</p>



	bo'yicha xulosalar qiladi; jalvalga axborotlarni kiritish lozimligini eslatadi.	
3-bosqich. Yakuniy (10 daqiqqa)	3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosa qiladi, ish natijalarini izchillikda izohlab beradi.	Savollar beradilar. Mustaqil ishlash uchun esse mavzusini yozib oladilar.

### 3-laboratoriya mashg'uloti

#### 3-mavzu: QOYATOSH SURATLARINI DALA SHAROITIDA O'RGANISH, FIKSATSIYA QILISH USULI VA KALKALASHTIRISH

##### *Reja*

1. Qoyatosh suratlarini o'rganish, fiksatsiya qilish.
2. Qoyatosh suratlarini kalkalashtirish.
3. Qoyatosh siratlari ustuda laboratoriya sharoitida ishlash.

**Maqsadi:** Ajdodlarimiz tomonidan o'z dunyo qarashlarini qoya toshlarga tushurish sabablari, qoyatosh rasmlarini chizish usullarini talabalarga o'rgatish.

**Jihozlar:** Arxeologik tadqiqotlar uchun kerakli o'quv qurolariga ruchka, qora qalam, daftar, plomaster, chizg'ich, o'chirg'ich, sirkul, chizma uchun maxsus qog'ozlar (batman, kalka, va boshqalar) bundan tashqari kompas va fotoaparat bo'lishi zarur, JPS.

##### **Ishning bajarish tartibi:**

1. Qoyatosh suratlarini aks etgan ob'ektlarni qidirib topish.
2. Qoyatoshdagi suratlarini o'rganish va fiksatsiya qilish.
3. Texnik jihatdan o'rganish.
4. Qoyatosh suratlarini kalkalashtirish.
5. Atrofdagi ob'ektlar bilan kompleks o'rganish.

##### *Topshiriqlar*

1. Qoyatosh suratlarini fiksatsiya qilish.
2. Qoyatosh suratlarini texnik jihatdan o'rganish.
3. Qoyatosh suratlarini kalkalashtirish deganda nimani tushunasiz.
4. Qoyatosh suratlarini sharhlab, har bir unisurni alohida qayd etish.

5. Qoyatosh suratlarining joylashgan o'rnini xaritalashtirish.
6. Qoyatosh suratlaridan nusxa olish tartibi.

Qoyatosh rasmlari – g'orlar (devor va shiplari), qoyatoshlar va alohida toshlarga ishlangan qadimgi tasvirlar. Rasmlar ishlanish xususiyatlariga ko'ra ikki guruhga bo'linadi: tosh, temir, po'lat yoki boshqa qattiq buyum bilan urib cho'kichlash, chizish, tirnash, ishqalash yo'li bilan yaratilgan rasmlar (1-rasm) (ular fanda petrogliflar deb ataladi) hamda tabiiy bo'yoq – oxra va boshqa bo'yoqlar bilan chizib ishlangan oq, qora, sariq, ko'k, qizil, jigarrang rasmlar (2-rasm). Rangli rasmlarning ishlanish usuli u qadar murakkab emas; lekin petrogliflarning ishlanishi ancha murakkab. Qoyatosh rasmlari ishlanish uslubiga ko'ra xilma-xildir: soya, oddiy chiziqlar, tarhli, naqshdor bezakli va boshqa uslub xususiyatlariga ega. Qoyatosh rasmlari dunyoning barcha joylarida ma'lum bo'lib, paleolitdan to o'rta asrlargacha bo'lgan davrda yaratilgan. Afrika (Sahroi Kabir va janubiy tog'larda), Amerika (Alyaska, And va boshqa tog'lar), Yevropa va Avstraliyaning tog'liq hududlarida ko'p uchraydi; Rossiya (Amur, Lena, Enisey, Ob, Irtish, Baykal ko'li sohillari), Qozog'iston, O'rta Osiyo (Qoratog', Bo'kantog', Tomditog', Tyanshan, Pomir, Nurota va boshqa)dan topilgan petroglif qoyatosh rasmlari diqqatga sazovor.



1-rasm

Fransiya, Ispaniya, Italiya, Hindiston, Rossiya (Lena, Amur, Baykal ko'li sohillari, Ural, Dog'iston), O'zbekiston (masalan: *Zarautsoy rasmlari*, *Sangijumon*, *Oqsoqolotasoy rasmlari*)da rangli qoyatosh rasmlari topib o'rganilgan. Qoyatosh rasmlari avvalo san'at obidasi sifatida san'at tarixini o'rganishda, arxeologik va tarixiy manba sifatida ibtidoiy va qadimgi qabilalarning ijtimoiy hayoti va ruhiy olamini o'rganishda katta ahamiyatga ega.



2-rasm

Qoyatosh suratlarini kalkalashtirish deganda, toshdagi rasmni aniq o'lchamlari va ko'rinishida qog'ozga tushirish tushiniladi. Kalka (frans. caïque – nusxa, taqlid) – chizmachilikda ishlatiladigan shaffof qog'oz yoki mato. Kalandrlanadigan (maxsus valli presslarda zichlangan, tekislangan va yaltiratilgan) va oddiy (kalandrlanmagan) xillari bo'ladi. Kalandrlangan va maxsus modda shimdirilgan kalka chizmachilik (vatman) qog'oziga qalamda chizilgan chizmadan tush va yorug'lik yordamida ko'plab nusxa ko'chirish uchun, oddiy kalka (shaffof qog'oz) qalamda nusxa ko'chirish uchun ishlatiladi.

Bunda qoyatoshda aks ettirilgan surat ustiga kalka qog'ozini keng yoyilib, qog'oz joyidan siljimaganda turishi zarur. Aks holda surat qog'ozga aniq o'lchamlari bilan aks ettirilmaydi. Shundan so'ng, kalka qog'ozini ustidan qalam yoki tush yordamida chizilgan qoyadagi suratni qog'ozga tushiriladi. (3-rasm).



3-rasm

**Qoyatosh rasmlarining ishlanish texnikasi:** Qoyatosh rasmlarining ishlanish texnikasini o'rganish muhim ilmiy ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki, rasmlarning ishlanish texnikasini o'rganmay turib, ularning uslub xususiyatlari va xronologik chegarasi haqida so'z yuritish mushkuldir.

Qoyatosh rasmlari yodgorliklaridagi tasvirlar o'zlarining ishlanish xususiyatlariga ko'ra ikki guruhga bo'linadi.

1. Tosh, jez, temir, po'lat, yoki boshqa xildagi qattiq buyumlar yordamida o'yish, urib-cho'kichlash, chizish, tirnash va ishqalash vositasi natijasida ishlangan rasmlar. Bunday uslubda ishlangan rasmlar arxeologlar tilida petrogliflar ya'ni toshlarga ishlangan rasmlar deb ataladi.

Petrogliflar respublikamiz hududida joylashgan deyarli barcha tog' tizmalari qoyatoshlarida uchraydi. Bunday tizmalarga Qorjontog', Chotqol, Pskom, Ugom, Qotrontog', Morguzar, Nurota, Oqtog', Qoratog',

Ko'hitangtog', Zirabuloq, Bukantog' va boshqa shu kabi tog' tizmalarini kiritish mumkin.

\* 2. Tabiiy bo'yoq – qizil yoki qo'ng'ir oxra-bo'yoq bilan chizilgan rangli tasvirlar. Buyoq bilan ishlangan rasmlar Nurota tizmasi tog'lari-dagi Sangijumansoy, Oqsoqolotasoy, Beklarsoy va Olmalisoy yodgorliklarida uchraydi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, rangli rasmlarning ishlanish texnikasi u qadar murakkab emas. Ular parranda patlari, oddiy cho'p, qamish parchasi va boshqa narsalar yordamida chizilgan bo'lishi mumkin. Ammo, qoyatoshlarga urib-cho'kichlab tushirilgan rasmlarning ishlanish texnikasi ancha murakkabdir. Petrogliflar o'yish, urib-cho'kichlash, chizish, ishqalash va tirnash texnikalari asosida bajarilgan.

Qoyatosh rasmlarining ishlanish texnikasini amaliy jihatdan o'rganish qadimiy tasvirlarning chizilgan davrini aniqlashda muhim ahamiyatga egadir. Shunday dastlabki amaliy tajriba 1972 yil arxeologlar T.Mirsaatov va J.Kabirovlar tomonidan Sarmishsoy qoyatosh yodgorligining Yiqilgan daryo qismida amalga oshirilgan. Tajriba uchun uchlari uchburchak, to'rtburchak shaklda o'tkirlangan temir, po'lat tayoq (posrednik), oddiy bolg'a, daryo toshi va chaqmoqtosh bo'lagi hamda bo'r kabi anjomlardan foydalanib, 20 tadan ortiq rasmlar ishlagan. Ular asosan qoyatoshlarda ko'proq uchraydigan hayvon tasvirlaridan buqa, ot, tog' echkilarining, bug'u, it rasmini chizib ko'rishgan. Olimlarning bu amaliy tajribani o'tkazishdan maqsadi, tosh qurolida, temir va po'lat anjomda ishlangan tasvirlardagi farqni hamda, bu rasmlarni ishlashda qadimgi rassom tomonidan sarflangan nisbiy vaqtni aniqlash. Bu amaliy tajribalar samarasi o'laroq, qadimgi rasmlarning aksariyati tosh, jez, temir va hatto po'lat qurollar bilan ishlanganligi aniqlangan. Eramizdan avvalgi 1 ming yillikga oid rasmlardagi izlar ayniqsa mayda bo'lib, bunday izlarni po'latdan yasalgan asboblari qoldirishi mumkin. Shunday ekan, Sarmishsoyning 1 ming yillik rasmlari asosan po'lat qurollar yordamida ishlangan bo'lishi mumkin degan mulohazani yuritgan.

**Uslub xususiyatlari:** Soha mutaxassislarining tadqiqot ishlarida rasmlarning uslub xususiyatlari qoyatosh san'ati yodgorliklarining davrini aniqlashda ma'lum darajada ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlab o'tiladi.

Masalan, Nurota tog' tizmasi yangi qoyatosh rasmlari ustida olib borgan ilmiy izlanishlar natijalari, ularning uslub jihatidan quyidagi turkumlarga bo'linishini ko'rsatadi.

**1. Sxematik tarzda ishlangan tasvirlar** o'zining oddiyligi, sxematik shaklda ishlanganligi bilan boshqa uslub rasmlaridan ajralib turadi. Ilk o'rta asrlar va keyingi davrlarga oid bo'lgan odam, suvoriy, tog' echkisi, it, ot, o'q-yoy kabi tasvirlar shu uslubda ishlangan. Xuddi shunday uslub bilan ishlangan rasmlar Respublikamiz hududidagi barcha qoyatosh rasmlari yodgorliklarida, shuningdek, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikistonda ham uchraydi. Ularning aksariyati eramizning birinchi ming yilligiga oid bo'lgan tasvirlardir.

**2. Soya uslubida ishlangan rasmlar** asosan odam, hayvon va boshqa tasvirlarni ishlashda qo'llanilgan. Bu uslubda tasvirlangan odam yoki hayvon tanasining butun qismi to'liq urib-cho'kichlanadi. Bunday rasmlar Nurota tog' tizmasi va mamlakatimizdagi boshqa yodgorliklarida, shuningdek, qo'shni respublika hududi qoyatoshlarida keng tarqalgan. Ular asosan yodgorliklardagi qadimiy tasvirlar chizilish uslubida keng tarqalgan.

**3. Kontur shaklidagi rasmlar** o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa uslubda ishlangan tasvirlardan farq qiladi. Kontur uslubida faqatgina hayvon tasvirlari ishlanganligini kuzatish mumkin. Bu uslubda chizilgan hayvonlarning bosh qismi, quloq va oyoqlari soya tarzida urib-cho'kichlanib, butun tanasi gir aylana chizib chiqiladi. Nurota tog' tizmasi qoyatoshlarida bu uslubda ishlangan rasmlar ham ko'p uchraydi.

**4. Kontur-soya tarzda ishlangan rasmlar** yarmi kontur, yarmi soya uslubida ishlangan tasvirlardir. Bu uslubda tasvirlangan rasmlar Sarmishsoy, Qoraqiyasoy yodgorliklarida ko'proq uchraydi. Ular ibtidoiy buqa, ibtidoiy sigir, yirik shoxli qoramollar hamda romb shaklidagi belgilardir.

**5. Naqshdor-bezakli uslub** Nurota tog'lari qoyatosh rasmlari orasida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu uslubda yirik yirtqich hayvonlar, ibtidoiy buqa, yirik shoxli xonaki qoramollar, bug'i, romb va boshqa tasvirlar ishlangan. Naqshdor-bezakli uslubda avvalo, rasmlarning tashqi konturi ishlanib, kontur ichiga esa ko'ndalang va tik chiziqlar parallel, kesishgan holda o'tkaziladi. Ba'zan, hayvon tasvirlari tanasi tik, ko'ndalang o'tkazilgan chiziqlar, yumaloq va tuxumsimon shakldagi belgilar bilan bezatilgan. Ayrim yirtqich hayvonlar tasvirlarida ishlov berilmagan kichik shakldagi yumaloq va tuxumsimon belgilar qoldirilib ketilgan. Bular ifodalanayotgan hayvonning olachiporligini yoki targ'illigini bildirgan bo'lishi mumkin. Ayniqsa, Qoraqiyasoy yodgorligidagi romb tasvirlari naqshdor-bezakli uslubda juda nafis ishlangan.

Bunday uslubda ishlangan rasmlar Suratlisoy, Tamg'ali daralarida ham uchraydi.

**Qoyatosh rasmlarining davrlarga bo'linishi:** bu ajoyib san'at yodgorliklarni tadqiq etgan soha mutaxassislarining eng muhim vazifalaridan biri, qoyatosh rasmlarining ishlangan davrini aniqlashdan iboratdir. Qoyatosh tasvirlarining tarixiy davri aniqlanishi tufayli, bu qimmatli arxeologik yodgorliklar, qadimgi ajdodlarimiz o'tmishi tarixini o'rganishda muhim va ishonarli manba bo'lib qolishi mumkin. Ammo, ularning xranologik yoshini aniqlash juda mushkul vazifa bo'lib, arxeolog olimlardan A.N.Okladnikov, J.Kabirovlar ta'kidlab o'tganidek, qoyatosh rasmlarining yoshini aniqlash, tosh va jez qurollarning yoshini aniqlashdan ko'ra murakkabroqdir.

Nurota tog' tizmasi hududi yangi qoyatosh san'ati yodgorliklari rasmlari turi, mazmun-mohiyati, ishlanish texnikasi, uslubi, saqlanish darajasi, hajmining katta-kichikligi kabi jihatlari bilan bir-biridan tubdan farq qiladi. Bu farqlar albatta, yuqorida ta'kidlanganidek ularning turli tarixiy davrlarda ishlanganligidan dalolat beradi. Bu rasmlar ustidan ikkinchi rasmning ishlanishi ham ularning boshqa-boshqa davrlarga oidligini ko'rsatadi. Bu yangi qoyatosh rasmlari ustida olib borgan ilmiy izlanishlar natijasida to'rtta tarixiy davrga ajratdik.

**1. Bronza davri qoyatosh rasmlari.** Bu davr rasmlari orasida odam, ibtidoiy buqa, kiyik, qulon, jayron, tog' echkisi, mushuksimonlar oilasiga mansub yirtqichlar (qoplon, leopard, gepard), it, bo'ri va boshqa shu kabi hayvon tasvirlari uchraydi. Bundan tashqari qoyalarda geometrik romb shaklidagi belgilar, sodda va murakkab yoy tasvirlari mavjuddir. Bu davrga mansub bo'lgan rasmlarning sirti quyosh nuri, shamol, yog'ingarchilik va xilma xil tabiat hodisalari natijasida toshning tabiiy sirti kabi qorayib, kuyib uniqib ketgan, nuragan, emirilib darz ketgan va birmuncha silliqlashgan. J.Kabirov Sarmishsoy qoyatosh rasmlarining tadqiqoti jarayonida, rasmlaridagi bunday tabiiy o'zgarishlar ularning qadimiyligidan dalolat berishini aytib o'tgan.

Bronza davri tasvirlarining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri naqshdor-bezakli uslub bo'lib, bu keyingi davrga oid tasvirlar ishlanish uslublarida kuzatilmaydi.

Nurota tog' tizmasi qoyatosh rasmlarining qadimiy qatlami keyingi davrlar tasvirlaridan o'zining mazmuni jihatidan juda boyligi bilan ham ajralib turadi. Qoyatoshlarda ibtidoiy davrning iqtisodiy hayoti bilan bog'liq ba'zi hodisalar, jonli manzaralar ko'plab uchraydi. Bular orasida

alohida-alohida tasvirlangan mushuksimonlar oilasiga mansub yirtqichlar, odamlar hamda ibtidoiy buqa, tog' echkisi, yirtqich hayvonlarning ov qilinish sahnalari ifoda etilgan manzaralar ayniqsa diqqatga sazovordir.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ibtidoiy buqa, gepard, leopardlarning rasmlari va ularni ov qilish ifoda etilgan manzara tasvirlari faqatgina Nurota tog' tizmasi qoyatoshlarida emas balki respublikamizning Bukantog', Suratlisoy, Qozog'istondagi Arpauzen, Qo'ybaqar va yana boshqa qoyatosh yodgorliklarida ham uchraydi. Mutaxassislarning fikricha, mazkur joylardagi qoyatosh rasmlarining aksariyati mil.avv. 4-2 ming yilliklarda ishlangan.

Nurota tog' tizmasi va yuqorida nomlari zikr etilgan joylardan topilgan ibtidoiy buqa, bizon, gepard, leopard, tog' echkisi va ularni ov qilish sahnalari ifoda etilgan rasmlar chizilish uslublari jihatidan bir-biriga yaqin, ayrimlari esa aynan o'xshashdir. Rasmlar orasidagi bunday o'xshashlik tasodifiy hodisa bo'lmay, ularning bir davrda ishlanganligidan dalolat beradi. Shunday ekan, Nurota tog' tizmasidagi bu hayvon tasvirlari ham mil.avv. 3-2 ming yilliklarda ishlangan bo'lishi mumkin.

Nurota tog' tizmasi yangi qoyatosh rasmlari yodgorliklarining qadimiy qatlamiga mansub tasvirlarning xronologik sanasini aniqlashda bazi arxeologik materiallar ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu o'rinda Markaziy Osiyoning janubi va Yaqin Sharqdagi mil. avv. 3-2 ming yilliklarga oid yodgorliklarning madaniy qatlamlaridan topilgan sopol va marmar toshdan ishlangan hayvon haykalchalari va sopol idishlari sirtiga nozik qilib ishlangan rasmlari ham ayniqsa diqqatga sazovor.

Xususan, Janubiy Turkmaniston va Yaqin Sharqning ilk dehqonchilik bilan shug'ullangan qadimgi qabilalari qoldirgan rangli sopol idishlarning ichki va tashqi devorlari qoplon, bars, gepard, leopard kabi hayvon tasvirlari bilan bezatilgan. Tanasi tangasimon xollar bilan bezatilgan bars, qoplonlarning rasmlari Qoratepa yodgorligining rangli sopol idishlarida ham mavjud.

Nurota tog' tizmasi qoyatosh rasmlari orasida bronza davriga oid romb shaklidagi belgilar ham mavjud. Bu romb shaklidagi belgilarni boshqa rasmlar bilan birgalikda yoki va yakka holda chizilganligini kuzatish mumkin. Romb shaklidagi belgilar nafis naqshli, soya-kontur uslublari urib, cho'kichlab chizilgan. Ularning usti juda qorayib ketgan va lishayniklar bilan qoplangan. Xuddi shunga o'xshash uslubda



chizilgan romb shaklidagi tasvirlar bu erdan uncha uzoq bulmagan Yonboshsoy qoyatosh yodgorligi rasmlari orasida ham ko'plab uchraydi. Bu tasvirlar mil. avv. 2 ming yillik va 1 ming yillik boshlariga oid bo'lishi mumkinligi aytib o'tilgan.

**2. Ilk temir (sak-skif) davri qoyatosh rasmlari.** Sak-skif davri rasmlari o'zining nafisligi va haqqoniyligi bilan boshqa davr tasvirilaridan ajralib turadi. Bu rasmlar, Nurota tog' tizmasi qoyatosh yodgorliklarining qadimgi ya'ni, mil.avv. 3-2 ming yilliklarda ishlangan tasvirilaridan farq qiladi. Avvalo bu farqlar rasmlarning turi, ishlanish texnikasi, uslubi va qoyalarda ifoda etilgan xilma-xil manzaralarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu davrga mansub bo'lgan tasvirlarning asosini odam, ot, tuya, bug'i, tog' echkisi, arxar, jayron, sayg'oq, to'ng'iz, bo'ri, tulki, it singari hayvonlar tashkil etadi. Undan tashqari, qopqon, murakkab va sodda o'q-yoylar, o'qdon va boshqa bir qancha tushunarsiz belgi tasvirlari uchraydi.

Sak-skif davri rasmlari qadimgi davrga oid tasvirlarga nisbatan kichik ko'rinishda ishlangan. Qadimgi tasvirlarda naqshdor-bezakli, soya va kontur uslublari ko'pchilikni tashkil qilsa, sak-skif davri rasmlari ishlanishida esa soya tarzidagi uslub ustunlik qiladi.

Sak-skif davri rasmlarining ishlangan vaqtini aniqlash bilan birga ularning ishlanish texnikasini o'rganish ham ko'plab ma'lumotlarni berishi mumkin. Kuzatish va amaliy tajriba ishlari shuni ko'rsatadiki, bu davr rasmlari qandaydir qattiq qurol yordamida urib-cho'kichlash, kesish, tirnash texnikalari vositasida ishlangan. Tosh sirtida qoldirilgan asbob izlari nuqtasimon, cho'zinchoq, uchburchak va noaniq shaklda bo'lib, diametri, eni, uzunligi hamda chuqurligi 0,5-1,5 millimetrdan oshmaydi. Bunday ko'rinishdagi izlar rasmlarning aksariyati temir va po'lat asboblar yordamida ishlanganligidan dalolat beradi. Chunki, rasmlar va ularning mayda qismlari ham o'ta noziklik bilan ishlangan. Binobarin, bunday rasmlarni, asosan jez, temir va po'latdan yasalgan asboblar yordami bilan ishlash mumkin.

**3. Ilk o'rta asrlar davri qoyatosh rasmlari.** Bizga ma'lumki, bu davr Vatanimiz tarixida Turk hoqonligi va arablar hukmronlik qilgan vaqt hisoblanadi. Ilk o'rta asr tasvirlari asosan odam, tog' echkisi, bir va ikki o'rkachli tuyalar, mol haydab ketayotgan podachilar, tuya karvonlari, suvoriylar va boshqa tasvirlar uchraydi. Ular o'zining ishlanish uslubi jihatidan ham avvalgi rasmlardan farq qiladi. Agar qadimiy tasvirlarning aksariyati soya, kontur, naqshdor-bezakli uslubda ishlangan

bo'lsa, bu davr rasmlarining ko'pchiligi oddiy sxematik uslubda qo'pol o'yib, urib-cho'kichlangan. Bular boshqa davr tasvirlaridan o'zining saqlanish, emirilish darajasi bilan ham farqlanadi. Ilk o'rta asr rasmlari ularga nisbatan yorqin bo'lib, qo'ng'ir va och qo'ng'ir tusda tovlanadi.

Ba'zi qoyatoshlarda ular ilk temir davri tasvirlari ustidan ishlanib yuborilgan, natijada qoyalarda ikki qatlamli tasvirlar vujudga kelganligini kuzatish mumkin. Qadimgi rasmlar ustidan keyingi davr rasmlarining kesib o'tishi biz uchun katta amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Nurota tog' tizmasi yangi qoyatosh rasmlari yodgorliklaridagi kabi oddiy sxematik tarzda ishlangan tog' echkilarining tasvirlari, Zarafshon dayosining yuqori oqimida, Toshkent vohasining Ko'ksuv, Chotqol, Terakli, Boshqizilsoy, Jartosh, O'raylik, Tutlisoy va Tersaxon daralarida uchraydi. Bu rasmlar milodiy 1 ming yillikka oidligi e'tirof etilgan.

Nurota tog' tizmasining ilk o'rta asr davri qoyatosh rasmlariga o'xshash tasvirlar Markaziy Osiyo, Qozog'iston va janubiy Sibirdagi ba'zi yodgorliklarda ham.

**4. Keyingi davrlar qoyatosh rasmlari.** Yurtimizda arablar istilosidan so'ng islom dinining keng yoyilishi natijasida qoyalarga rasm ishlash ancha sustlashib ketgan. Chunki, islom dinida rasm solish shakkoklik ya'ni gunoh hisoblangan. Bu bilan qoyalarga rasm solish butunlay yo'qolib ketmagan. Ammo, ularning mazmuni va mohiyatiga putur etadi. Odamlar endi qoyalarga rasm ishlashda biror-bir maqsadni ko'zlab emas balki, ermak sifatida qaray boshlagan. Keyingi davr tasvirlari asosan kelib ketuvchi odamlar, mahalliy xalq yoki cho'ponlar tomanidan qoyatoshlarda o'zlari ko'rgan rasmlarni qayta chizgan tasvirlardan hamda kirill harflarida bitilgan ismlardan iboratdir.

### *Mavzu yakuni*

1. Mavzu savol-javob asnosida mustahkamlanadi.
2. Rasm, jadval kabilar tahlil qilinadi.
3. Mavzuni o'zlashtirish va keyingi mavzuga tayyorgarlik ko'rish topshiriladi.
4. Baholash: darsga qatnashgan barcha talabalar reyting asosida baholanadi.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar**

1. Kabirov J. Sarmishsoyning qoyatoshlaridagi rasmlar. Toshkent, 1976.

2. Kabirov J. Ibtidoiy davr behzodlari // Fan va turmush, 1-son, 1970.
3. Окладников А.П. Петроглифы Ангары. М.- Л., 1966.
4. Хо'janazarov M. Nurota tog'lari qoyatoshlaridan topilgan yangi tasviriy san'at yodgorliklari // O'zbekiston – qadimda va o'rta asrlarda. Samarqand, 1992.
5. Xujanazarov M., Razvadovskiy A. Petroglif guruhining 2002 yilda olib borilgan dala ishlari // Археологические исследования в Узбекистане 2002 год. Выпуск-3. Ташкент, 2003.
6. Xolmatov.A.N. Noqisoy yangi qoyatosh rasmlari // O'zbekiston arxeologiyasi. Samarqand, 2010.
7. Xolmatov A.N. Chorbog'soyning qoyatosh suratlari haqida dastlabki mulohazalar // O'zbekiston tarixining dolzarb muammolari yosh tadqiqotchilar talqinida. Samarqand, 2012. – B. 88-92.

#### **4-mavzu: ARXEOLOGIYA TOPILMALARINI LABORATORIYA USULIDA ILMIY TADQIQ ETISH.**

##### **4.1 Ta'lim berish texnologiyasi model**

Mashg'ulot vaqti-2 soat	<i>Talabalar soni: 12 – 15 gacha</i>
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Kirish-axborot laboratoriya - ko'rgazmali
<i>Laboratoriya</i>	1. Topilmalarni tegishli tartibda bazaga yetkazish. 2. Topilmalar ustida ilmiy ish olib borish.
<p>Topilmalarni birlamchi ta'miri va qanday saqlash usullari ustida bosh qotirish va shug'ullanish. Dala chizma materiallari ustida ishlash. Dala amaliyoti ilmiy hisobotini tayyorlash. Topilmalarni turlarga ajratish va tiplarga bo'lish. Topilmalarni turlar, tiplar va podtiplari bo'yicha jadval chizmalarini tayyorlash, ularni har tomonlama tavsiflash va xarakterli tomonlarini aniqlash, ularni boshqa ob'ekt materiallari bilan qiyosiy o'rganish, xronologik sanasini belgilash. Xullas, olib borilgan dastlabki ilmiy izlanishlar asosida ilmiy hisobot va tegishli ilmiy maqolalar tayyorlash...</p>	
<b>Pedagogik vazifalar:</b>	<b>O'quv faoliyati natijalari:</b>
1. Topilmalarni tegishli tartibda bazaga yetkazish. 2. Topilmalar ustida ilmiy ish olib borish.	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Topilmalarni tegishli tartibda bazaga yetkazish.</li> <li>• Topilmalar ustida ilmiy ish olib borish.</li> </ul>
<i>O'qitish usullari</i>	Ko'rgazmali ma'ruza, juftlikda ishlash
<i>O'qitish shakllari</i>	Frontal, jamoaviy, juftlikda ishlash.

O'qitish vositalari	O'quv qo'llanma, proektor, grafik organayzerlar.
O'qitish sharoiti	UTV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat: savol-javob shakli

#### 4.2 Laboratoriyaning texnologik xaritasi

Ishlash bosqichlari, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
1-bosqich. Fan va mavzuga kirish (15 daqiqa)	<p>1.1. O'quv kursi nomini aytadi. Ekranda kursning tuzilmaviy mantiqiy izchilligi chizmasini namoyish etadi (1-ilova), mavzular ro'y-xatini beradi va ularga qisqacha ta'rif beradi.</p> <p>1.2. Mavzu, birinchi mashqulotning maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytib beradi.</p> <p>1.3. Talabalarning bilimlarini jonlashtirish uchun savollar beradi va ushbu savollarga juftlikda javob berish shartligini ta'kidlaydi. "Juftlikda ishlash" qoidalari bilan tanishtiradi, juftliklarga bo'linishlarini taklif qiladi, yakka tartibda o'ylashni va juftlikda muhokama qilib javob berishni taklif qiladi.</p>	<p>Tinglashadi</p> <p>Tinglashadi</p> <p>Juftlikka bo'linishadi, o'ylashadi, muhokama qilishadi va savollarga javob berishadi.</p>
2-bosqich. Asosiy (55 daqiqa)	<p>2.1. Ekranga jadvalni chiqaradi va ma'ruza tinglash jarayonida uni to'ldirishni so'raydi</p> <p>2.2. Power point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy jihatlarni tushuntirib beradi</p> <p>Dars jarayonida fokuslovchi nazorat savollar beradi; mavzuning rejasini har bir bandi bo'yicha xulosalar qiladi; jadvalga axborotlarni kiritish lozimligini eslatadi.</p>	<p>Tomosha qilishadi, yozishadi.</p> <p>Tinglashadi, yozishadi.</p> <p>Savollarga javob berishadi, jadvalni to'ldirishadi.</p>
3-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa)	<p>3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosa qiladi, ish natijalarini izchillikda izohlab beradi.</p>	<p>Savollar beradilar. Mustaqil ishlash uchun esse mavzusini yozib oladilar.</p>

#### **4-laboratoriya mashg'uloti**

#### **4-mavzu: Arxeologiya topilmalarini laboratoriya usulida ilmiy tadqiq etish.**

##### ***Reja***

1. Topilmalarni tegishli tartibda bazaga yetkazish.
2. Topilmalar ustida ilmiy ish olib borish.

**Maqsadi:** Arxeologik moddiy topilmalarning funksiyasini, davriy sanasini va rivojlanish bosqichlarini o'rganish.

**Jihozlar:** shyotka, o'lchov tasmasi, ruchka, qora qalam, daftar, plo-master, chizg'ich, o'chirg'ich, sirkul, chizma uchun maxsus qog'ozlar (batman, kalka, va boshqalar) bundan tashqari fotoaparat bo'lishi zarur.

##### **Ishning bajarilish tartibi.**


1. Topilmalarni ehtiyotkorlik bilan transport vositasiga joylashtirib, bazaga etkazish.
2. Yuvilishi shart bo'lgan topilmalarni yuvib tozalash.
3. Tozalangan har bir topilmaning chizmasini maxsus qog'ozga tushirish.
4. Topilmalarni fotosuratga olish.
5. Har bir topilmaga diqqat bilan ta'rif keltirib maxsus daftarga yozish.
6. Yaruslar bo'yicha olingan topilmalarning davriy sanasini aniqlash orqali yodgorlikning yoshini belgilash.
7. Devoriy suratlar restovratsiyasi, topilgan idish ichidagi mineralarni aniqlash uchun maxsus soha vakillari jalb etiladi.
8. Barcha ilmiy dalillar yig'ilib yodgorlikning qurilish sanasi, aholisining turmush-tarzi, xo'jaligi, madaniy hayoti va boshqa soha hamda jihatlarigi oydinlik kiritiladi.

##### ***Topshiriqlar***

1. Moddiy topilmalarni bazaga etkazish tartibi.
2. Moddiy topilmalarni yuvib tozalash va raqamlash.
3. Moddiy topilmalarning chizmasini olish.
4. Moddiy topilmalarning chizmasini olishda nimalarga e'tibor beriladi?


5. Topilmalarning davriy sanasini aniqlash.
6. Moddiy topilmalarni sinchikovlik bilan o'rganib, unga tarif bering.
7. Barch ma'lumotlarni yig'ib arxeologik yodgorlik haqida ilmiy xulosa bering.

Arxeologik qazuv ishlari olib borilgan ob'ektdan topilgan moddiy ashyolarni (masalan, sopol buyumlar va ularning bo'laklari hamda boshqa topilmalar) maxsus raqamlangan xaltachalarga solinib, ziyon etkazmasdan bazaga olib kelinadi. Har bir xaltachadagi sopol buyumlar alohida yuvilib tozalanadi va oftobda quritiladi. Xaltachadagi maxsus raqamlar sopolga ham tushiriladi (madaniy qatlamlarning sopollari aralashib ketmasligi uchun). Shundan so'ng loybaratoriya sharoitida sopolarning chizmasi maxsus qog'ozlarga tushirilib, ularga mutaxassis tomonidan sharh beriladi. (1-rasm).



1-rasm

Masalan, *qo'shquloq* bo'yni tor bo'lib, gardishi tashqariga qayrilgan, uchi to'ntoq. Qorin qismi o'rtacha kattalikda, gardish va qorin qismiga idishni ushlab uchun ikki barmoq sig'arli quloqcha o'rnatilgan. Gardish diametri 13 smga, devor qalinligi 0,5-0,7 smga teng (2-rasm).



2-rasm



3-rasm. Topilmalarni ilmiy tadqiq qilish

*Mavzu yakuni*

1. Mavzu savol-javob asnosida mustahkamlanadi.
2. Rasm, jadval kabilar tahlil qilinadi.

3. Mavzuni o'zlashtirish va keyingi mavzuga tayyorgarlik korish topshiriladi.

4. Baholash: darsga qatnashgan barcha talabalar reyting asosida baholanadi.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar**

1. Arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida/ O'zbekiston Respublikasining qonuni // Xalq so'zi. 2009, 14-oktyabr.

2. Аскарлов А.А. Сапаллитепа. Т., 1973.

3. Бердимуратов А.Э., Пардаев М.Х. Раскопки верхнего здания Алмайтепа // ИМКУ. Вып 23. Ташкент: Фан, 1990.

4. Jo'raqulov M.J. O'rta Osiyo ibtidoiy arxeologiyasi. T.: O'qitiuvchi, 1984.

5. Isomiddinov M. Sopolga bitilgan tarix. T.: Fan, 1992.

6. Egamberdieva N. Arxeologiya (metodik qo'llanma). – T., 2008.

7. Xolmatov N.U. O'zbekiston neolit davri jamoalari moddiy madaniyati – T.: Fan, 2008.



## TARIX O'QITISH NAZARIYASI VA METODIKASI FANI O'QUV YUKLAMASI HAJMI

Mutaxassislik	Kurs	Semestr	Um.yuk. hajmi	Ma'ruza	Seminar	Laboratoriya	Mustaqil ta'lim
Bakalavr yo'nalishlari uchun	3	5	99	22	22	14	41
Bakalavr yo'nalishlari uchun	3	6	129	28	28	18	55

### Laboratoriya ishlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar

“Tarix o‘qitish nazariyasi va metodikasi” fanidan tayyorlangan laboratoriya mashg‘ulotlari uchun yangi pedagogik texnologiyalar asosida texnologik xaritalar ishlab chiqilib, talabalarning kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini yuksaltirish nazarda tutilgan. Laboratoriya mashg‘ulotlari uchun ko‘proq turli mazmundagi kasbiy-amaliy faoliyat usullarini talabalar bilan kuzatish, tahlil qilish, qo‘llab ko‘rish, tadqiq etish, ijodiy yondashish imkonini beruvchi, talabalarning kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini yuksaltirish, egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini amaliyotda qo‘llab ko‘rish, mutaxassislik va pedagogik kasbga oid keng ko‘lamdagi ijodiy laboratoriyaga ega bo‘lish imkonini beradigan mavzular tanlanishi lozim. Xususan, “Tarix o‘qitish nazariyasi va metodikasi” fanidan laboratoriya mavzularini tanlashda talabalarda tarix ta’limi vositalarini mustaqil tasniflash, tahlil qilish, tayyorlash, tanlash va foydalanishga, umumiy ta’lim maktablari, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimida tarix fanini o‘qitishning maqsad va vazifalarini belgilash, o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, o‘quv jarayonini, uning bosqichlarini tahlil qilish, rejalashtirish, loyihalash, o‘qitish metodlarini tanlash, tarix fanini o‘qitishda zamonaviy ta’lim texnologiyalarini, axborot texnologiyalarini qo‘llash, o‘quv jarayonini tashkil etish yuzasidan bilim, ko‘nikma va malakalarini hosil qilish masalalariga katta e’tibor berilgan. DTS, o‘quv va ishchi dasturi asosida tayyorlangan laboratoriya mashg‘ulotlari uchun zamonaviy ta’lim texnologiyalari ishlab chiqilgan. Laboratoriya mashg‘ulotida talabalar ta’lim muassasalari, fan kabinetlari bilan, tarix fani o‘qituvchilarining faoliyati bilan, tarix fanining dars va darsdan tashqari shakllari bilan tanishadilar, darslarni kuzatadilar va ularni tahlil qiladilar, o‘zlari amalda avval tarix o‘qitish ishi-ning ayrim elementlarini (masalan, tarix ta’limining turli vositalarini

tayyorlash, yasash, tuzish), keyingi mashg'ulotlarda esa tarix o'qitish ishining butun bir tashkiliy shakllarini (masalan, o'lkashunoslik to'garagini, fan kabinetini jihozlashni, tarix darsini) rejalashtiradi, loyihalaydi, amaliyotda qo'llab ko'radi. Talabalar o'quv jarayonini pedagogik, psixologik, uslubiy jihatdan tahlil qilib, dars jarayonida o'quvchilarning javoblarini tinglab, baholab, o'qituvchining qo'ygan bahosi bilan qiyosiy tahlilini amalga oshiradilar.

### Mashg'ulotlar mavzulari

Nö	Mashg'ulot turi	Mavzular ro'yxati	Ma'ruza	Seminar	Laboratoriya
<b>V SEMESTR</b>					
<b>IV BOB. TARIX TA'LIMI O'QUV JIHOZLARI VA VOSITALARI TAVSIFI</b>					
	Ma'ruza	Tarix ta'limi vositalariga umumiy tavsif	2	2	
11	Laboratoriya	Tarixga oid o'quv qo'llanmalarining vazifalari va xususiyatlari			2
22	Laboratoriya	Tarix darsliklari va ularga qo'yiladigan talablar			2
33	Laboratoriya	Jadvallar va chizmalar o'quv qo'llanmalari sifatida			2
44	Laboratoriya	Grafik organayzerlar texnikasi			2
55	Laboratoriya	Tarix darslarida hujjatli tarixiy manbalar bilan ishlash			2
66	Laboratoriya	Tarix o'qitishda o'lkashunoslik materiallaridan foydalanish metodikasi			2
77	Laboratoriya	Tarix xonasini jihozlash metodikasi			2
8					14 s
<b>VI SEMESTR</b>					
<b>VII BOB. TARIX TA'LIMIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH</b>					
1	Ma'ruza	Pedagogik texnologiyaning shakllanishi va uning tuzilmasi	2	2	
2	Ma'ruza	Zamonaviy oqitish texnologiyalari	2	2	
31	Laboratoriya	Tarix o'qitishda ta'lim texnologiyalarini qo'llash			2
2	Laboratoriya	Tarix o'qitishning interfaol metodlarini qo'llash			2

53	Laboratoriya	Tarix o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish			2
		<b>VIII BOB. TARIX DARSINI LOYIHALASH</b>			
54	Laboratoriya	O'quv sikli tarkibi va tuzilmasi. Dars jarayonini tashkil etish.			2
55	Laboratoriya	Tarix darsi ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarini belgilash usullari			2
66	Laboratoriya	Mavzu matni ustida ishlash, yangi o'quv materialini mazmunini puxtalashtirish			2
77	Laboratoriya	Tarix o'qitishda ta'limning usul va vositalarini tanlash			2
88	Laboratoriya	Tarix darsi o'quv maqsadlariga erishish monitoringi			2
99	Laboratoriya	Tarix darslarini tahlil qilish			2
					18 s
		Jami:	50 soat	50 soat	32 soat

## REYTING TIZIMI

### 5-semetr uchun

**Fanning nomi: Tarix o'qitish nazariyasi va metodikasi**

Ma'ruza	22	Laboratoriya	14
Amaliy mashg'ulot	0	Mustaqil ish	41
Seminar	22	Jami soat	99

Bir para uchun m/b 2.8	O.N ball 20.0	9.0 ball
86% 2.4 – 2.8	86% 17.0 – 20.0 (18)	86% 8,0 – 9,0
71% 2.0 – 2.3	71% 14.0 – 16.0	71% 6,0 – 7,0
55% 1.6 – 1.9	55% 11.0 – 13.0	55% 4,9 – 5,0
J.N m/b 50.0	Y.N m/b 30.0	M.T m/b 10.0 ball
86% 43.0 – 50.0 (42+8 mustaqil ish)	86% 26.0-30.0	86% 9,0 – 10,0
71% 35.0 – 42.0	71% 21.0-25.0	71% 7,0 – 8,0
55% 28.0 – 34.0	55% 16.0-20.0	55% 5,0 – 6,0

### 6-semetr uchun

**Fanning nomi: Tarix o'qitish nazariyasi va metodikasi**

Ma'ruza	28	Laboratoriya	18
Amaliy mashg'ulot	0	Mustaqil ish	55
Seminar	28	Jami soat	129

Bir para uchun m/b 2.2	O.N ball 20.0	9.0 ball
86% 1.9 - 2.2	86% 17.0 - 20.0 (18)	86% 8,0 - 9,0
71% 1.6 - 1.8	71% 14.0 - 16.0	71% 6,0 - 7,0
55% 1.2 - 1.5	55% 11.0 - 13.0	55% 4,9 - 5,0
<b>J.N m/b 50.0</b>	<b>Y.N m/b 30.0</b>	<b>M.T m/b 10.0 ball</b>
86% 43.0 - 50.0 (42+8 mustaqil ish)	86% 26.0-30.0	86% 9,0 - 10,0
71% 35.0 - 42.0	71% 21.0-25.0	71% 7,0 - 8,0
55% 28.0 - 34.0	55% 16.0-20.0	55% 5,0 - 6,0

## 1-mavzu: Tarixga oid o'quv qo'llanmalarining vazifalari va xususiyatlari (2 soat)

### Reja:

1. O'quv qo'llanmalarining turlari.
2. O'quv qo'llanmalarining tarix o'qitishdagi vazifalari.
3. Tarixga oid o'quv qo'llanmalari oldiga qo'yiladigan umumiy talablar.
4. Tarix o'quv qo'llanmalarining metodik usullari.

### Mavzuning qisqacha mazmuni:

O'quv qo'llanmalari tushunchasi. O'quv qo'llanmalarining turlari: Tabiiy obyektlar; Narsalar va voqelik hodisalarini tasvirlash va gavdalantirib ko'rsatish; Narsalar va dunyo hodisalarini tabiiy va sun'iy tillar so'zlari va jummalari bilan tavsiflash; Alohida guruh sifatida ta'limning texnik vositalari. O'quv qo'llanmalariga qo'yiladigan asosiy talablar.

O'quv qo'llanmalarining tarix o'qitishdagi vazifalari. Tarixga oid o'quv qo'llanmalari oldiga qo'yiladigan umumiy talablar. O'quv fani uchun ishlab chiqilgan o'quv qo'llanmalari tizimi o'rtasidagi aloqalar. O'quv qo'llanmalari o'rtasidagi farqlar. Tarix o'quv qo'llanmalaridan foydalanishning metodik usullari. O'quv qo'llanmalari ma'lumot berish va bilimlarni tekshirib ko'rish manbai. Tarixga oid o'quv qo'llanmalarini guruhlariga bo'lish prinsiplari. Tarix o'qitishda o'quv qo'llanmalaridan foydalanishning ahamiyati.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Вяземский Е.Е., Стерилова О.Ю., Теория и методика преподавания истории: Учеб. для студ. высш. учеб. завед. – М.: Гуманист. изд. центр Владос, 2003. – 384 с.

2. Короткова М.В. методика обучения истории в схемах, таблицах, описаниях: Практик. пособие для учителей. М.: Гуманист. изд центр ВЛАДОС, 1999. – 192 с.

3. Педагогический словарь-справочник. Издание 2-е, переработанные и дополненные. /Авт. – сост: Э.А. Сейтхалилов, Б.Х.Рахимов, И.У. Маджидов; под.обиз.ред. Б.Ю. Ходиева: М – во высш. и ср.спез. образования Р.Уз. – Т.: «OPTIMAL LIGHT», 2011. –704 с. 704 с.

4. V-VI sinflarda qadimgi va o'rtta asrlar tarixini o'qitish metodikasi. Karovkin F.P., Zaparojets N.I. tahriri ostida. "Prosvesheniye" nashriyotining 1970 yilgi nashridan tarjima. T.: O'qituvchi, 1974. 404 b.

5. Pedagogik atamalar lug'ati. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'lim vazirligi T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti. Tuzuvchi mualliflar: p.f.d., prof. R.X.Djurayev, p.f.d. O'.Q.Tolipov, p.f.d., prof. R.G'.Safarova, t.f.d., prof. X.O.To'raqulov, p.f.n. M.E.Inoyatova, p.f.n. M.S.Divanova. –T.: Fan, 2008. 198 b.

6. Xasanboyev J., To'raqulov X. Pedagogika nazariyasi fanidan izohli lug'at. T.: "Fan", 2008. - 200 b.

7. Eshbekova D., Eshbekova G. Tarix o'qitish nazariyasi va metodikasi fanini o'qitishda chizma va jadvallardan foydalanish. Toshkent: Tamaddun, 2014, 292 b.

<b>1 mavzu</b>	<b>Tarixga oid o'quv qo'llanmalarining vazifalari va xususiyatlari</b>
----------------	--

### Laboratoriya mashg'ulotini olib borish texnologiyasi

<i>Mashg'ulot vaqti-2 soat</i>	<b>Talabalar soni: 16 ta</b>
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Laboratoriya mashg'uloti (Talabalarda bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilishga qaratilgan topshiriqlarni bajarishga asoslangan mashg'ulot)
<i>Mashg'ulot rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. O'quv qo'llanmalari tushunchasi.</li> <li>2. O'quv qo'llanmalarining tarix o'qitishdagi vazifalari.</li> <li>3. Tarixga oid o'quv qo'llanmalari oldiga qo'yiladigan umumiy talablar.</li> <li>4. Tarix o'quv qo'llanmalarining metodik usullari.</li> </ol>
<i>Mashg'ulotning maqsadi:</i> Mavzu bo'yicha bilimlarni, ko'nikma va malakalarni chuqur o'zlashtirishni ta'minlash.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>
<ul style="list-style-type: none"> <li>- Tarixga oid o'quv qo'llanmalari tushunchasi va ular oldiga qo'yiladigan umumiy talablar bilan tanishtirish;</li> <li>- O'quv qo'llanmalarining tasnifini berish;</li> <li>- O'quv qo'llanmalarining tarix o'qitishdagi vazifalarini tushuntirish;</li> <li>- Tarix o'quv qo'llanmalarining metodik usullarini o'rgatish;</li> <li>- Tarixga oid o'quv qo'llanmalari bilan ishlash ko'nikma va malakalarini shakllantirish.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- O'quv qo'llanmalarining ta'lim vositalari va manbalari tushunchalaridan farqli va o'xshash tomonlarini ko'rsatadilar;</li> <li>- O'quv qo'llanmalarini tasniflaydilar;</li> <li>- O'quv qo'llanmalarining tarix o'qitishdagi vazifalarini aytib beradilar;</li> <li>- Tarixga oid o'quv qo'llanmalari oldiga qo'yiladigan umumiy talablarni tahlil qila oladi;</li> <li>- Tarix o'quv qo'llanmalarining metodik usullarini ko'rsata oladi;</li> <li>- Tarixga oid o'quv qo'llanmalarining vazifalari va xususiyatlari haqida o'z bilimlarini namoyon etadi, atroflicha, ijodiy fikrlay oladi;</li> <li>- Tarixga oid o'quv qo'llanmalari bilan ishlash ko'nikma va malakalarini shakllantiradilar.</li> </ul>
<i>O'qitish usullari va texnika</i>	Mantiqiy topshiriqlar, amaliy mashqlar usuli, muammoli savol-javoblar usuli
<i>O'qitish vositalari</i>	Tarqatma material, topshiriq konvertlari, kompyuter, proyektor, doska.
<i>O'qitish shakllari</i>	Individual, guruhiiy, jamoaviy.
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan, guruhiiy shakllarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki so'rov: savol-javob, tezkor so'rov va b. Yozma so'rov: mashq va topshiriqlar bajarish. O'z-o'zini nazorat qilish, guruhlar ishini nazorat, reyting tizimi asosida baholash.

## Laboratoriya mashg'ulotining texnologik kartasi

<i>Ish jarayonlari vaqti</i>	<i>Faoliyatning mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
I-bosqich. Mavzuga kirish. (10 minut)	1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi.	Mavzu va rejalarni yozib oladi.
	1.2. Talabalarni mashg'ulotdagi faoliyatlarini baholashning umumiy ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi. (1-ilova).	Yozib oladi.
II-bosqich. Asosiy qism (65 minut)	2.1. O'quv qo'llanmalarining zamonaviy tasnifdagi ta'rifi va turlari haqida (talabalar ushbu mavzuning asosiy masalalari bilan Tarix ta'limi vositalariga umumiy tavsif mavzusidagi ma'ruza va seminar avvalroq tanishadilar) o'qituvchi slayd va rasmlar to'plami asosida aniq va lo'nda tushuncha beradi (1-2-jadvallar). Jamoani guruhlariga bo'ladi. Har bir guruhdan jamoa sardori tanlanadi. Shundan so'ng o'qituvchi talabalarni uch guruhi bilan mavzu yuzasidan avval olingan bilimlardan foydalanish va fikr yuritishga asoslangan topshiriq va mashqlar ustida ishlay boshlaydi. Dorskaga mavzu bo'yicha guruhlar uchun tayyorlangan topshiriq va savollarini, ularni baholash mezonlarini ekranga bosqichma-bosqich tushirib boradi.	Tinglaydilar. Gruhlarga bo'linadilar. Har bir guruhdan jamoa sardori tanlanadi. O'quv topshiriq'i va baholash mezonlari bilan tanishadi.
	2.2. Avvalambor mavzu qay darajada o'zlashtirilganligini tekshiradi. <b>1-topshiriq:</b> Tarixga oid o'quv qo'llanmalarini Klaster usulida tizimlashtiring. (2-ilova). Klaster usulidan foydalanishni tushuntiradi. Guruhlar taqdimotini kuzatadi. To'ldirilgan jadvalarni bir-biri bilan solishtirib, javoblarni umumlashtiradi va xulosa qiladi. Guruhlar javoblarini to'ldiradi, muhokama qiladi va baholaydi. (2-jadval). Talabalarni har bir bosqichda o'quv topshiriq'i va baholash mezonlari bilan tanishtiradi.	Guruhlar klasterini to'ldiradilar. Har bir guruhdan jamoa sardori chiqib taqdimot o'tkazadi. Navbatdagi o'quv topshiriq'i va baholash mezonlari bilan tanishadi.
	2.3. Talabalarni 3 guruhiga navbatdagi topshiriqni tarqatadi. <b>2-topshiriq.</b> Yuqorida siz tanishgan o'quv qo'llanmalari ichidan o'zingizga topshirilgan turga misollar tanlab yozing. (2-jadval). 1- o'quv nashrlarini, ko'rgazmali vositalarni; 2- texnik vositalarni, tarixiy bosh manbalarni; 3- tarixiy didaktik manbalarni, tarixga oid tekshiruv o'quv qo'llanmalarini <b>Ro'yxatdagilardan tashqari qo'shimchalaringiz bo'lsa, oxiridan yozib qo'ying.</b>	Fikr yuritadi. Javobni yozadi.
	2.4. <b>3-topshiriq.</b> O'quv qo'llanmalariga qo'yiladigan asosiy talablarni izohlang. 1. Texnik xavfsizlik, ergonomik; 2. Funktsional-pedagogik, estetik; 3. Iqtisodiy, gigiyenik – jami oltita talab keltirilgan.	Fikr yuritadi. Javob beradi. Tinglaydi.

<p>Har bir guruh ikkitadan talabni tahlil qilish ustida ishlaydi. Guruhlarning javoblari va javoblarning tahlili birinchi topshiriqdagi kabi amalga oshiriladi. Topshiriqni bajarishda maslahat beradi.</p>	
<p><b>2.5. 4-topshiriq. O'quv qo'llanmalarining vazifalari, ular o'rtasidagi aloqalar va farqlar haqida fikr yuriting.</b>  1-guruhga: O'quv qo'llanmalarining vazifalari nimalardan iborat?  2-guruhga: O'quv fani uchun ishlab chiqilgan o'quv qo'llanmalari tizimi o'rtasidagi aloqalar nimalardan iborat?  3- guruhga: O'quv qo'llanmalari o'rtasidagi farqlar qanday mezonlarga asoslanadi? Misollardan foydalanib, javobni umumlashtiring. (3-jadval)  Guruh a'zolarining javoblar taqdimotini o'tkazishlarini tashkil etadi.</p>	<p>O'UM ga qaraydi.  Fikr yuritadi.  Javob beradi.</p>
<p><b>2.6. 5-topshiriq. Tarixga oid o'quv qo'llanmalaridan foydalanishning ahamiyati haqida fikr yuriting.</b> Sizga berilgan savollar javobini jadval va chizmalar shaklida tayyorlang.  1-guruhga: Darslik va boshqa o'quv qo'llanmalari-dagi savol va topshiriqlar tizimi o'quvchilarning qanday mazmundagi mustaqil fikrlash faoliyatlarini o'stirib borishga yordam beradi?  2-guruhga: O'quv qo'llanmalaridan va avvalo ko'rsatmali qurollardan yetarli darajada keng foydalanilganda o'quvchilarning tarixiy bilimlari qanday sifatlarga ega bo'ladi?  3-guruhga: Tarixiy bosh manbalar va didaktik manbalarining bir-biridan farqi nimada? Har ikkisidan foydalanishning ahamiyati nimada? Ularga misollar keltiring.  To'ldirilgan jadvallarni tekshiradi, javoblarni umumlashtiradi va xulosa qiladi.</p>	<p>Fikr yuritadi.  Javob beradi. Erkin fikrini bildiradi.</p>
<p><b>2.7. 6-topshiriq. Tarix o'qitishda o'quv qo'llanmalarining metodik usullari haqida fikr yuriting.</b>  1-guruhga: Tarix o'qitishda o'quv qo'llanmalarining metodik usullaridan foydalanishning qanday asosiy shartlari mavjud?  2-guruhga: Tarixga oid o'quv qo'llanmalari o'quvchilarning ko'rib fikr yuritishlari uchun qanday asos yaratib beradi? Masalan: Darslik. Jadvallar. Tarixiy hujjatlar. San'at vositalari. Shartli ko'rsatmali materiallar. Topshiriq-vazifalar.  3-guruhga: Bitta tarix o'quv qo'llanmasi qanday metodik usullar bilan ochib berilishi mumkin?  Qaysi guruh birinchi tayyor bo'lsa o'qiydi, qolganlar to'ldiradi. Guruhlarga umumiy vazifa ham berish mumkin. Vaqt yetarli bo'lganda qo'shimcha topshiriqlar beriladi.</p>	<p>Fikr yuritadi.  Javob beradi.</p>



	Guruhlarni bir-birlarini baholashlarini tashkil qiladi.	
	<p><b>Qo'shimcha vazifa:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Vazifasi tarixga doir bilimlarni oddiy tarzda takrorlashdan iborat bo'lgan tekshiruv qo'llanmalariga misol keltiring va izohlang.</li> <li>- Vazifasiga ko'ra tarixga doir masalalar yuzasidan fikr yuritishni, miyani ishlatishni talab qiladigan tekshiruv qo'llanmalariga misol yozing va izohlang.</li> <li>- Vazifalaridan biri o'quvchilarning ko'rib fikr yuritishlari uchun asos yaratib berish bo'lgan tarixga oid o'quv qo'llanmalariga qaysilar kiradi? Masalan: Darslik. Jadvallar. Tarixiy hujjatlar. San'at vositalari. Shartli ko'rsatmali materiallar. Topshiriq-vazifalar. Ulardan 2-3 tasini izohlang.</li> </ul>	Fikr yuritadi. Javob beradi.
III-bosqich. Yakuniy (5-minut)	3.1. Mavzu maqsadiga erishishdagi ishtirokchilar faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi.	Tinglaydi.
	3.2. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlash-tirish uchun adabiyotlar beradi.	Yozib oladi.
	3.3. Mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi. Keyingi mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rishni, mavzu matnini o'qib Insert asosida belgilab kelishni aytadi. Keyingi laboratoriya mashg'ulotini o'qishni, mustahkamlash va takrorlash uchun savollar tuzib kelishni topshiradi.	O'UMga qaraydi.

1-ilova.

### Talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari

Bir para uchun m/b 2.8	
86% 2.4 – 2.8	“a’lo”
71% 2.0 – 2.3	“yaxshi”
55% 1.6 – 1.9	“qoniqarli”
54% 0 – 1,5	“qoniqarsiz”

## Laboratoriya amaliy ish uchun


Topshiriqlar ro'yxati, baholash ko'rsatkichlari va mezonlari	Ajratilgan ball	Topshiriq shakli	
Maksimal ball – 2,8			
1-topshiriq. Tarixga oid o'quv qo'llanmalarini Klaster usulida tizimlashtiring.	0,4 ball	Yozma	
2-topshiriq. O'quv qo'llanmalari turlarini alohida ro'yxat qilib yozib chiqing.	0,5 ball	Yozma	
3-topshiriq. O'quv qo'llanmalariga qo'yiladigan asosiy talablarni izohlang.	0,3 ball	Og'zaki	
4-topshiriq. O'quv qo'llanmalarining vazifalari, ular o'rtasidagi aloqalar va farqlar haqida fikr yuriting.	0,5 ball	Yozma va og'zaki	
5-topshiriq. Tarixga oid o'quv qo'llanmalaridan foydalanishning ahamiyati haqida fikr yuriting.	0,3 ball	Og'zaki	
6-topshiriq. Tarix o'qitishda o'quv qo'llanmalarining metodik usullari haqida fikr yuriting.	0,5 ball	Yozma va og'zaki	
7-Qo'shimcha vazifa.	0,3 ball	Og'zaki	
<i>Jami:</i>	<i>(2,8 ball)</i>		

2-ilova.

### «Klaster» texnikasi

**Klaster** – fikrlarni tarmoqlanishi – bu pedagogik strategiya bo'lib, u talabalarning mavzuni chuqur o'rganishga yordam beradi. Talabalarda mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'langan holda tarmoqlashlariga o'rgatadi. Bu usul biron mavzuni chuqur o'rganishdan avval talabalarni fikrlash faoliyatini jonlantirish hamda kengaytirish uchun xizmat qiladi. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, umumlashtirishga undaydi. Klaster texnologiyasi quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Tayanch so'z beriladi;
2. Barcha talabalar shu so'z bo'yicha hayoliga kelgan hamma so'zlarni yozadilar;
3. Yozilgan so'zlardan bog'lanadiganlarini belgilaydi;
4. Tayanch so'zning mazmunini yoritadi;
5. Dars davomida o'rganilishi lozim bo'lgan muammolar talabalarga ma'lum qilinadi va ular dars davomida tushuntirib beriladi.



**O'quv qo'llanmalarining zamonaviy tasnifdagi ta'rifi va turlari haqida o'qituvchi tushuncha beradi (220-222 betlar). Shundan so'ng o'qituvchi talabalarni uch guruhga bo'lib, mavzu yuzasidan avval olingan bilimlardan foydalanish va fikr yuritishga asoslangan topshiriq va mashqlar ustida ishlay boshlaydi.**

(Eslatma: Laboratoriya mashg'ulotlarida bir akademik guruh ikkiga bo'linib, alohida mashg'ulot o'tkaziladi. Shunga ko'ra mashg'ulotda talabalar soni taxminan 15 ta.) Quyida laboratoriya mashg'ulotida foydalanish uchun betlari ko'rsatilib tavsiya etilgan adabiyot: **Eshbekova Dilafruz, Eshbekova Gulshan.** Tarix o'qitish nazariyasi va metodikasi fanini o'qitishda chizma va jadvallardan foydalanish – Toshkent, – Tamaddun, 2014, 292 b. Ushbu adabiyotdan topshiriqlarni bajarish talabalar uchun qiyinlik qilganda yoki javoblarni tekshirish lozim bo'lganda foydalanishga ruxsat etiladi. Masalan 3-topshiriqni bajarishda adabiyotdan foydalanishlariga zarurat paydo bo'lishi mumkin. Talabalar imkon qadar topshiriqlarni mustaqil bajarishga, mustaqil fikrlashga harakat qilishlari lozim.

**1-topshiriq.** Tarixga oid o'quv qo'llanmalarini Klaster usulida tizimlashtiring. (1.2.-ilova). Klaster usulidan foydalanishni tushuntiradi.

Guruhlar taqdimotini kuzatadi. Guruhlar javoblarini to'ldiradi, muhokama qiladi va baholaydi.

**2-topshiriq.** O'quv qo'llanmalari turlari keltirilgan ro'yxatdan

– o'quv nashrlarini, ko'rgazmali vositalarni;

– texnik vositalarni, tarixiy bosh manbalarni;

– tarixiy didaktik manbalarni, tarixga oid tekshiruv o'quv qo'llanmalarini

**alohida ro'yxat qilib yozib chiqing. Ro'yxatdagilardan tashqari qo'shimchalarinigiz bo'lsa, oxiridan yozib qo'ying. (222, 233-betlar)**

Topshiriqlar ustida talabalarining uch guruhi ish olib boradi. Har bir guruh ikkitadan turni konvertni tanlash asosida taqsimlab oladi, guruhlar keltirilgan umumiy ro'yxatdan o'quv qo'llanmalarining tegishli turini ajratib oladi, ro'yxat tayyor bo'lgach, guruhning a'zosi uni o'qib beradi va qolgan guruhlar o'qituvchi rahbarligida ro'yxatning to'g'ri va to'liqligi tahlilini olib boradi.

**3-topshiriq.** O'quv qo'llanmalariga qo'yiladigan asosiy talablarni izohlang.

Texnik xavfsizlik, ergonomik;

funksional-pedagogik, estetik;

iqtisodiy, gigiyenik – jami oltita talab keltirilgan.

Har bir guruh ikkitadan talabni tahlil qilish ustida ishlaydi. Guruhlarning javoblari va javoblarning tahlili birinchi topshiriqdagi kabi amalga oshiriladi. (223-224-bet)

**4-topshiriq. O‘quv qo‘llanmalarining vazifalari, ular o‘rtasidagi aloqalar va farqlar haqida fikr yuriting.**

1-guruhga: O‘quv qo‘llanmalarining vazifalari nimalardan iborat? (225-bet)

2-guruhga: O‘quv fani uchun ishlab chiqilgan o‘quv qo‘llanmalari tizimi o‘rtasidagi aloqalar nimalardan iborat? (221-bet)

3-guruhga: O‘quv qo‘llanmalari o‘rtasidagi farqlar qanday mezonlarga asoslanadi? Misollardan foydalanib, javobni umumlashtiring. (229, 230, 231, 232, 233, 236-betlar)

**5-topshiriq. Tarixga oid o‘quv qo‘llanmalaridan foydalanishning ahamiyati haqida fikr yuriting.**

1-guruhga: Darslik va boshqa o‘quv qo‘llanmalaridagi savol va topshiriqlar tizimi o‘quvchilarning qanday mazmundagi mustaqil fikrlash faoliyatlarini o‘stirib borishga yordam beradi? (226-bet)

2-guruhga: O‘quv qo‘llanmalaridan va avvalo ko‘rsatmali qurollardan yetarli darajada keng foydalanilganda o‘quvchilarning tarixiy bilimlari qanday sifatlarga ega bo‘ladi? (227-bet)

3-guruhga: Tarixiy bosh manbalar va bilim manbalarining bir-biridan farqi nimada? Har ikkisidan foydalanishning ahamiyati nimada? Ularga misollar keltiring. (235-bet)

**6-topshiriq. Tarix o‘qitishda o‘quv qo‘llanmalarining metodik usullari haqida fikr yuriting.**

1-guruhga: Tarix o‘qitishda o‘quv qo‘llanmalarining metodik usullaridan foydalanishning qanday asosiy shartlari mavjud? (229, 232-bet)

2-guruhga: Bitta tarixiy mazmunning o‘zi turli o‘quv qo‘llanmalarida har xil metodik vositalar bilan ochib berilishi mumkin. Ularga bir nechta misol keltiring. (231-bet)

3-guruhga: Bitta tarix o‘quv qo‘llanmasi qanday metodik usullar bilan ochib berilishi mumkin? (231, 232-bet)

Qaysi guruh birinchi tayyor bo‘lsa o‘qiydi, qolganlar to‘ldiradi. Guruhlarga umumiy vazifa ham berish mumkin. Vaqt yetarli bo‘lganda qo‘shimcha topshiriqlar beriladi.

**Qo‘shimcha vazifa:**

– Vazifasi tarixga doir bilimlarni oddiy tarzda takrorlashdan iborat bo‘lgan tekshiruv qo‘llanmalariga misol keltiring va izohlang. (234-bet)


– Vazifasiga ko‘ra tarixga doir masalalar yuzasidan fikr yuritishni, miyani ishlatishni talab qiladigan tekshiruv qo‘llanmalariga misol yozing va izohlang. (234-bet)

– Vazifalaridan biri o‘quvchilarning ko‘rib fikr yuritishlari uchun asos yaratib berish bo‘lgan tarixga oid o‘quv qo‘llanmalariga qaysilar kiradi? Masalan: Darslik. Jadvallar. Tarixiy hujjatlar. San‘at vositalari. Shartli ko‘rsatmali materiallar. Topshiriq-vazifalar. Ulardan 2-3 tasini izohlang (228, 232-bet).

## TARIXGA OID O'QUV QO'LLANMALARINING VAZIFALARI VA XUSUSIYATLARI

**O'quv qo'llanmasi** – nashrning ushbu turi sifatida rasman tasdiqlangan, darslikning o'rnini qisman yoki to'liq bosuvchi yoki uni to'ldiruvchi, fan asoslarining chuqur o'zlashtirishini ta'minlovchi, ayrim bob va bo'limlarni keng tarzda yoritishga yoki mashq va mashg'ulotlar olib borishga mo'ljallangan nashr

Zamonaviy pedagogik tasnifda – o'quv dasturida nazarda tutilgan va darslikda bayon etilgan, **metodistlar tomonidan ta'limning maqsad va mazmuniga hamda o'quvchilarning yoshga oid bilish imkoniyatlariga muvofiq tayyorlangan, o'quv-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan va bilimlarni yaxshi o'zlashtirish, kengaytirish va chuqurlashtirish uchun mo'ljallangan ta'limning barcha moddiy vositalari**



O'qituvchining dars berishga tayyorlanishi uchun yordam ko'rsatish maqsadida yaratilgan metodik qo'llanmalardan farq qiladigan va o'qitish jarayonida bevosita foydalaniladigan kitoblar, suratlar, xaritalar, chizmalar, daftarlilar va boshqa narsalarni o'quv qo'llanmalari deb ataymiz.


O'quv qollanmalarining asosiy turlari

2-jadval.

Tabiiy obyektlar	Narsalar va voqelik hodisalarini tasvirlash va gavdalandirib ko'rsatish	Narsalar va dunyo hodisalarini tabiiy va sun'iy tillar so'zlari va jumalari bilan tavsiflash	Alohida guruh sifatida ta'limning texnik vositalari
<p>Bevosita o'rganish uchun obyektiv borliq hodisalari va narsalari (minerallar, tog' jinslari, xom-ashyo, ishlab chiqarishning yarim tayyor va tayyor mahsulotlari, o'simliklar va hayvonlarning o'rganish uchun ajratib olingan parcha yoki organizmlari); Hodisalarni qayta tiklash va ularni o'rganishning laboratoriya usuli uchun tabiiy narsalar va texnik vositalar (asbob-uskunalar, ximiyaviy reaksiyani amalga oshirish uchun ishlatiladigan moddalar); O'quvchilarning mehnatga oid, tasvirlash va boshqa turdagi faoliyati uchun moddiy va texnik vositalar (yog'och, metall, plastmassa; o'lchov, nazorat aboblari, to'plab uyg'un, butun holga keltirish (montaj) va ishlov berish uskunalari; chizmachilik va rasm chizish qurollari va tegishli buyumlari; mashinalar, dastgohlar, texnik qurilmalar va b.)</p>	<p>Hajmli qo'llanmalar - maketlar, modellar, gips va shu kabi materiallar vositasida olingan nusxalar, mulyaj, globus va b.; Tekis yuzali qo'llanmalar - jadvallar, kartinalar, fotografiyalar, xaritalar, chizmalar, tarhlar (bino tarhi); Audiovizual vositalar - kinofilmlar, kinoparchalar, kinoxalqalar, diafilmlar, diapozitivlar, transparantlar (ramkaga solingan rasm, shior va shu kabilar yozilgan mato), gramplastinka va magnit lentasiga yozilgan yozuvlar, radioeshittirish va teleko'rsatuvlar va b. Audiovizual vositalar, kino, radio va televideniye o'quvchilarni zamonaviy fan, texnika, ishlab chiqarish va madaniyat yutuqlari bilan, bevosita kuzatish mumkin bo'lmagan hodisalar bilan tanishtirish, Yer sharining eng uzoq zamonlari va makonlariga, kosmosga tezlik bilan yetib borish, moddalar tubiga (multitasvirlar vositasida), to'lqinlar dunyosida harakatlar ichiga, elementar zarralar, atomlar, tirik moddalar molekullari, hujayralari ichiga kirish; tabiat hodisalari va jamiyat hayotini ko'rgazmali namoyish etish va nazariy tushuntirib berish imkonini beradi</p>	<p>O'quv - uslubiy adabiyotlar - dasturiy-metodik (dasturlar va ularga metodik ko'rsatmalar, metodik xatlar va yo'riqnomalar); ta'lim beruvchi (alifbe va shu kabi boshlang'ich qo'llanmalar, darsliklar, matnli qo'llanmalar, ma'ruzalar, konspektlar va b.); yordamchi (xrestomatiyalar (osonlashtirilgan yordamchi o'quv qo'llanmalar), praktikumlar (amaliy mashg'ulotlar uchun materiallar va ko'rsatmalar), amaliy topshiriqlar, vazifalar va mashqlar to'plamlari, atlaslar, chizma va tarhlar to'plamlari, ishchi daftarlar, chet tillardan o'qish uchun nashrlar va b. materiallar)</p>	<p>A x b o r o t be ruv chi;  n a z o r a t qi luv chi;  t a` l i m be ruv chi</p>



3-jadval.



## **2-mavzu: TARIX DARSLIKLARI VA ULARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR**

(2 soat)

*Reja:*

1. Tarix darsligi bilim manbai va ta’lim vositasi sifatida.
2. Tarix darsligining vazifalari.
3. Tarix darsligining asosiy tarkibiy qismlari.
4. O‘quvchilarning darslik matni va illyustratsiyalar bilan ishlash usullari.
5. Tarixdan o‘quv majmuasi va uning mazmuni.

### **Mavzuning asosiy mazmuni:**

Tarix darsligi bilim manbai va ta’lim vositasi sifatida. Tarix o‘qitishda qo‘llaniladigan matnlarning didaktik tavsifnomasi. Tarix darsliklariga nisbatan qo‘yiladigan didaktik talablar. Tarix darsligining funksional roli, vazifalari: ta’lim vositasi, asosi, muvofiqlashtirish vazifasi; axborot manbai, fan bo‘yicha bilimlar tizimi, o‘quvchilar bilim va malakalarini integratsiyalash, majburiy o‘quv material majmui, nazorat vazifasi, tarixni mustaqil o‘rganish vositasi, o‘z-o‘ziga ta’lim vazifasi, shaxs shakllanishiga ta’sir vositasi, tarbiyalovchilik vazifasi.

Tarix darsligining asosiy tarkibiy qismlari: mavzuga oid matn, (asosiy, qo‘shimcha, aniqlashtiruvchi-izohlovchi), qo‘shimcha komponentlar (illyustrativ, metodik, yo‘naltiruvchi shartli belgilar) hisoblanadi. Tarix darsliklarining matnli va ko‘rgazmali komponentlari o‘rtasidagi aloqadorlik va ularning turlari. O‘quvchilarning darslik matni va illyustrativ materiallari bilan ishlash usullari. Sinfda va uyda darslik bilan ishlash usullari. O‘quvchilarni darslik matni ustida mustaqil ishlashga o‘rgatish metodikasi. O‘quvchilarni yangi darslik bilan dastlabki tanishtirish. Tarix darsliklarini tahlil etish. Maktab, akademik lisey va kasb-hunar kollejlarida o‘qitiladigan Jahon va O‘zbekiston tarixi darsligi va qo‘llanmalari tahlili. Umumiy maktabning V-IX sinflari uchun zamonaviy tarix darsliklari. Tarixdan o‘quv majmuasi va uning mazmuni.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Вяземский Е.Е., Стерилова О.Ю., Теория и методика преподавания истории: Учеб. для студ. высш. учеб. завед. – М.: Гуманист. изд. центр Владос, 2003. – 384 с.

2. Короткова М.В. методика обучения истории в схемах, таблицах, описаниях: Практическое пособие для учителей. М.: Гуманист. изд центр ВЛАДОС, 1999. – 192 с.

3. Педагогический словарь-справочник. Издание 2-е, переработанные и дополненные. /Авт. – сост: Э.А. Сейтхалилов, Б.Х. Рахимов, И.У. Маджидов; под.обиз.ред. Б.Ю. Ходиева: М – во высш. и ср.спец. образования Р.Уз. – Т.: «OPTIMAL LIGHT», 2011. –704 с. 704 s.

4. "V-VI sinflarda qadimgi va o'rta asrlar tarixini o'qitish metodikasi". Karovkin F.P. va Zaparojets N.I. tahriri ostida. "Prosvesheniye" nashriyatining 1970 yilgi nashridan tarjima. T.: O'qituvchi, 1974. 404 b.

5. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta mahsus ta'lim vazirligi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti tarix fakulteti O'zbekiston tarixi kafedrasini. O'zbekiston tarixi fanidagi innovatsiyalar: nazariya va amaliyot. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 19-20 aprel 2013 yil. Toshkent. 404 b.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi O'zbekistonning yangi tarixi markazi. Tarix, mustaqillik, milliy g'oya (Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari) "Akademiya" nashriyoti Toshkent-2001. 334 b.

7. Asqarova O'.M., Xayitboyev M., Nishonov M.S. Pedagogika: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. – T.: "TALQIN", 2008. – 288 b.

8. Pedagogik atamalar lug'ati. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'lim vazirligi T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti. Tuzuvchi mualliflar: p.f.d., prof. R.X.Djurayev, p.f.d. O'.Q.Tolipov, p.f.d., prof. R.G'.Safarova, t.f.d., prof. X.O.To'raqulov, p.f.n. M.E.Inoyatova, p.f.n. M.S.Divanova. – T.: Fan, 2008. 198 b.

9. Xasanboyev J., To'raqulov X. Pedagogika nazariyasi fanidan izohli lug'at. T.: Fan, 2008. -200 b.

10. Eshbekova Dilafuz, Eshbekova Gulshan. Tarix o'qitish nazariyasi va metodikasi fanini o'qitishda chizma va jadvallardan foydalanish. Toshkent: Tamaddun, 2014, - 292 b.

## Ta'lim berish texnologiyasining modeli

<i>Mashg'ulot vaqti-2 soat</i>	<i>Talabalar soni: 16 ta</i>
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash, ko'nikma va malakalar hosil qilish yuzasidan laboratoriya
<i>Laboratoriya mashg'uloti rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Tarix darsligi bilim manbai va ta'lim vositasi sifatida.</li> <li>2. Tarix darsligining vazifalari.</li> <li>3. Tarix darsligining asosiy tarkibiy qismlari.</li> <li>4. O'quvchilarning darslik matni va illyustratsiyalar bilan ishlash usullari.</li> <li>5. Tarixdan o'quv majmuasi va uning mazmuni.</li> <li>6. Tarix darsligini tahlili (tayyorlangan jadval bo'yicha).</li> </ol>
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Tarix darsligining bilim manbai va ta'lim vositasi sifatidagi o'rni va ahamiyati, uning tarkibiy qismlari va funksiyalari bo'yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, bo'lajak tarix o'qituvchilarini o'quvchilar bilan birgalikda tarix darsligi bilan ishlash ko'nikma va malakalarini oshirish.	
<p><i>Pedagogik vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• O'quv qo'llanmalari orasida tarix darsligining bilim manbai va ta'lim vositasi sifatidagi o'rni va ahamiyati yuzasidan bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish;</li> <li>• Tarix darsligining tarkibiy qismlari va funksiyalarini tizimlashtirish malakasini hosil qilish;</li> <li>• Talabalarning, bo'lajak tarix o'qituvchilarining o'quvchilarning darslik matni va illyustratsiyalar bilan ishlash usullari majmuini egallashlariga yordam berish.</li> </ul>	<p><i>O'quv faoliyati natijalari:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• O'quv qo'llanmalari orasida tarix darsligini bilim manbai va ta'lim vositasi sifatidagi o'rni va ahamiyati yuzasidan bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish;</li> <li>• Tarix darsligining tarkibiy qismlari va funksiyalarini tizimlashtirish malakasini hosil qilish;</li> <li>• Tarix darsliklarini tahlil qilish (tayyorlangan jadval bo'yicha);</li> <li>• O'quvchilarning darslik matni va illyustratsiyalar bilan ishlash usullari yuzasidan ko'nikma va malakalari shakllanadi.</li> </ul>
<i>Ta'lim berish usullari</i>	Muloqot, Aqliy hujum, Tushunchalar tahlili, Mantiqiy topshiriq va mashq usullari.
<i>Ta'lim berish shakllari</i>	Yakka tartibli, juftlikda, jamoaviy ishlash
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	O'quv qo'llanma, darsliklar, proyektor, doska, markerlar, tarqatma materiallar, topshiriqlar
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Texnik ta'minlangan, hamkorlikda guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan va taqdimotlarni amalga oshirish imkoniga ega bo'lgan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat: savol-javob. Yozma nazorat: topshiriqlarni bajarish.

## Laboratoriya mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
<p><b>1-bosqich.</b> Mavzuga kirish (15 daqiqa)</p>	<p>1.1. Mavzuning nomini ekranga chiqaradi va mazkur mavzuni yoritishdan kutilayotgan asosiy natijalar to'g'risida ma'lumot beradi.</p> <p>1.2. Mavzuni yoritish bo'yicha tuzilgan reja savollarini namoyishga uzatadi. Mashg'ulotni olib borish jarayoni va baholash mezonlari bilan tanishtiradi. (1-2-Ilovalar).</p> <p>1.3. Darslikka xos xususiyatlarni talabalarning javoblari asosida doskada ro'yxat qilib yozish va undan Darslik tushunchasiga yakka tartibda aniq ta'rif ishlab chiqishni taklif etish. (3.-Ilova).</p> <p>Darslik tushunchasi yuzasidan talabalar tuzgan ta'riflar tinglanib, baholangach, talabalarning fikrlash jarayonini faollashtirish maqsadida savol beriladi: Tarix darsligi bilim manbai va ta'lim vositasi sifatida <i>deganda nimani tushunasiz?</i> Javoblar umumlashtiriladi.</p> <p>1.4. "Aqliy hujum" metodi orqali talabalarni faollashtiradi. Berilgan savolga javob berishni taklif qiladi (javoblar 1-2 so'zdan iborat bo'lishi kerakligini eslatadi): Tarixdan darslik yaratishda tayaniladigan didaktik tamoyillar nimalardan iborat? (4-Ilova). Talabalarga javoblarni yozib borishni taklif qiladi. Javoblar doskada ham yozib boriladi. Belgilangan vaqt tugagandan so'ng, fikr bildirishlar to'xtatiladi va javoblar tahlil qilinadi.</p> <p>1.5. "Tarix darsligining asosiy tarkibiy qismlari" jadvalini to'ldirish. (5-Ilova).</p>	<p>Tinglaydilar</p> <p>Ko'chirib oladilar.</p> <p>Tinglaydilar va mashg'ulot qoidalari bilan tanishadilar</p> <p>O'ylaydilar, muhokama qiladilar va savolga javob beradilar.</p> <p>Faol qatnashib, javob variantlarini ketma-ket aytib boradilar.</p> <p>Juftliklarga bo'linadilar.</p> <p>Taklif etilgan jadvalni to'ldiradilar.</p>
<p><b>2. Asosiy bosqich</b> (55 daqiqa)</p>	<p>2.1. Talabalar jadval bilan ishlab tugallagach, Power Point dasturi asosida ko'rgazmali materiallar bo'yicha talabalarga tarix darsligining asosiy tarkibiy qismlari slaydlar orqali namoyish etiladi va javoblar tekshiriladi.</p> <p>2.2. Dars o'tish jarayonida darslik matni va illyustrasiyalar bilan ishlash usullaridan to'rttasini ko'rsatib berish. Shundan so'ng javoblar umumlashtiriladi va to'ldiriladi. (6-ilovalar).</p> <p>2.3. Juftlikda Tarix darsligining funksiyalaridan bittasini tahlil qilib berish (7-Ilova).:</p> <p>Muvofiqlashtiruvchi; Axborot beruvchi funksiya;</p> <p>Tizimlashtiruvchi funksiya; Integratsiyalovchi funksiya; Nazorat qiluvchi funksiya; Transformatsion funksiya; Mustaqil o'qib bilim orttirish funksiyasi; Tarbiyaviy funksiya.</p> <p>2.4. Juftlikda taklif etilgan jadval bo'yicha Tarix darsliklaridan birini tahlil qilib berish. (8-Ilova).</p>	<p>Tinglaydilar, javoblarni tekshirib ko'radilar.</p> <p>Talabalar berilgan topshiriqlarni bajaradilar.</p>
<p><b>3. Yakuniy bosqich</b> (10 daqiqa)</p>	<p>3.1. Mavzuni umumlashtiradi va umumiy xulosalar yasaydi. Talabalar to'plagan ballarni jamlaydi.</p> <p>3.2. Navbatdagi laboratoriya mashg'ulotining mazmuni bilan tanishib kelish topshiriladi.</p>	<p>Tinglaydilar.</p> <p>Vazifani yozib oladilar.</p>

## Mustaqil takrorlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Tarix darsligi bilim manbai sifatida.
2. Tarix darsligini asosiy komponentlari.
3. Matn va matndan tashqari komponentlarni aniqlang.
4. Darslikning asosiy matniga nima kiradi?
5. Darslikdagi metodik komponentlarni aniqlang.
6. O'quvchilarning darslik matni va illyustrasiya materiallari bilan ishlash usullari.

1-ilova

### Muloqotga ishtirok etuvchilarga eslatma!

1. Muloqot muammoni yechishga qaratilgan usuldir.
2. Gapirayotganda uzoq so'zlama, boshqalar ham o'z fikrlarini bayon etishlarini unutma.
3. Hissiyotni jilovlagan holda fikringni shunday jamlab aytki, u murod nishoniga tegsin.
4. Muxolifatingni so'zlarini hurmat bilan tingla.
5. Munosabatingni aniq bergin va fikrlar takrorlanishiga yo'l qo'yma!
6. O'z bilimdonliging, iqtidoring va zakovatingni ko'rsatish uchun so'zlama, balki munozara mavzusi doirasida so'z yuritgin.
7. Fikringni qabul qilishlari va uni ma'qul topishlari uchun kurashgin!

2-ilova

### Talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari

Bir para uchun m/b 2.8	
86% 2.4 – 2.8	“a'lo”
71% 2.0 – 2.3	“yaxshi”
55% 1.6 – 1.9	“qoniqarli”
54% 0 – 1,5	“qoniqarsiz”

### Laboratoriya amaliy ish uchun

Topshiriqlar ro'yxati, baholash ko'rsatkichlari va mezonlari	Ajratilgan ball	Topshiriq shakli	
Maksimal ball – 2,8			
1- Darslik tushunchasining belgilari va ta'rifini to'liq yoritib berish.	0,5 ball	Yozma	

2- Tarixdan darslik yaratishda tayaniladigan didaktik tamoyillar tizimini yetarli darajada asoslab berish.	0,3 ball	Og'zaki	
3- "Tarix darsligining asosiy tarkibiy qismlari" jadvalini to'ldirish. Juftlikda ishlagan ishtirokchilarning faolligi va zukkoligi.	0,6 ball	Yozma	
4- Juftlikda Tarix darsligining matnli va rasmi materiallari bilan ishlash usullaridan 4 tasini taklif etish.	0,4 ball	Yozma va og'zaki	
5- Juftlikda Tarix darsligining funksiyalaridan bittasini tahlil qilib berish.	0,5 ball	Og'zaki	
6- Juftlikda Tarix darsliklaridan birini tahlil qilib berish.	0,5 ball	Yozma	
	<b>Jami:</b> <b>(2,8 ball)</b>		

3-ilova

### 1-mashq yozma shaklda

1. Darslikka xos xususiyatlarni talabalarning javoblari asosida doskada ro'yxat qilib yozish,

2. Shundan so'ng talabalarga doskada keltirilgan darslikka xos xususiyatlar asosida individual tarzda DARSLIK tushunchasiga ixcham yoki kengaytirilgan ta'rif tuzish topshiriladi. Bu tariflar ixcham yoki kengaytirilgan, darslik mohiyatini to'la qamrab ololgan yoki to'liq bo'lmagan ta'riflar bo'lishi mumkin. Zero, darslik tushunchasiga har xil pedagogik adabiyotlarda ham turli darajadagi ta'riflar keltirilgan. Talabalar uchun muhimi fikrni eng muvofiq, tushunchani aniq, to'liq ifodalash mumkin bo'lgan so'zlar bilan, ilmiy, puxta va tushunarli mantiqiy tartiblangan tarzda ifodalay olishdan iborat.

### DARSLIK tushunchasiga berilgan ta'rif uchun maksimal ball 0,5 ball


#### 1- ish uchun individual to'plangan ballni qayd etish varaqasi

Topshiriqlar, baholash ko'rsatkichlari va mezonlari	01	02	03	04	05	06	07	08	09	10	11	12	13	14	15	16
- Tushunchani aniq, to'liq ifodalay olish (0,1 ball)																
- Fikrni ilmiy,																





**2-ish og'zaki shaklda – Aqliy hujum**



## 2- ish uchun individual to'plangan ballni qayd etish varaqasi

	Talabalar F.I.Sh	Topshiriqlar, baholash ko'rsatkichlari va mezonlari							
		1	2	3	4	5	6	Izoh	Jami ball
1									
2									
3									
4									
5									
6									
7									
8									
9									
10									
11									
12									
13									
14									
15									
16									
									Jami: (0,3 ball)

**Eslatma:** Har bir to'g'ri javob uchun 0,1 baldan beriladi. Har bir talaba aqliy hujum yakuniga qadar uch martagacha fikr aytish imkoniga ega.

5-ilova

### 3-ish yozma shaklda juftlikda ishlash

“Tarix darsligining asosiy tarkibiy qismlari” jadvalini to'ldirish. To'ldirish lozim bo'lgan jadvalda Tarix darsligi tarkibiy qismlarining asosiy grafik qismi taklif etilgan. Jadvalni to'ldirish uchun maksimal ball 0,6 ball.

## TARIX DARSLIGINING ASOSIY TARKIBIY QISMLARI

Qo'shimcha	Asosiy	Aniqlashtiruvchi
	<div style="border: 1px solid black; border-radius: 50%; width: 80px; height: 80px; margin: 0 auto; display: flex; align-items: center; justify-content: center;"> <p style="margin: 0;"><b>MATN</b></p> </div>	
	<div style="border: 1px solid black; border-radius: 50%; width: 120px; height: 120px; margin: 0 auto; display: flex; align-items: center; justify-content: center;"> <p style="margin: 0;"><b>DARSLIK</b></p> </div>	
	<div style="border: 1px solid black; border-radius: 50%; width: 120px; height: 120px; margin: 0 auto; display: flex; align-items: center; justify-content: center;"> <p style="margin: 0;"><b>MATNDAN TASHQARI TARKIBIY QISMLAR</b></p> </div>	
<b>Metodik</b>	<b>Rasmlar</b>	<b>Yo'naltiruvchi apparat</b>

### 3- ish uchun juftlikda to'plangan ballni qayd etish varaqasi

№	Talabalar F.I.Sh	Topshiriqlar, baholash ko'rsatkichlari va mezonlari							
		1	2	3	4	5	6	Izoh	Jami ball
1									
2									
3									
4									
5									
6									
7									
8									
9									
10									
11									
12									
13									
14									
15									
16									
									<i>Jami: (0,6 ball)</i>

**Eslatma:** Har bir grafik qatoriga ikki va undan ortiq yozilgan to'g'ri javob uchun 0,1 baldan beriladi. Har bir talaba 0,6 ballgacha to'plash imkoniga ega.

**4-vazifa juftlikda topshiriqlarni ishlash**  
**Juftlikda Tarix darsligining matnli va rasmlı materialları bilan**  
**ishlash usullaridan 4 tasini taklif etish.**

**4 - ish uchun juftlikda to'plangan ballni qayd etish varaqasi**

№	Talabalar F.I.Sh	Topshiriqlar, baholash ko'rsatkichlari va mezonlari							
		1	2	3	4			Izoh	Jami ball
1									
2									
3									
4									
5									
6									
7									
8									
9									
10									
11									
12									
13									
14									
15									
16									
									<i>Jami: (0,4 ball)</i>

**Eslatma:** Har bir talabaga har bir to'g'ri javob uchun 0,1 balidan beriladi. Har bir talaba 0,4 ball to'plash imkoniga ega.

**5-vazifa juftlikda topshiriqlarni ishlash**  
**Juftlikda Tarix darsligining funksiyalaridan bittasini tahlil qilib berish.**

**Tarix darsligining funksiyalaridan birini to'g'ri tahlil qilib bera olganlik uchun maksimal ball 0,5 ball**

**1- ish uchun to'plangan ballni individual qayd etish varaqasi**

Topshiriqlar, baholash ko'rsatkichlari va mezonlari	01	02	03	04	05	06	07	08	09	10	11	12	13	14	15	16
- Tushunchani aniq, to'liq ifodalay olish (0,1 ball)																
- Fikrni ilmiy, tushunarli, mantiqiy tartiblangan tarzda ifodalay olish (0,1 ball)																
- Keng ma'noni ifodalash uchun muvofiq so'zlar vositasida tushunchani ixchamlash-tira olganlik (0,1 ball)																
- Javobini yetarli darajada asoslab bera olish (0,1 ball)																
- Reglamentga rioya qildi (0,1)																
<b>Jami:</b> <b>(0,5 ball)</b>																

Qulaylik maqsadida talabalarning olgan baholarini qayd etib borish uchun ularning guruh jurnalidagi tartib raqamidan foydalanish mumkin.

**6-vazifa juftlikda yozma shakldagi topshiriqni bajarish**  
**Juftlikda Tarix darsliklaridan birini tahlil qilib berish.**

**Tarix darsliklari tahlili**

Darslikni nomi

---

Darslik mualliflari

---

Sinf \_\_\_\_\_

Qo'shimcha ma'lumotlar

---

<b>Darslikning matnli qismi</b>		
<b>Asosiy</b>	<b>Darslikdagi betlar</b>	<b>Qo'shimcha taklif va mulohazalar</b>
1. Bayon qiluvchi		
2. Tasvirlovchi		
3. Tushuntiruvchi		
4. Muammoli umumlashtiruvchi		
Yosh psixologik xususiyatlar inobatga olinganligi		
Asosiy matnda xato va kamchiliklar: a) orfografik b) mazmunida		
<b>Qo'shimcha</b>	<b>Darslikdagi betlar</b>	<b>Qo'shimcha taklif va mulohazalar</b>
1. Hujjatlar		
2. Badiiy adabiyotlardan parchalar		
3. Biografik ma'lumotlar		
1.1. Hujjatlarni turlari		
<b>Aniqlashtiruvchi</b>	<b>Darslikdagi betlar</b>	<b>Qo'shimcha taklif va mulohazalar</b>
1. Betma bet berilgan lug'at va atamalar		
2. Ilyustrasiyalarga berilgan izohlar		
3. Qavs ichidagi sharhlar		
Berilgan izoh va sharhlar qanday ma'lumotni o'z ichiga olgan? a) nomi		

b) joyi v) vaqti g) muallifi d) tasvirlar turlari		
	<b>Darslikning matndan tashqari qismi</b>	
<b>Metodik apparat</b>	<b>Darslikdagi betlar</b>	<b>Qo'shimcha taklif va mulohazalar</b>
1. Savol va topshiriqlar joylashgan o'ri?		
a) mavzu va paragraf boshida		
b) asosiy matn ichida		
v) paragrafdan keyin		
g) mavzu, bo'lim, kursdan keyin		
d) illyustrasiyaga		
e) hujjatlarga		
2. Matnning qismlarini ajratib ko'rsatish va uning ahamiyati		
3. Jadvallar turi?		
a) xronologik		
Sinxronik		
b) rivojlanishni ko'rsatuvchi		
v) mavzuiy ro'yxat jadvali		
g) moslikni ko'rsatuvchi		
d) Taqqoslash jadvali		
4. Yo'riqnomaviy-uslubiy materiallar		
<b>Ilyustrativ materiallar</b>	<b>Darslikdagi betlar</b>	<b>Qo'shimcha taklif va mulohazalar</b>
1. Ilyustrativ materiallar turlari		
a) o'quv rasmlari		
b) reproduksiyalar		
v) davrning hujjatli tasvirlari		
g) xaritalar		
d) kartosxemalar		
e) sxemalar		
Darslikda kiritilgan illyustratsiyalarda o'quvchilarni yosh psixologik xususiyatlari inobatga olinganligi va mavzuni mazmun - mohiyatiga to'g'ri kelishi		
Ilyustrativ materiallarni sifati		
<b>Yo'naltiruvchi apparat</b>	<b>Darslikdagi betlar</b>	<b>Qo'shimcha taklif va mulohazalar</b>
1. Mundarija qayerda joylashgan? Metodik jihatdan to'g'riligini asoslab bering.		



a) rubrikasiya		
b) mavzuga simvollar		
2. Darslikda qanday ishora-belgilardan foydalanilgan?		
3. Darslik matnini qismlarga ajratib ko'rsatish usullari:		
a) qalin, qiya shrift		
b) bob, bo'lim, paragraflar ko'rsatilganligi		
v) matnda ranglardan foydalanish		
4. Ma'lumotlar bo'yicha yo'naltirish mavjudligi		
a) sanalar		
b) tushunchalar		
v) nomlar		
g) glossariy		
5. Bibliografiya.		
6. Mustaqil o'qitish bo'yicha ma'lumotlar.		

**Tarix darsliklaridan birini to'g'ri tahlil qilib bera olganlik uchun maksimal ball 0,5 ball**

**6-ish uchun juftliklar to'plagan ballni qayd etish varaqasi**

<i>Topshiriqlar, baholash ko'rsatkichlari va mezonlari</i>	<i>1-juftlik</i>	<i>2-juftlik</i>	<i>3-juftlik</i>	<i>4-juftlik</i>	<i>5-juftlik</i>	<i>6-juftlik</i>	<i>7-juftlik</i>	<i>8-juftlik</i>
Maksimal ball – 0,5								
- savol to'liq yoritib berildi (0,1 ball)								
- javoblar yetarli darajada asoslab berildi (0,1 ball)								
- ishtirokchilarning faolligi (0,1 ball)								
- berilgan savollarga javob berdi (0,1 ball)								
- reglamentga rioya kildi (0,1)								
<b>Jami: (0,5 ball)</b>								

**№1 juftlik**

**Berilgan jadval bo'yicha 5-sinf darsligini tahlil qiladi**

**№2 juftlik**

**Berilgan jadval bo'yicha 6-sinf darsligini tahlil qiladi**

**№3 juftlik**

**Berilgan jadval bo'yicha 7-sinf darsligini tahlil qiladi**

**№4 juftlik**

**Berilgan jadval bo'yicha 8-sinf darsligini tahlil qiladi**

**№5 juftlik**

**Berilgan jadval bo'yicha 9-sinf Jahon tarixi darsligini tahlil qiladi**

**№6 juftlik**

**Berilgan jadval bo'yicha 9-sinf O'zbekiston tarixi darsligini tahlil qiladi**

**№7 juftlik**

**Berilgan jadval bo'yicha akademik lisey va kasb-hunar kollejlari uchun yaratilgan Jahon tarixi darsligini tahlil qiladi**

**№8 juftlik**

**Berilgan jadval bo'yicha akademik lisey va kasb-hunar kollejlari uchun yaratilgan O'zbekiston tarixi darsligini tahlil qiladi**

### **3-mavzu: Jadvallar va chizmalar o'quv qo'llanmalari sifatida (2 soat)**

#### **Reja:**

1. O'quv jadvalining asosiy xususiyatlari.
2. Jadvallarning asosiy turlari.
3. Tarixga doir chizmalar o'quv qo'llanmalari sifatida.
4. Tarix o'qitishda foydalaniladigan chizmalarning turlari.
5. Kartografik chizmalarning xususiyatlari va turlari.

#### **Mavzuning qisqacha mazmuni:**

Jadvallar tarixga oid o'quv qo'llanmalaridir. O'quv jadvalining asosiy xususiyatlari. Tarixga doir o'quv jadvallarning turlari. Tarix o'qitishda sxematik rasm. Tarixga doir kartografik o'quv qo'llanmalari. Statik va dinamik kartografik qo'llanmalar. Kartografik qo'llanmalar—tarixiy bilimlar manbai va ularni tizimga solish vositasi. Kartografik savod. Tarix o'qitishda mantiqiy sxemalar. Tarix o'qitishda mantiqiy sxemaning roli. Mantiqiy sxemalarni rasmlar bilan bezash. Applikasiyalardan foydalanish sxematik qo'llanmalarni tasvirlar bilan bezashning ta'sirchan usuli.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Вяземский Е.Е., Стерилова О.Ю. Теория и методика преподавания истории: Учеб. для студ. высш. учеб. завед. – М.: Гуманист. изд. центр Владос, 2003. – 384 с.

2. Короткова М.В. методика обучения истории в схемах, таблицах, описаниях: Практ. пособие для учителей. М.: Гуманист. изд. центр ВЛАДОС, 1999. – 192 с.

3. Педагогический словарь-справочник. Издание 2-е, переработанные и дополненные. /Авт. – сост: Э.А.Сейтхалилов, Б.Х.Рахимов, И.У.Маджидов; под.обиз.ред. Б.Ю. Ходиева: М – во высш. и ср.спец. образовния Р.Уз. – Т.: «OPTIMAL LIGHT», 2011. – 704 с. 704 с.

4. F.P.Korovkin va N.I.Zaporojets tahriri ostida. "Prosvesheniye" nashriyotining 1970 yilgi nashridan tarjima. "V-VI sinflarda qadimgi va o'rta asrlar tarixini o'qitish metodikasi". T., "O'qituvchi", 1974. 404 b.

5. Pedagogik atamalar lug'ati. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'lim vazirligi T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari

ilmiy tadqiqot instituti. Tuzuvchi mualliflar: p.f.d., prof. R.X.Djurayev, p.f.d. O‘.Q.Tolipov, p.f.d., prof. R.G‘.Safarova, t.f.d., prof. X.O.To‘raqulov, p.f.n. M.E.Inoyatova, p.f.n. M.S.Divanova. –T.: “Fan”, 2008. 198 b.

6. Xasanboyev J., To‘raqulov X. Pedagogika nazariyasi fanidan izohli lug‘at. T.: “Fan”, 2008. – 200 b.

7. Eshbekova Dilafruz, Eshbekova Gulshan. Tarix o‘qitish nazariyasi va metodikasi fanini o‘qitishda chizma va jadvallardan foydalanish. Toshkent – Tamaddun, 2014, 292 b.

## Laboratoriya mashg'ulotini olib borish texnologiyasi

Mashg'ulot vaqti: 2 soat	Talabalar soni: 16 ta
<i>O'quv mashg'ulotining shakli va turi</i>	Laboratoriya mashg'uloti (bilim va ko'nikmalarni chuqurlashtirish, malakalar hosil qilish bo'yicha)
<i>Mashg'ulot rejasi, o'quv mashg'ulotining tuzilishi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>O'quv jadvalining asosiy xususiyatlari.</li> <li>Jadvallarning asosiy turlari.</li> <li>Tarixga doir chizmalar o'quv qo'llanmalari sifatida.</li> <li>Tarix o'qitishda foydalaniladigan chizmalar-ning turlari.</li> <li>Kartografik chizmalarining xususiyatlari va turlari.</li> </ol>
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i>	Talabalarda tarixiy material mazmunini jadval va chizmalarda aks ettirish ko'nikma va malakalarini shakllantirish, kartografik o'quv qo'llanmalariga oid bilim va ko'nikmalarni chuqurlashtirish
<p><i>Pedagogik vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Tarixga oid jadvallar, chizmalar, kartografik o'quv qo'llanmalari va aplikasiyalarning ta'tiflari bilan tanishtirish;</li> <li>- Tarixga oid jadvallar, chizmalar, kartografik o'quv qo'llanmalari turlarining tasnifini berish;</li> <li>- Ularning tarix o'qitishdagi o'rni va ahamiyatini tushuntirish;</li> <li>- Tarixga oid jadvallar, chizmalar, kartografik o'quv qo'llanmalari va aplikasiyalar tayyorlash ko'nikma va malakalarini shakllantirish;</li> <li>- Tarixga oid jadvallar, chizmalar, kartografik o'quv qo'llanmalari va aplikasiyalardan tarix o'qitishda foydalanish usullari va yo'llarini o'rgatish va boshqalar.</li> </ul>	<p><i>O'quv faoliyati natijalari:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Tarixga oid jadvallar, chizmalar, kartografik o'quv qo'llanmalari va aplikasiyalar tushunchalari o'rtasidagi farqlarni ko'rsatadilar;</li> <li>- Tarixga oid jadvallar, chizmalar, kartografik o'quv qo'llanmalari turlarini tasniflaydilar;</li> <li>- Ularning tarix o'qitishdagi o'rni va ahamiyatini aytib beradilar;</li> <li>- Tarixga oid jadvallar, chizmalar, kartografik o'quv qo'llanmalari va aplikasiyalar tayyorlash va ulardan tarix o'qitishda foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradilar;</li> <li>- Tarixga oid jadvallar, chizmalar, kartografik o'quv qo'llanmalari va aplikasiyalarning tarix o'qitishda foydalanilayotgan turlarini darslik va boshqa o'quv-uslubiy qo'llanmalaridan tartibli ravishda ochib beradilar.</li> </ul>
<i>Ta'lim usullari</i>	Darsliklar bilan ishlash, Aqliy hujum, Klaster, "Accicment" texnikasi va boshqalar
<i>Ta'lim shakli</i>	Individual, jamoaviy, guruhlarda ishlash
<i>Ta'lim vositalari</i>	Mashg'ulot matni, texnika vositalari va boshqalar
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo'ljallangan xonalar
<i>Monitoring va baholash</i>	<p>Og'zaki so'rov: tezkor-so'rov va boshqalar.</p> <p>Yozma so'rov: amaliy mashqlar, "Mosini tanlang", "Accicment" texnikasi va boshqalar.</p>

## Laboratoriya mashg'ulotining texnologik kartasi

<i>Ish jarayonlari vaqti</i>	<i>Faoliyatning mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
I-bosqich. Mavzuga kirish. (10 minut)	1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi.	Mavzu va rejani yozib oladi.
	1.2. Tinglovchilarning mashg'ulotdagi faoliyatini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi.	Yozib oladi. Baholash mezonlari bilan tanishadi.
II-bosqich. Asosiy qism (65 minut)	2.1. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni talabalar qay darajada o'zlashtirganliklarini aniqlash maqsadida "Mosini tanlang" mashqini taklif etadi. (1-ilova). Mavzu qay darajada o'zlashtirilganligini tekshiradi. Mashq javoblarini muhokama qiladi va baholaydi.	Talabalar uch guruhga bo'linib ishlaydilar.
	2.2. Talabalarga navbatdagi topshiriqni bajarish uchun darsliklar tarqatadi. Topshiriq: Tarix darsliklaridan jadval, chizma va kartografik o'quv qo'llanmalarining barcha turlariga misollar topish. Ularga misol darslikda mavjud bo'lmagan taqdirda avvalgi tarixiy bilimlardan yoki mavjud darslikdan foydalanib aniq mavzu va topshiriqli jadval va chizma tuzish, kartografik o'quv qo'llanmalarining shakli va mavzusini taklif qilish. (2-ilova). Misollar talabalar tomonidan qayd etiladi. Birinchi tayyor bo'lgan bir necha talabaning taqdimot o'tkazishlarini tashkil etiladi, qolganlari yozma shakli yig'ib olib tekshiriladi.	Talabalar individual tartibda darsliklar bilan ishlaydi. Misollar topadi va tuzadi.
	2.3. Accicment texnikasi asosida talabalarning uchta guruhiga topshiriq beriladi. (3-ilova).	O'quv topshirig'i bilan tanishadi va uni bajaradi.
	2.4. 4-Topshiriq. Individual musobaqa. O'qituvchining o'quvchilarga o'rgatishi lozim bo'lgan, xarita bilan samarali ishlay olishi uchun ularda hosil qilinishi lozim bo'lgan, boshlang'ich kartografik savod o'z ichiga oladigan qanday bilim, malaka va ko'nikmalarni bilasiz? Zukkolik va tezlik bilan ulardan 5 tasini yozing. (4-ilova). Vaqtni inobatga olib individual tartibda musobaqa o'tkazib, javoblarni umumlashtiradi va xulosa qiladi.	Erkin fikrini bildiradi. Tayyorlagan misollarni aytadi.
	2.5. Talabalarning bir-birlarini va o'zlarini baholashlarini tashkil qiladi.	Baholaydi.
III-bosqich. Yakuniy (5-minut)	3.1. Mashg'ulot davomidagi talabalar faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi.	Tinglaydi.
	3.2. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar beradi.	Yozib oladi.
	3.3. Mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi. Keyingi mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rishni, savollar tuzib kelishni topshiradi.	O'UMga qaraydi.

**1-ish uchun guruhlar to'plagan ballni qayd etish varaqasi Jami:**  
(0,8 ball)

Guruhlar	1-savol	2-savol	3-savol	4-savol	5-savol	6-savol	7-savol	8-savol	Jami ball
1-guruh									
2-guruh									
3-guruh									

**1-Topshiriq. Quyidagi jadvalning birinchi ustunidagi ta'rif va tavsiflarga uning ikkinchi ustunida keltirilgan ilmiy-ommabop o'quv qo'llanmalari nomlari hamda ularning xususiyatlaridan mosini tanlang.**

**1-guruh**

Ilmiy-ommabop o'quv qo'llanmalari hamda ularning xususiyatlariga ta'rif va tavsiflar	Ularining nomlari va xususiyatlari
1. Ishning mavzusi va vazifasiga moslab ma'lum tartibda va izchillikda qatorlar, ustunlar, kolonkalar shaklida to'g'ri joylashtirilgan raqamli yozuvlarni va matnli yozuvlarni, shuningdek, har xil shartli belgilarning yozuvlarini ... deb atash rasm bo'lgan.	A) Sinxronistik jadvallar
2. ...ning asosiy mavzusiga muvofiq, tarixiy hodisalar doimo bir-biri bilan bog'lanish va munosabatlarda – izchillik munosabatlarida, sabab-natijali bog'lanishlarda, o'xshashlik va farqli tomonlarini aniq-lagan holda, vaqt munosabatlarida va hokazolarda yoritib beriladi;	B) Moslikni ko'rsatuvchi jadval
3. ... jadvallar biror hodisaning o'zgarishini, dinamikasini, rivoj-lanishini ko'rsatadi.	V) Mavzuiy ro'yxat jadvallari
4. Bunday jadvalning xonalarida taqqoslanadigan hodisalarning bir-biri bilan solishtirib chiqiladigan o'xshash va noo'xshash belgilari ajratib ko'rsatiladi. ...	G) Xronologik jadvallar
5. Bu jadvallarning bir xonasida bir-biriga o'xshash tarixiy hodisa-lar, boshqa xonalarida esa ularga biror jihatdan, ya'ni: tarkibiy qism-lari, belgilari, oqibat-natijalari, konkret misollari va boshqa tomonlari bilan mos keladigan hodisalar ko'rsatiladi. ....	D) Rivojlanishni aks ettiruvchi
6. Bunday jadvallarda o'zlarining umumiy belgisiga yoki kursning mavzusiga qarab tanlangan tarixiy faktlar: konkret voqealar, tipik ho-disalar, tarixiy arboblari va hokazolalar birma-bir sanab ko'rsatiladi.	F) Taqqoslash jadvali
7. Vaqt munosabatlarini ko'rsatib berishni o'z oldiga asosiy vazifa qilib qo'ygan jadvallarni ... deb atash mumkin.	L) Jadval
8. Bunday jadvallarning ustunlarida bir necha mamlakatlarda bir vaqtda yuz bergan yoki tarixiy jarayonning turli tomonlariga, masalan, iqtisodiyot, ijtimoiy kurash, urushlar, madaniyat va boshqalarga taal-luqli bo'lgan voqealar sanab ko'rsatiladi. ...	K) Jadval

## 1. Javoblar kaliti:

Savol:	1	2	3	4	5	6	7	8
Javob:								
Ball:								

### 2-guruh

Ilmiy-ommabop o'quv qo'llanmalari hamda ularning xususiyatlariga ta'rif va tavsiflar	Ularning nomlari va xususiyatlari
<p><b>1.</b> Tarixga doir o'quv ...larining ularning yordami bilan hal qilinadigan konkret vazifalar nuqtai nazaridan turlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Rivojlanishni aks ettiruvchi;</li> <li>- Moslikni ko'rsatuvchi;</li> <li>- Taqqoslash;</li> <li>- Mavzuiy ro'yxat.</li> </ul>	A) Chizma
<p><b>2.</b> Ularda har xil turlarning elementlari: rivojlanish dinamikasi, sanab ko'rsatish, moslik, taqqoslash, xronologiya elementlari bor. Odatda, ana shu belgilardan biri ...ning eng asosiy, hal qiluvchi belgisi bo'ladi.</p>	B) Chizmalı rasm
<p><b>3.</b> O'quvchilarga tavsiya etiladigan ... shakli, ya'ni uning xonalari va sarlavhalari o'quvchilar oldiga bir qancha savollar qo'yadi, o'quvchilar shu savollarga javob topib, aytib berishlari yoki uning sarlavhali xonalarini to'ldirishlari lozim.</p>	V) Kartografik chizmalar
<p><b>4.</b> Tarixga doir o'quv qo'llanmasi hisoblangan ... deb o'quvchilarni tarixiy hodisalarning muayyan muhim xususiyatlari bilan tanishtiradigan chizmalı matn yoki chizmalı rasmni tushunamiz.</p>	G) Dinamik kartografik qo'llanma.
<p><b>5.</b> Uning asosiy ta'lim-tarbiyaviy ma'nosi va o'quv rasmlaridan farqi shuki, unda o'rganiladigan hodisalarning o'quvchi e'tiborini va fikrini jalb qilish zarur bo'lgan tomonlari, xususiyatlari va bog'lanishlari har xil tasviriy vositalar bilan belgilangan bo'lib, lekin shu hodisalarni o'rganishda o'quvchi abstraksiya qilishi, fikran ulardan ayrim holda tasavvur etishi lozim bo'lgan tomonlari, xususiyatlari va bog'lanishlari esa ko'rsatilmaydi. Bu ...</p>	D) Jadval
<p><b>6.</b> Shartli belgilar bilan ko'rsatilgan tabiiy va ijtimoiy hodisalar (tog'lar, daryolar, shaharlar, aloqa yo'llari, qo'shinlar va hokazolar) yer yuzida aslida qanday joylashgan bo'lsa, ularni o'shanga mos ravishda o'z ichida joylashtirgan chizmalar tarixga doir sxemali o'quv qo'llanmalarining eng ko'p tarqalgan turidir. Bu chizmalarni shartli ravishda ..... deb ataymiz.</p>	F) Statik
<p><b>7.</b> Kartografik qo'llanmalarining ba'zilarida tarixiy voqelik ... holda aks ettiriladi, ya'ni muayyan davrdagi hodisalar ko'rsatiladi. Ma'lum bir davrni aks ettirishga mo'ljallangan kartalar, «tarixiy jarayonning «kesib olingan qismini», ko'ndalang kesimini ko'rsatadi» desa bo'ladi.</p>	L) Jadval
<p><b>8.</b> Kartografik qo'llanmalarining shartli belgilar bilan aks ettirish xususiyati jarayonlarning ayrim davrlarga oid qismlarinigina emas,</p>	K) Xonalari endi to'ldiriladigan jadval



<p>balki jarayonlarning o'zini, ya'ni o'nlab va yuzlab yil davom etgan tarixiy hodisalarning rivojlanishini ham bitta chizmada ko'rsatish imkoniyatini beradi. Buni ko'rsatib berishning asosiy vositasi tarixiy hodisalarning turli vaqtlardagi bir necha holatlarini amalda bitta chizmada, lekin har xil shartli belgilar bilan aks ettirishdan iboratdir. Bunday chizma ...lardir.</p>	
--	--

## 2. Javoblar kaliti:

Savol:	1	2	3	4	5	6	7	8
Javob:								
Ball:								

## 3-guruh

Ilmiy-ommabop o'quv qo'llanmalari hamda ularning xususiyatlariga ta'rif va tavsiflar	Ularning nomlari va xususiyatlari
<p>1. A.I.Strajev iborasi bilan aytganda, «tarixiy voqealar maydonining jaji in'ikosi» bo'lgan ... ko'ng ko'lamdagi tarixiy hodisalarni ularning o'zaro aloqalari va o'zaro ta'sirida olib o'rganishga yordam beradi va tarixiy materialni umumlashtirishda muhim rol o'ynaydi.</p>	A) Simvol
<p>2. ...larda o'quvchilar uchun yangi ma'lumotlar bo'lmasa ham, lekin ular o'quvchilarning o'zlaridagi bilimlarni chuqurroq anglab olishlari va esda yaxshi saqlab qolishlariga hamda karta bilan ishlashning malaka va ko'nikmalarini hosil qilishlariga yordam beradi.</p>	B) Applikasiya
<p>3. Sxemali qo'llanmalarning uchinchi turini ...lar deb atasak bo'ladi. Tarixga doir har qanday o'quv qo'llanmasi singari, ular ham tarixiy voqelikni aks ettiradi. Ammo u surat yoki fotorasmga o'xshab tarixiy hodisalarning tashqi obrazlarini emas va kartaga o'xshab muayyan hududdagi hodisalarning sodir bo'lgan joyini va ular o'rtasidagi makon munosabatlarini emas, balki tarixiy hodisalarning muhim xususiyatlarini, bu hodisalar o'rtasidagi bog'lanish va munosabatlarni aks ettiradi.</p>	V) Chizmani bevosita o'quvchilar ko'z oldida chizish va to'ldirib borish
<p>4. ... ma'lum vaqtdagi tarixiy hodisani: uning muhim qismlari, belgilari, tomonlari va bog'lanishlarini ko'rsatadi. Qism bilan butun o'rtasidagi, shuningdek, alohida xususiyat bilan umumiy xususiyat o'rtasidagi munosabatlar ularga asos qilib olinadi. Masalan, qadimgi dunyo tarixi darsligidagi «Qadimgi Misr davlati» chizmasi va o'rta asrlar tarixi darsligidagi «Feodallar pog'onasi» chizmasi unga misol bo'ladi.</p>	G) Kontur karta
<p>5. ...da tarixiy hodisaning rivojlanish jarayoni ko'rsatiladi, bu jarayon izchillik tartibi va sabab-natijali bog'lanishlariga qarab bir necha qismga (bosqichlarga) ajratiladi. Ular qatoriga sabab-natijali bog'lanish zanjirlari ham kiradi.</p>	D) Kartografik qo'llanmalar
<p>6. ... - shartli ravishda, o'zidagi ko'rsatmali obraz vositasi bilan muayyan, ko'pincha g'oyat muhim va abstrakt holda bo'lgan mazmun haqida bizda ma'lum bir fikr tug'diruvchi tashqi vositadir.</p>	F) Statik chizma
<p>7. ...larning o'quv qo'llanmasi ekanligi xususiyatini bu terminning kelib chiqishi ham ko'rsatib turadi. Bu termin «ilova, qo'shimcha» degan ma'noni bildiruvchi latincha so'zdan olingan. ....lar tamoman mustaqil o'quv qo'llanmasi emas, lekin ular tarixga doir ko'p-</p>	L) Dinamik chizma

gina o'quv qo'llanmalariga xususan, umumlashtirilgan bilimlarni ishga solgan holda foydalanish lozim bo'lgan o'quv qo'llanmalariga, ya'ni: mantiqiy chizmalarga, kartografik qo'llanmalarga, jadvallarga tarkibiy qism bo'lib kira oladi.	
1. 8. Yangi materialni tushuntirish vaqtida chizma bilan ishlashning qanday usuli mantiqiy chizmaning mazmunini chuqurroq va ongliroq o'zlashtirib olishga yordam beradi? Birinchidan, bu ish o'quvchilarning diqqatini ko'z oldilarida birin-кетин paydo bo'layotgan shartli belgilarga va shunga muvofiq ravishda chizmaning mazmuniga qaratishga yordam beradi. Ikkinchidan, bu paytda o'quvchilar ayrim qismlardan bir butun narsa yuzaga kelayotganini ko'rib turadilar. Uchinchidan, bu usul tarixiy jarayonni: boshqarish organlarining paydo bo'lishi va tugatilishi, yangi ijtimoiy guruhlarining maydonga kelishi, tarixiy hodisaning yangi belgilari vujudga kelishi va boshqalarni aks ettirishi mumkin. O'qituvchining qo'llagan bu usulida chizma rasm bekami-ko'st bo'lmasa ham, oldindan tayyorlab qo'yilgan va hatto chiroyli qilib ishlangan mantiqiy chizmaga qaraganda, ta'lim-tarbiyaviy jihatdan ko'proq foydali bo'la oladi.	2. K) Mantiqiy chizma

### 3. Javoblar kaliti:

Savol:	1	2	3	4	5	6	7	8
Javob:								
Ball:								

2-ilovalar.

**2-Topshiriq.** Tarix darsliklaridan jadval, chizma va kartografik qo'llanmalarning barcha turlariga misollar topish. Talabalarga topshiriqni bajarish uchun darsliklar tarqatiladi. Ularga misol darslikda mavjud bo'lmagan taqdirda avvalgi tarixiy bilimlardan yoki mavjud darslikdan foydalanib aniq mavzu va topshiriq'i keltirilgan jadval, chizma va kartografik qo'llanmalar tuzish. Misollar talabalar tomonidan yozma shaklda qayd etiladi.

### 2- ish uchun individual to'plangan ballni qayd etish varaqasi

	Talabalar F.I.Sh	Topshiriqlar, baholash ko'rsatkichlari va mezonlari							
		1	2	3	4	5	6	Izoh	Jami ball
1									
2									
3									
4									
5									
6									
7									
8									
9									

10									
11									
12									
13									
14									
15									
16									
									<i>Jami: (0,3 ball)</i>

3-ilova.

### 3-Topshiriq.

#### 1. Acciement texnikasi

<p><b>Test.</b></p> <p>1. Bunday element yuqorida aytilgan jadvallarning hamma turlarida bo'lishi mumkin. Lekin o'sha element nomi bilan ataluvchi jadval turidan boshqa barcha jadvallarda bu elementlar jadvalning asosiy g'oyasini ochib berishni osonlashtirib, yordamchi rol o'ynaydi. Gap qaysi element to'g'risida bormoqda?</p> <p>a) rivojlanish dinamikasi elementi,  b) sanab ko'rsatish elementi,  v) moslik elementi,  g) taqqoslash elementi,  d) xronologiya elementi.</p>	<p><b>Muammoli vaziyat.</b></p> <p><b>Mantiqiy chizmalar - bilim manbai, bilish, o'rganish obyekti sifatida tarixni bilishning qanday vazifalarini hal etishga ko'maklashadi?</b></p>
<p><b>Simptom.</b></p> <p><b>Kartografik chizmalarning umumiy xususiyati nimada?</b></p>	<p><b>Amaliy ko'nikmalar.</b></p> <p><b>Kartografik asosdagi chizmal qo'llanmada</b> voqelikning eng xilma-xil hodisalari shu voqelikdagi boshqa hodisa va tomonlardan abstraksiya qilingan holda ko'rsatilishi mumkin. Bunga misol keltiring.</p>

#### 2. Acciement texnikasi

<p><b>Test.</b></p> <p>1. Tarixga doir o'quv qo'llanmasi hisoblangan ...lar – o'rganiladigan davr uchun tipik bo'lgan ayrim narsalarning, turli xil ijtimoiy tabaqa namoyandalari va hokazolarning tasvirlaridir. <b>Odatda, ... o'zida bevosita tasvirlangan hodisaning mazmuniga qaraganda ancha keng mazmunning simvoli bo'lib xizmat qiladi.</b> Masalan, suv o'rtasida o'sib turgan bir necha tup papirus tasviri Nil daryosini; turli mollar ortilgan arava tasviri o'rta asrlarda qishloq bilan shahar o'rtasidagi mol ayirboshlashni; bitta jangchining figurasi butun qo'shin-</p>	<p><b>Muammoli vaziyat.</b></p> <p><b>Kartografik o'quv qo'llanmalari bilan ishlashda o'quvchilar duch keladigan qiyinchiliklar qanday sabablar bilan bog'liq?</b></p>
---	--

<p>ni; o'rta asrdagi bitta patrisiyning figurasi shahardagi hamma patrisiylarni anglatadi. ...lar geometrik shakllar ko'rinishida ham bo'lishi mumkin, masalan, qo'shinning ayrim qismlari geometrik shakl bilan ko'rsatiladi.</p> <p>Ularning bir joydan ikkinchi joyga olib qo'yilishi mumkinligi tarkibiy qismi ulardan iborat bo'lgan o'quv qo'llanmalarining dinamiklik xususiyatini namoyish etish imkoniyatini beradi.</p> <p>a) Realistik rasm b) Chizmalı rasm v) Applikasiya g) Surat d) Portret</p>	
<p><b>Simptom.</b></p> <p>Kartografik chizmalarning umumiy xususiyati – ular o'zlarida belgilab qo'yilgan hodisalar o'rtasidagi makon munosabatlarini ko'rsatib turadi. <b>Boshqa jihatlardan qaraganda kartografik qo'llanmalar g'oyat xilma-xil.</b> Kartografik chizmalar qaysi jihatlariga ko'ra xilma-xil?</p>	<p><b>Amaliy ko'nikmalar.</b></p> <p>Kartografik qo'llanmalarni tayyorlashda ularning dinamiklik xususiyatini kuchaytiradigan qanday vositalardan foydalaniladi?</p>

### 3. Accicment texnikasi

<p><b>Test.</b></p> <p>1. Ilmiy-ommabop shakldagi qo'llanmalarining qanday xususiyatlari yo tarixiy hodisaning haqiqiy rivojlanish jarayonini (unda yangining paydo bo'lishi, o'zgarishi, eskining yo'q bo'lib ketishi jarayonini), yoki hodisani bilish jarayonini (uning belgilarini aniqlash, uni qismlarga ajratish yoki, buning aksicha, ayrim qismlarini qo'shib bir butunga aylantirish jarayonini) aks ettiradi.</p> <p>a) Statikligi b) Dinamikligi v) Rasmliligi g) Mosligi d) Xronologikligi</p>	<p><b>Muammoli vaziyat.</b></p> <p><b>Kartografik qo'llanmalar – bilim manbai, bilish, o'rganish obyekti sifatida tarixni bilishning qanday vazifalarini hal etishga ko'maklashadi?</b></p>
<p><b>Simptom.</b></p> <p>Sxematik rasmning surat yoki fotorasmdan farqi nimada?</p>	<p><b>Amaliy ko'nikmalar.</b></p> <p><b>Kartografik qo'llanmalar - tarixiy voqelik qanday davom etganligi haqida ham ma'lumot beradi. Bunga misollar keltiring.</b></p>

4-ilova.

**4-Topshiriq. Individual musobaqa.** O'qituvchining o'quvchilarga o'rgatishi lozim bo'lgan, xarita bilan samarali ishlay olishi uchun ularda hosil qilinishi lozim bo'lgan, boshlang'ich kartografik savod o'z ichiga oladigan qanday bilim, malaka va ko'nikmalarni bilasiz? Zukkolik va tezlik bilan ulardan 5 tasini yozing.

## JAVOBLAR

## 1. Javoblar kaliti:

Savol:	1	2	3	4	5	6	7	8
Javob:	K	L	D	F	B	V	G	A
Ball:								

## 2. Javoblar kaliti:

Savol:	1	2	3	4	5	6	7	8
Javob:	L	D	K	A	B	V	F	G
Ball:								

## 3. Javoblar kaliti:

Savol:	1	2	3	4	5	6	7	8
Javob:	D	G	K	F	L	A	B	V
Ball:								

## 1. Accicment texnikasi

<p><b>Test.</b></p> <p>1. Xronologiya elementi jadvallarning hamma turlarida bo'lishi mumkin. Lekin xronologik jadval deb ataluvchi jadval turidan boshqa barcha jadvallarda xronologik elementlar jadvalning asosiy g'oyasini ochib berishni osonlashtirib, yordamchi rol o'ynaydi.</p> <p>Javob: d) xronologiya elementi.</p>	<p><b>Muammoli vaziyat.</b></p> <p>Hodisani tarkibiy qismlarga bo'lib, uning belgilarini alohida-alohida ajratib, qismlar bilan belgilar o'rtasidagi bog'lanish va o'zaro munosabatlarni ifodalab, hodisaning analiz va sintezini ko'rsatadi;</p> <p>hodisaning ayrim qismlari va belgilari shartli ishoralar bilan, geometrik shakllar, simvolik tasvirlar yoki yozuvlar bilan ko'rsatiladi;</p> <p>hodisaning ayrim qismlari o'rtasidagi munosabat va bog'lanishlar shu qismlarning o'zaro qanday joylashganligi bilan ko'rsatiladi;</p> <p>ayrim qismlari o'rtasidagi munosabat va bog'lanishlar ularni bir-biriga bog'lovchi chizma va strelkalar bilan aks ettiriladi.</p>
<p><b>Simptom.</b></p> <p><b>Kartografik chizmalarning umumiy xususiyati</b> - ular yer yuzining muayyan davrdagi bir uchastkasiga birmuncha o'xshash bo'lib, o'zlarida belgilab qo'yilgan hodisalar o'rtasidagi makon munosabatlarini ko'rsatib turadi.</p>	<p><b>Amaliy ko'nikmalar.</b></p> <p>Tarix darslarida ko'p foydalaniladigan tabiiy-geografik xaritada joyning relyefi, gidrografik tarmoq va boshqa tabiiy hodisalar shu hududdagi odamlar hayotidan abstraksiya qilingan holda ko'rsatiladi.</p> <p>Xaritada boshqa ijtimoiy hodisalar va ko'pgina tabiiy hodisalardan abstraksiyalangan holda faqat davlatlarning siyosiy chegaralari, xalqlarning joylashgan hududlariga ko'rsatilishi mumkin.</p>

## 2. Acciement texnikasi

### Test.

1. **Applikasiyalar** tamoman mustaqil o'quv qo'llanmasi emas, lekin ular tarixga doir ko'pgina o'quv qo'llanmalariga xususan, umumlashtirilgan bilimlarni ishga solgan holda foydalanish lozim bo'lgan o'quv qo'llanmalariga, ya'ni: mantiqiy chizmalarga, kartografik qo'llanmalarga, jadvallarga tarkibiy qism bo'lib kira oladi. Ba'zi bir hollarda, masalan, dushman qo'shinlarini bildiruvchi shakllarni planga qo'yib chiqishda yoki o'rta asr yarmarkalarini anglatuvchi belgilarni kartaga qo'yib chiqishda ular asosiy qo'llanmalarni to'ldirish uchun xizmat qiladi. Ular asosan seriyali qilib tuziladi va tanlanadi, ya'ni ularning butun bir seriyasi ma'lum bir tarixiy jarayonning va katta tarixiy voqeaning muhim xususiyatlari, tomonlari va davrlarini, o'zgarishlarini, masalan, G'arbiy Yevropada Markazlashgan davlatlar tashkil topishining, Rimda quldorlik latifundiyalari va yerni kolonlar ishlaydigan quldorlik imeniyelari va boshqalar vujudga kelishining muhim xususiyatlari, tomonlari va davrlarini ochib berishga imkon tug'diradigan qilib tayyorlanadi.

Ularning o'ziga xos asosiy xususiyati – ularni bir joydan ikkinchi joyga olib qo'yish mumkinligidir: ularni osonlik bilan bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish, birini ikkinchisi bilan almashtirish, ularni o'qituvchiga kerak bo'lgan tartibda qo'shib joylashtirish mumkin. Javob: v) Applikasiya

### Simptom.

**Kartografik chizmalarning umumiy xususiyati** – ular o'zlarida belgilab qo'yilgan hodisalar o'rtasidagi makon munosabatlarini ko'rsatib turadi. **Boshqa jihatlardan qaraganda kartografik qo'llanmalar g'oyat xilma-xil** – ularda aks etadigan tarixiy hodisalarining mazmuniga, zamon va makonga oid miqyosiga ko'ra.

### Muammoli vaziyat.

Kartografik o'quv qo'llanmalari bilan ishlashda o'quvchilar duch keladigan qiyinchiliklar quyidagi sabablar bilan bog'liq:

- tarixiy hodisalarni ko'rsatuvchi belgilarning shartli ekanligi
- joydagi masofalarning xaritalarda shartli ravishda berilishi
- kartalarda turli vaqtlarda sodir bo'lgan voqealar va tarixiy jarayonning birin-ketin davom etgan bosqichlari birgalikda aks ettirilganligi natijasida.

### Amaliy ko'nikmalar.

Yo'nalishlarni, aloqadorlikni va boshqalarni ko'rsatuvchi **chiziq va strelkalar**, shuningdek, ma'lum bir tarixiy jarayonning va katta tarixiy voqeaning muhim xususiyatlari, tomonlari va davrlarini, o'zgarishlarini, masalan, Rimda quldorlik latifundiyalari va yerni kolonlar ishlaydigan quldorlik imeniyelari va boshqalar vujudga kelishining muhim xususiyatlari, tomonlari va davrlarini ochib berishga imkon tug'diradigan **applikasiyalar** kartografik qo'llanmalarni tayyorlashda ularning dinamiklik xususiyatini kuchaytiradigan vositalar sirasiga kiradi.

### 3. Accicment texnikasi

<p style="text-align: center;"><b>Test.</b></p> <p><b>1. Ilmiy-ommabop shakldagi qo'llanmalar</b>ning dinamikligi yo tarixiy hodisaning haqiqiy rivojlanish jarayonini (unda yangining paydo bo'lishi, o'zgarishi, eskining yo'q bo'lib ketishi jarayonini), <b>yoki hodisani bilish jarayonini</b> (uning belgilarini aniqlash, uni qismlarga ajratish yoki, buning aksicha, ayrim qismlarini qo'shib bir butunga aylantirish jarayonini) <b>aks ettiradi</b>. Javob: b) Dinamikligi</p>	<p style="text-align: center;"><b>Muammoli vaziyat.</b></p> <p><b>Kartografik qo'llanmalar</b> - bilim manbai, bilish, o'rganish obyekti sifatida tarixni bilishning quyidagi vazifalarini hal etishga ko'maklashadi:</p> <ul style="list-style-type: none"><li>- Hodisalarning sodir bo'lgan joyini ko'rsatadi;</li><li>- Hodisalar o'rtasidagi makon munosabatlarini ko'rsatadi;</li><li>- Tarixiy voqelik qanday davom etganligi haqida ma'lumot beradi;</li><li>- Tarixiy tasavvurlar hosil qilishda muhim rol o'ynaydi.</li></ul>
<p style="text-align: center;"><b>Simptom.</b></p> <p>Surat yoki fotorasm tarixiy hodisalarning tashqi obrazlarini aks ettiradi.</p> <p>Sxemadagi obrazning fotosurat yoki kartinadagidan farqi shuki, sxemada obraz ideallashtirilgan bo'ladi, narsaning eng muhim xususiyatlarigina tafsilotlarsiz aks ettiriladi.</p> <p>Sxematik rasmda biron murakkab narsa tasvirlanganda narsaning hamma qismlaridan har qaysisi aniq-ravshan bo'rttirib ko'rsatiladi, narsaning qismlari o'rtasidagi bog'lanishlar ko'rsatib beriladi</p> <p>Sxematik rasm, ko'pincha, narsaning fotosurat yoki realistik rasmda ko'rib bo'lmaydigan joylarini ko'rsatishga imkon beradi.</p>	<p style="text-align: center;"><b>Amaliy ko'nikmalar.</b></p> <p><b>Kartografik qo'llanmalar quyidagi kabi</b> tarixiy voqelik hodisalari qanday davom etganligi haqida ma'lumot beradi: feodal tarqoqlik, urush va qo'zg'olonlar qanday davom etgani haqida lo'nda ma'lumot beradi; istilolar, xo'jalikning rivojlanishi, ayrim janglarning borishi va boshqalar haqida qisqacha ma'lumot beradi</p>

## JADVALLAR VA CHIZMALAR O'QUV QO'LLANMALARI SIFATIDA

Ishning mavzusi va vazifasiga moslab ma'lum tartibda va izchillikda qatorlar, ustunlar, kolonkalar shaklida to'g'ri joylashtirilgan raqamli yozuvlarni va matnli yozuvlarni, shuningdek, har xil shartli belgilarning yozuvlarini jadval deb ataladi.

Jadvallarda chizmalardan farqli ravishda tarixiy hodisalar shartli ravishda ifodalanmavdi.



Jadvallarning yuqorida aytilgan turlarga bo'linishi shartlidir.

Ko'pgina jadvallarda har xil turlarning elementlari:

- rivojlanish dinamikasi,
- sanab ko'rsatish,
- moslik, taqqoslash,
- xronologiya elementlari bor.

Odatda, ana shu belgilardan biri jadvalning eng asosiy, hal qiluvchi belgisi bo'ladi.


Masalan, xronologiya elementlari quyida aytilgan jadvallarning hamma turlarida bo'lishi mumkin.

Lekin ularda bu elementlar asosiy g'oyasini ochib berishni osonlashtirib, yordamchi rol o'ynaydi.



Tarixga doir o'quv qo'llanmasi hisoblangan **chizma** deganda o'quvchilarni tarixiy hodisalarning muayyan muhim xususiyatlari bilan tanishtiradigan chizma yoki rasmni tushunamiz.

Bu chizmaning asosiy ta'lim-tarbiyaviy ma'nosi va o'quv rasmlaridan farqi shuki, unda o'rganiladigan hodisalarning o'quvchi e'tiborini va fikrini jalb qilish zarur bo'lgan tomonlari, xususiyatlari va bog'lanishlari har xil tasviriy vositalar bilan belgilangan bo'lib, lekin bu hodisalarni o'rganishda o'quvchi abstraksiya qilishi, fikran ulardan ayrim holda tasavvur etishi lozim bo'lgan tomonlari, xususiyatlari va bog'lanishlari esa ko'rsatilmaydi.



#### **4-Mavzu: Tarix darslarida hujjatli tarixiy manbalar bilan ishlash**

**(2 soat)**

##### **Reja:**

1. Hujjatli tarixiy manbalarning turlari.
2. Tarix o'qitishda foydalaniladigan moddiy madaniyat buyumlari va ularning yasama nusxalari.
3. Hujjatli san'at asarlari bilan ishlash.
4. Yozma tarixiy manbalar.

##### **Mavzuning qisqacha mazmuni:**

Hujjatli tarixiy manbalar tarixga oid o'quv qo'llanmalari sifatida. Hujjatli tarixiy manbalarning turlari. Hujjatli tarixiy adabiyotlarning turlari.

O'quv qo'llanmalari sifatida moddiy madaniyat buyumlarining asl namunalari va ularning tasvirlari (nusxalari): mulyajlar, maketlar, tekis yuzali suratlar.

Hujjatli san'at asarlarining 2 turi: hayotiy va xayoliy tasavvurlar. San'at asarlaridan tarixga oid o'quv qo'llanmalari sifatida foydalanish.

Yozma tarixiy manbalarni o'rganish. Yozma manbalarning turlari va ulardan foydalanish usullari. Yozma tarixiy manbalarning asosiy guruhlari: o'z vaqtida amaliy ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlar; hikoyaviy-tarixiy va tarixiy-geografik hujjatlar; badiiy adabiyot yodgorliklari; tarix o'qitishda yozma hujjatlardan foydalanish metodikasi.

Tarixiy hujjatga qo'yiladigan talablar. Tarixiy hujjat bilan ishlash usullari. Tarixiy hujjatlar – o'quvchilar bilim olishini faollashtiruvchi asosiy vosita. Tarixiy hujjatlarni to'plash va ularning turlari. Tarix xrestomatiyalaridan foydalanish.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T., 1998.
2. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, “Ma‘naviyat”, 2008.
3. Mahkamov A. va boshqalar. Rasmlarda Vatan tarixi. (O‘zbekiston tarixidan lavhalar) T., 1995.
4. Madraimov A. Manbashunoslik: Bakalavriatning 5140600 – tarix yo‘nalishi talabalari uchun darslik / A.Madraimov, G.Fuzailova; – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. – 264 b.
5. Nabiyev A., Bo‘riyev O., Shoymardonov I. “O‘zbekiston tarixini o‘qitishda etnografik materiallardan foydalanish”. Umumta‘lim maktablari o‘qituvchilari uchun qo‘llanma. T., “O‘qituvchi”, 1996. – 128 b.
6. Raxmatullayev T. O‘zbekiston xalqlari tarixini o‘qitishda arxeologiya materiallaridan foydalanish: (O‘qituvchilar uchun qo‘llanma). T., “O‘qituvchi”, 1994. – 96 b.
7. Rahimov J. O‘zbekiston tarixini o‘rganishda arxiv manbalaridan foydalanish. – T.: O‘qituvchi, 1995.
8. Sa‘diyev A. Maktabda tarix o‘qitish metodikasi. Ped. in-t stud. uchun darslik. Maxsus muharr. Z.R.Nuriddinov. 2-tuzatilgan va to‘l-dirilgan nashri. T.: “O‘qituvchi”, 1988. – 224 b.
9. V-VI sinflarda qadimgi va o‘rta asrlar tarixini o‘qitish metodikasi. Korovkin F.P. va Zaporjets N.I. tahriri ostida. O‘qituvchilar uchun qo‘llanma. “Prosvesheniye” nashriyotining 1970 yilgi nashridan tarjima. Tarjimonlar: I.Ahmedov, B.A`zamov, M.Ibrohimov, R.Otametov. T., “O‘qituvchi”, 1974. – 404 b.
10. Shodmonova S.B. Turkiston tarixi – matbuot ko‘zgisida (1870-1917 yillar) / O‘zR FA tarix in-ti. – T.: “Yangi nashr”, 2011. – 296 b.
11. Uzlaksiz ta‘lim ilmiy-uslubiy jurnali. T., 2004/3 son. K.Shonazarov. "O‘quvchilarda milliy tarixga munosabatni shakllantirishning nazariy masalalari", 89-bet.
12. Xalq ta‘limi jurnali. 2000/3–son. Z.Islomov, M.Abdullayev. "Tarixni dialektik – madaniy tushunish", 126-128 bet.

МУЗЕЙЛАР ТЎҒРИСИДА ЎРҚ – 177-сонли, 12.09.2008.

АРХИВ ИШИ ТЎҒРИСИДА ЎРҚ – 252-сонли, 15.06.2010.

МАДАНИЙ МЕРОС ОБЪЕКТЛАРИНИ МУҲОФАЗА ҚИЛИШ  
ВА УЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ТЎҒРИСИДА 269-II-сонли,  
30.08.2001.

НОМОДДИЙ МАДАНИЙ МЕРОСНИ МУҲОФАЗА ҚИЛИШ  
ТЎҒРИСИДАГИ ХАЛҚАРО КОНВЕНЦИЯНИ (ПАРИЖ, 2003  
ЙИЛ 17 ОКТЯБРЬ) РАТИФИКАЦИЯ ҚИЛИШ ҲАҚИДА ЎРҚ-  
122-сонли, 12.12.2007.

«МАДАНИЙ МЕРОС ОБЪЕКТЛАРИНИ МУҲОФАЗА ҚИ-  
ЛИШ ВА УЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ТЎҒРИСИДА»ГИ  
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҚОНУНИГА ЎЗГАРТИШЛАР  
КИРИТИШ ҲАҚИДА ЎРҚ-228-сонли, 09.10.2009.

АРХЕОЛОГИЯ МЕРОСИ ОБЪЕКТЛАРИНИ МУҲОФАЗА  
ҚИЛИШ ВА УЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ТЎҒРИСИДА ЎРҚ-  
229-сонли, 13.10.2009.

## Laboratoriya mashg'ulotini olib borish texnologiyasi

<i>Talabalar soni: 16 ta</i>	<i>Vaqt: 2 soat</i>
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Guruhlar taqdimoti va individual topshiriqlarni bajarishga asoslangan laboratoriya mashg'uloti
<i>Mashg'ulot rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Hujjatli tarixiy manbalarning turlari.</li> <li>2. Tarix o'qitishda foydalaniladigan moddiy madaniyat buyumlari va ularning yasama nusxalari.</li> <li>3. Hujjatli san'at asarlari bilan ishlash.</li> <li>4. Yozma tarixiy manbalar.</li> </ol>
<i>Mashg'ulotning maqsadi:</i> Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirishni ta'minlash va amaliy ish ko'nikmalarini ortira borish.	
<i>Pedagogik vazifalar</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari.</i>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• Mavzuni mustaqil o'rganish uchun asos yaratadi;</li> <li>• Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirishga va mustahkamlashga yordam beradi.</li> <li>• Guruhlarda hamkorlikda ishlashni tashkil qiladi.</li> <li>• Hujjatli tarixiy manbalardan tarix ta'limida foydalanish usullarini o'zlashtirishga yordam beradi.</li> <li>• O'z pedagogik nuqtai nazariga va ijodiy laboratoriyasiga ega bo'lishni shakllantiradi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Mashg'ulot rejalari bilan oldindan tanishib chiqib, tayyorgarlik ko'radi.</li> <li>• Hujjatli tarixiy manbalarning turlarini yoritib bera oladi.</li> <li>• Tarix o'qitishda foydalaniladigan moddiy madaniyat buyumlari va ularning yasama nusxalaridan tarix darslarida foydalanish usullarini aytib beradi.</li> <li>• Hujjatli san'at asarlari bilan ishlash haqida o'z fikrini bayon etadi.</li> <li>• Yozma tarixiy manbalarning turlarini va ulardan tarix ta'limida foydalanish usullarini ko'rsatib bera oladi.</li> </ul>
<i>O'qitish usullari va texnika</i>	"Guruhlarda ishlash" strategiyasi, "Ko'rgazmali dars" metodi, "Taqdimot" metodi, guruhlar uchun va individual topshiriqlar, savol-javoblar.
<i>O'qitish vositalari</i>	Ko'rgazmali tarixiy buyumlar va tarixiy ahamiyatli san'at asarlari va yozma manbalar namunalari, kompyuter, proyektor, slayd, tarqatma materiallar, doska.
<i>O'qitish shakllari</i>	Guruhlarda va individual ishlash.
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, guruhlar ishi va individual baholarni jamlab reyting tizimi asosida baholash.

## Laboratoriya mashg'ulotining texnologik kartasi

<i>Ish jarayonlari vaqti</i>	<i>Faoliyatning mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
I-bosqich. Mavzuga kirish. (10 daqiqa)	1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi. Ta'lim jarayoni interfaol usullar orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi.	Mashg'ulotning maqsad va vazifalari bilan tanishadilar.
	1.2. Talabalarni fikrlarini jonlantirish maqsadida «Qanday tarixiy bilim manbalarini hujjatli tarixiy manbalar deb atash mumkin?», «Hujjatli tarixiy manbalarni qanday turlarga bo'lish mumkin?», «Tarix ta'limida hujjatli tarixiy manbalardan foydalanish qanday ahamiyatga ega?» kabi savollar bilan murojaat qiladi. Fikrlarni umumlashtirib laboratoriya mashg'ulotini boshlaydi.	Yozib oladi. Javob beradi.
	1.3. Talabalarni 3 ta guruhga bo'ladi, baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi. (1-ilova).	Gruhlarga bo'lindi. O'quv topshirig'i va baholash mezonlari bilan tanishadi.
II-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1. Guruhlarga "Koop-koop" texnikasidan foydalanilgan holda topshiriq beradi (2-ilova): Har bir guruh belgilangan vaqt davomida o'zlari tanlagan mavzu bo'yicha umumiy taqdimot o'tkazadi. 1. Tarix o'qitishda foydalaniladigan moddiy madaniyat buyumlari va ularning yasama nusxalari. 2. Hujjatli san'at asarlari bilan ishlash. 3. Yozma tarixiy manbalar.	Topshiriqlar bilan tanishadi.
	2.2. Taqdimot bo'yicha yo'riqnoma beradi, taqdimotni tayyorlashga ko'maklashadi, izoh beradi, bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga alohida e'tibor qaratadi. Topshiriqni qay darajada to'g'ri bajarilishini diqqat bilan kuzatadi.	Har bir guruhdan jamoa sardori va ishtirokchilar chiqib taqdimot o'tkazadi.
	2.3. Har bir guruh ish taqdimotini o'tkazib bo'lgach, qolgan ikki guruhga taqdimot mavzusi yuzasidan savol va topshiriqlar berib baholaydi (qo'shimcha 0,6 ball bilan (1-ilova).	
	2.4. Guruhlarga "Hujjatli tarixiy manbalarning turlari"ni yoritib bering va jadvalni to'ldiring – deb savol bilan murojaat qiladi (3-ilova).	Mustaqil ishlaydi.
	2.5. Guruhlarga variantli topshiriqlar majmuini bajarishni topshiradi (4-ilova).	
III-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1. Ish bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi.	Savollar beradi.
	3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi ishtirokchilar faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi.	
	3.3. Keyingi mashg'ulotga tayyorlanib kelish uchun talabalarga mavzuni beradi.	O'UM ga qaraydi.

## Talabalarining bilim va ko'nikmalarini baholash mezonlari.

Guruh	1-og'zaki javoblar sifati va talabalarining faollik darajasi (0,6 b)	2-taqdimotda ko'rgazmalilikdan foydalanish samaradorligi (0,6 b)	3-tarqatma materiallardagi topshiriqlarning bajarilishi (1,0 b)	4-qo'shimcha javoblar uchun (0,6 b)	Umumiy ball M/b = 2,8
I					
II					
III					

## "Koop-koop (Birgalikda o'qiymiz)" texnikasini o'tkazish qoidasi

Ish bos.	Faoliyat	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi.
1.	3 va 5 kishidan iborat kichik guruhlarini tashkil qiladi.	Guruhga bo'linadi.
2.	Har bir guruhga mavzuning bir bo'lagi bo'lib hisoblangan bir xil topshiriqlar beradi. Topshiriqni bajarish uchun yo'riqnomalar beradi.	Guruh a'zolari o'zaro topshiriqlarni bo'lib olishadi.
3.	Topshiriqni muvaffaqiyatli bajarilishini nazorat qiladi.	3.1. Hamma mustaqil topshiriqni bajardi, mavzular bo'yicha mustaqil ishlaydi. 3.2. Guruh a'zolarining mini-ma'ruzalarini tinglaydi. Umumiy ma'ruza tayyorlanadi. Ma'ruzani o'qish uchun spiker tayinlanadi.
4.	Guruhlarda ish yakunlarini chiqarilishini so'raydi va taqdimotni o'tkazadi.	Guruh spikeri ma'ruzaning taqdimotini o'tkazadi.
5.	Natijalarni tahlil qiladi va baholaydi, guruhlarni ballarini aniqlaydi.	Tinglaydi.

## 1. Jadvalni to'ldiring.

**Hujjatli tarixiy manbalar-ning turlari.**

**Turlari:**

**Foydalanish metodikasi:**

**Foydalanish vositalari:**

**Tarix o'qitishda foydalaniladigan hujjatli moddiy madaniyat buyumlari va ularning yasama nusxalari.**

**Turlari:**

**Foydalanish usuli:**

**Foydalanish vositasi:**



## 2. Jadvalni to'ldiring.

<b>Hujjatli tarixiy manbalar-ning turlari.</b>	<b>Turlari:</b>	<b>Foydalanish metodikasi:</b>
--	-----------------	--------------------------------

**Foydalanish vositalari:**

<b>Hujjatli san'at asarlari bilan ishlash.</b>	<b>Turlari:</b>	<b>Foydalanish usuli:</b>
--	-----------------	---------------------------

**Foydalanish vositasi:**

### 3. Jadvalni to'ldiring.

<b>Hujjatli tarixiy manbalar-ning turlari.</b>	<b>Turlari:</b>	<b>Foydalanish metodikasi:</b>
--	-----------------	--------------------------------

<b>Foydalanish vositalari:</b>
--------------------------------

<b>Hujjatli yozma tarixiy manbalar.</b>	<b>Turlari:</b>	<b>Foydalanish usuli:</b>
---	-----------------	---------------------------


<b>Foydalanish vositasi:</b>
------------------------------

Guruh \_\_\_\_\_ Talaba \_\_\_\_\_ Sana \_\_\_\_\_

Variant 1.

**Topshiriq I. Ro'yxatdagilarni bitta umumiy nom bilan atang.**

\* .....hujjatlar .




**Topshiriq II. Rasmi testni bajaring. Quyida keltirilgan rasm hujjatli tasviriy san`at asarlarining qaysi guruhiga mansub ekanini aniqlang.**

A) O'z zamonasidagi jamiyat hayotining manzarasi ko'rsatib berilgan.

B) Mazkur yodgorlik bunyodga kelgan zamonda yashagan odamlarning g'oyalari, qarashlari, diniy e'tiqodlari va intilishlari ko'rsatib berilgan.

C) Odamlarning har xil xudolar, ruh-arvohlar, jinlar, alvastilar, afsonaviy qahramonlar, devlar va hokazolar haqida xayoliy tasavvurlarini aks ettiruvchi asar.



Urchuq ushlagan zodagon ayol. Suzadagi relyef. Parij. Luvr.

**Topshiriq III. Quyida keltirilgan hujjatli tarixiy manbaning turini aniqlang.**

\*



Sopol taxtacha. Konverti bilan xat. Shumer era.avv. 3 mingyillik. Sankt Peterburg. Ermitaj.

**Topshiriq IV. Toifalash jadvalini to'ldiring.**  
**Hujjatli yozma tarixiy manbalarning ushbu uch turiga misollar**  
**keltiring.**

O'z davrida amaliy ahamiyatga ega bo'lgan akt xarakteridagi yozma tarixiy hujjatlar	Hikoyaviy-tarixiy va tarixiy-geografik xarakterdagi yozma tarixiy hujjatlar	Tarixiy davrlardagi badiiy adabiyot yodgorliklari
1.	1.	1.
2.	2.	2.
3.	3.	3.

**Topshiriq V. Quyida keltirilgan jadvalda qanday hujjatli yozma tarixiy manba haqida so'z bormoqda? Nuqtalarning barchasi uchun umumiy bo'lgan bitta so'z yoki bitta so'z birikmasi tanlang.**

..... lardan foydalanishning o'ziga xos jihatlar
- .....larda tarixiy voqelik qayta ishlangan, xalq fantaziyasi bilan boyitilgan va bezatilgan bo'lib, hamma vaqt ham ishonchli manba deb bo'lavermaydi;
- manba sifatida bu .....lardan, asosan, boshqa hech qanday yozma yodgorliklar deyarli saqlanib qolmagan uzoq o'tmishni yoritib berishda foydalaniladi;
- .....larning asosiy ahamiyati shundan iboratki, ular o'z zamonidagi jamiyatning mafkurasini aks ettiradi va buni o'quvchilarning tushunib olishlariga yordam beradi.

**Topshiriq VI. Moddiy madaniyat yodgorliklarining tasvirlari va yasama nusxalari deganda nimalar tushuniladi? Ikkita misol yozing.**

1. \_\_\_\_\_
2. \_\_\_\_\_

**Variant 2.****Topshiriq I. Ro'yxatdagilarni bitta umumiy nom bilan atang.**

\* .....yodgorliklari.

Xalq og'zaki ijodi  
Nasr, nazm, drama  
Masal, epos, asotirlar,  
qo'shiqlar  
Epigrama, satira  
Tagdor iboralar

**Topshiriq II. Rasmi testni bajaring. Quyida keltirilgan rasm hujjatli tasviriy san`at asarlarining qaysi guruhiga mansub ekanini aniqlang.**

A) Mazkur yodgorlik bunyodga kelgan zamonda yashagan odamlarning g'oyalari, qarashlari, diniy e'tiqodlari va intilishlari ko'rsatib berilgan.

B) O'z zamonasidagi jamiyat hayotining manzarasi ko'rsatib berilgan.

C) Odamlarning har xil xudolar, ruh-arvohtar, jinlar, alvastilar, afsonaviy qahramonlar, devlar va hokazolar haqida xayoliy tasavvurlarini aks ettiruvchi asar.




Kitobni qayta nashr qilish uchun ruxsat berilgan. © 2010 yil.

**Kimmeriylar. Era.avv. VI asr etrusk vazasidagi tasvir.**

**Topshiriq III. Quyida keltirilgan hujjatli tarixiy manbaning turini aniqlang.**

\* .....



Mixxat yozuvli Shumer taxtachalari. Era.avv. 3 mingyillik.

**Topshiriq IV. Toifalash jadvalini to'ldiring.**  
**Hujjatli tarixiy manbalarning ikkinchi turi bo'lgan hujjatli tasviriy san`at asarlarining ushbu ikki turiga misollar keltiring.**

<p>O'z zamonasidagi jamiyat hayotining manzaralarini ko'rsatib beruvchi (shartli ravishda hayotiy) tasviriy san`at asarlari</p>	<p>Mazkur tasviriy san`at yodgorliklari bunyodga kelgan zamonda yashagan odamlarning g'oyalari, qarashlari, diniy e'tiqodlari va intilishlarini ko'rsatib berilgan (shartli ravishda hayotiy) tasviriy san`at asarlari</p>
<p>1.</p> <p>2.</p> <p>3.</p>	<p>1.</p> <p>2.</p> <p>3.</p>

**Topshiriq V. Quyida keltirilgan jadvalda qanday hujjatli tarixiy manba bilan ishlash usullari haqida soʻz bormoqda? Nuqtalarning barchasi uchun umumiy boʻlgan bitta soʻz yoki bitta soʻz birikmasi tanlang.**

**... lar bilan ishlash**

- muayyan davrdagi jamiyat hayotini ...lardan olingan epizodlarni tahlil qilish asosida taʼriflab berish;
- oʻquvchilarni ...larga tarixiy koʻz bilan ilmiy-tanqidiy qarashga oʻrgatib borish;
- yaratilgan ...lardan tarixiy hodisalar va arboblarning yorqin obrazlarini ravshan tasavvur qilishlari uchun lavha keltirish;
- ...ning jamiyat hayotidagi roli bilan ham konkret misollarda tanishish;

**Topshiriq VI. Tarix oqitishda hujjatli tarixiy manbalardan foydalanishning ahamiyati nimalardan iborat? Ikkita misol yozing.**

1. \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_


2. \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_


\_\_\_\_\_


\_\_\_\_\_





**Hujjatli tasviriy san'at asarlarining ikki guruhi**





## MUNDARIJA

KIRISH.....	3
-------------	---

### **I. “Tarix o’qitish jarayonini loyihalash” fani bo’yicha laboratoriya ishlanmasi:**

1.1. Laboratoriya mashg’ulotlarini tashkil etish bo’yicha didaktik vositalar va tavsiyalar.....	10
1.2. Fan yuzasidan laboratoriya mashg’ulotlari uchun tavsiya eiladigan mavzular va baholash mezonlari.....	14
1.3. O’zbekiston hududida ilk davlat uyushmalari, ularning shakllanish va rivojlanish bosqichlari mavzusini loyihalashtirish uchun birinchi topshiriqni bajarish bo’yicha ko’rsatma.....	15
1.4. Mavzuni loyihalashtirish uchun ikkinchi topshiriqni bajarish bo’yicha ko’rsatma.....	17
1.5. Mavzuni loyihalashtirish uchun uchinchi topshiriqni bajarish bo’yicha ko’rsatma.....	36
1.6. Mavzuni loyihalashtirish uchun to’rtinchi topshiriqni bajarish bo’yicha ko’rsatma.....	43

### **II. “Arxeologiya” fani bo’yicha laboratoriya ishlanmasi:**

2.1. Arxeologiya yodgorliklarida qazuv tadqiqot ishlarini olib borish usullari.....	45
2.2. Qadimgi qabriston va mozor-qo’rg’onlarni qazish usullari va materiallari ustida dala sharoitida ishlash.....	54
2.3. Qoyatosh suratlarini dala sharoitida o’rganish, fiksatsiya qilish usuli va kalkalashtirish.....	61
2.4. Arxeologiya topilmalarini laboratoriya usulida ilmiy tadqiq etish...73	

### **III. “Tarix o’qitish nazariyasi va metodikasi” fani bo’yicha laboratoriya ishlanmasi:**

3.1. Laboratoriya mashg’ulotlarini tashkil etish bo’yicha tavsiyalar, baholash mezonlari.....	79
3.2. Tarixga oid o’quv qo’llanmalarining vazifalari va xususiyatlari.....	82
3.3. Tarix darsliklari va ularga qo’yiladigan talablar.....	96
3.4. Jadvallar va chizmalar o’quv qo’llanmalar sifatida.....	113
3.5. Tarix darslarida hujjatli tarixiy manbalar bilan ishlash.....	128

**63.3(50')**

**T 47**

Tarix fanlaridan laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish usullari:  
(O'quv-uslubiy qo'llanma) / Z.T.Xolboyev, F.Sh.Aqchayev,  
D.T.Eshbekova, G.T.Eshbekova; mas'ul muharrir A.Amanlayev. –  
Tochkent: MUMTOZ SO'Z, 2016. – 148 b.

UO'K: 94(575.1)

KBK 63.3(50')

ISBN 978-9943-4816-5-7

*Ilmiy-nashr*

Nashriyot muharriri: Murodova Gulinigor  
Musahhiha: Sa'dullayeva Nazokat  
Texnik muharrir: Behzod Boltaboyev

«MUMTOZ SO'Z»  
mas'uliyati cheklangan jamiyati  
nashriyoti

Manzil: Toshkent, Navoiy ko'chasi, 69.  
Tel.: (998 71) 241-60-33 E-mail: [mumtoz\\_soz@mail.ru](mailto:mumtoz_soz@mail.ru)

Nashriyot litsenziyasi AI № 103. 15.07.2008  
Bosishga ruxsat etildi 26.11.2016  
Qog'oz bichimi A4 1/32. Ofset qog'ozi  
Times New Roman garniturasida. Hisob-nashriyot tabog'i 9,0  
Shartli bosma tabog'i 9,25. Adadi 300  
Bahosi kelishilgan narxda

«MUMTOZ SO'Z»  
mas'uliyati cheklangan jamiyatining  
matbaa bo'limida chop etildi.  
Manzil: Toshkent, Navoiy ko'chasi, 69.  
Tel.: 241-81-20